

2026-yil, 30-avgust 16(84)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



**YAGONA VATAN,
YAGONA XALQ
BO'LIB, YANGI
HAYOT VA KELAJAK
YARATAMIZ!**

35
Yil





DOLZARB MAVZU

Dilobar JURAYEVA,

Respublika ma'naviyat va ma'rifat Markazi

Olot tuman bo'linmasi rahbari

BUYUK O'ZGARISHLAR DAVRI

Abadiy va bepoyon tarix oldida o'ttiz besh yillik muddat bir lahzaday gap. Ammo, uning zalvori hamda salmog'i – butun boshli bir mamlakat taqdirida tutgan o'rniga qarab baholasak – asrlarga tatigulikdir. Ana shunday yuksak va sharaflı bir vaqt oralig'ida voyaga yetib, oq-qorani tanigan insonlar safida ekanligimdan faxrlanaman.

Mamlakatimiz istiqloлга erishganida men atigi to'rt yoshli jajji qizaloq edim. Ammo, tarixni o'qib-o'rganib, millatimizning nechog'lik og'ir kunlarni boshidan kechirganini his etgach, bu ozodlik, bu muqaddas erk xalqimiz uchun jon qadar aziz hamda kerakli ekanligini angladim. Sobiq Sho'rolar davrida yashab, og'ir kunlarni boshidan o'tkazganlar esa buni yanada teranroq tushunadilar, qadrlaydilar deb o'ylayman.

Bir paytlar O'zbekistonni dunyoda hech kim tanimasdi, o'zbek degan millat borligini ham bilishmasdi. Bugun esa mamlakatimiz o'zining butun qudratini namoyon etmoqda, ilm-u fanning, san'atu sportning barcha yo'nalishlarida o'z so'zini aytib, ro'yi zaminda o'zbek degan qadim hamda iqtidorli bir millat borligini olamga ko'z-ko'z etmoqda. Bundan paydo bo'ladigan iftixor tuyg'usi har lahzada ko'nglimni nurlantirib turadi. Demak, istiqloл cheksiz imkoniyatlar davri ekan!

Esimda, o'rtahol bir oiladan chiqqanligim uchun ro'zg'orimizda ba'zan yetishmovchiliklar ham bo'lib turardi, shunday paytlarda rahmatli bobom o'zicha nimalarnidir pichirlab, qo'liga kitob olardi. Keyinchalik, esimni taniganimdan so'ng bobomdan qolgan kitoblarni ko'zdan kechirsam, ularning aksariyati tarixga oid ekan. Demak, yoshi ulug'larimiz millatning xor-u zabun yashayotganini his etishgan, o'zlik va iftixor tuyg'ularini yo'qotmaslik uchun tarixiy kitoblardan madad istashgan ekan! Demak, istiqloл teran va shirin bir orzu bo'lgan ekan...

Bugun atrofga nazar tashlayman, bundan o'n besh, yigirma yil oldingi manzaralarni ko'z oldimga keltirishga urinaman, biroq tasavvur hamisha ham istaganingizni namoyish etolmas ekan: Olotning qay bir go'shasiga borsam, qadim Buxoroning qaysi ko'chasidan yursam, nigohlarim faqat ulug'vorlikni,

go'zallikni ko'radi. Zamonaviy, ko'kka bo'y cho'zgan imoratlar ko'zlarni quvontiradi. Bir paytlar tushimizga ham kirmagan dizayndagi inshootlar hayratimizni oshiradi. Va beixtiyor Sohibqiron bobomning "Agar kuch-qudratimizga shubha qiladiganlar bo'lsa, biz qurgan imoratlarni ko'rsin!" degan purma'no so'zlari quloqlarimda jaranglaydi. Demak, istiqloл faxr-u g'urur ekan!

O'tgan o'ttiz besh yil orasida O'zbekiston qanchalar rivojlandi, ayniqsa, so'nggi o'n yillikda qanchalab yuksak marralarni zabt etdi – buni faqat ana shu jarayon ichida yurganlargina chuqur anglaydilar. Inson o'z kundalik tashvishlari bilan ovora bo'lib, tirikchilik vajidan o'zini har tarafga urib, ba'zida atrofida ro'y berayotgan tarixiy voqea-hodisalarning asl mohiyatini tushunmasligi, unga e'tibor bermasligi ham mumkin. Biroq, yangilanish jarayonlarida bevosita ishtirok etib, uning qanchalar shiddat bilan kechayotganini his etayotgan kishilar yaxshi bilishadi: shu kunlarda tarix yozilmoqda! Ildizlari ming yillarga borib tutashadigan qadim millatning, jafokash bir o'lkani yangi tarixi bitilmoqda. Har kuni bir yangilik, har kuni bir quvonchli xabar! Demak, istiqloл yangilikka, yaxshilikka intilish ekan.

Maktabni bitirgan ilk yillarimda yosh ijodkorlar to'garagiga qatnardim, bir kuni ustozlarimdan biri qiziq bir voqeani aytib berdi. Avvaliga bu menga unchalik qiziq tuyulmadi, chunki yosh va tajribasiz edim, tarix borasidagi bilimlarim ham yetarli emas edi.

– Sizlar bilmaysizlar, mamlakat istiqloлга erishishi arafasida televizorda turli bahslar bo'lardi. Bir ko'rsatuvda boshlovchi ishtirokchilarga qarata "Egasiz qolgan yetimday xor-u zor bo'lib yashagandan ko'ra Ittifoq tarkibida qornimiz to'q, ustimiz but holda yashaganimiz yaxshi emasmi?" deganday gap qildi. Shunda ko'rsatuv ishtirokchilaridan biri, mashhur bastakor qat'iy turib dedi: "Faqat qattiq non va suv bilan tirikchilik qilsam ham, ozod va mustaqil bo'lib yashashni istayman!" Bergan savolidan boshlovchining o'zi biroz mulzam bo'ldi...

O'shanda ustozim bu voqeani nega hikoya qilib berganiga uncha ahamiyat bermadim. Endi

tushunapman: u bizni ozodlik va mustaqil hayotni qadrlab yashashga undagan ekan. Chindan ham, har qadamda kimningdir qosh-qovog'iga qarab yashasang, har kuni o'n xil tansiq taom yesang ham tatimaydi. Ozod va hur, o'z so'zingga ega, inon-ixtiyoring o'zingda bo'lsa, zog'ora non ham asaldek tuyuladi. Chunki, inson erkin tug'iladi, demak, u erkin yashamog'i kerak.

So'nggi yillardagi O'zbekiston erishgan olamshumul yutuqlar zahirida hamisha ana shu muhim omilni – erkin fikrlashni ko'raman. Mamlakat ahli erkin nafas olyapti, erkin fikrlayapti va yangi kashfiyotlar qilyapti. Yangilanish, eng avvalo, tafakkurdan boshlanadi. Biz yangicha fikrlay boshladik, dunyoga yangicha nigoh bilan qarayapmiz. Turmushimizning emas, hatto dunyoviy hodisalarni ham yangicha mezonlar bilan baholay olyapmiz. Xatolarimizdan xulosalar chiqarib, ertangi rejalarni puxtaroq tuzishni o'rganyapmiz. Demak, istiqlol tafakkurdagi buyuk evrilish ekan!

O'zim tug'ilib o'sgan Olot tumani bugun tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Ayniqsa, keyingi besh yilda bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni, qo'lga kiritilgan yutuqlarni sanab ado qilolmaysiz. Turar joylar, davlat idoralari joylashgan muhtasham inshootlar, dam olish maskanlari, ravon va bexatar yo'llar – bularning barchasi so'nggi yillarda xalqimizning bunyodkor dahosi yaratgan mo'jizalardir.

Yoshlarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar darajasi ham nihoyatda baland, bitiruvchilarimiz har yili oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha mamlakat miqyosida yuqori o'rinlarni egallaydilar. Sportning turli yo'nalishlari bo'yicha ko'plab chempionlar yetishib chiqayotgani ham tuman yoshlarining nechog'lik intiluvchan va izlanuvchan ekanligidan nishonadir. Olotdan bu qadar ko'p iste'dodlar yetishib chiqayotgani ham istiqlol sharofatidan deb o'ylayman.

O'ttiz besh yil... Bir inson kamolga yetadigan, mustaqil fikrlashni o'rganadigan muddat. Mangulik oldida nechog'lik qisqa, ammo mohiyatan qanchalar uzoq va sarmazmun fursat! Ana shu qisqa vaqt oralig'ida O'zbekiston dunyo xaritasidan o'zining mustahkam o'rnini egalladi. Yaqin tarix, kechagina bo'lib o'tgan voqealar nigohlarim oldida jonlanadi, qaddim beixtiyor tiklanib, ko'zlarim o'tkirlashgandek bo'ladi. Muhtaram Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan turib o'zbek tilida nutq so'zlaganlari hamon esimda, o'sha lahzalarda iftixordan tomog'im to'lishib, ko'zlarim yoshlanganini to hanz hayajon bilan eslayman. Bugun mafkuralar kurashi avj olgan, ijtimoiy tarmoqlar turli xildagi fikrlovchilar uchun qulay bir imkoniyatga aylangan

davr. Qarashlar, g'oyalar jangida biz faqat va faqat istiqlolni, yangi O'zbekistonni, o'z halol mehnati bilan Uchinchi Renessansni yaratayotgan bunyodkor xalqimizni va ana shu xalqni yangi g'alabalar sari yetaklayotgan Yurtboshimizni yoqlaymiz. Ozod va obod Vatanimiz uchun xizmat qilishni o'zining farzandlik burchi deb biladigan har bitta inson mening fikrlarimga qo'shilsa kerak. Yurtdoshlarimizga istiqlol bayrami muborak bo'lsin, O'zbekiston degan jannatmonand yurt to abad poyidor va ustuvor tursin deyman.





TILSHUNOSLIK



Azamat AKBAROV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
azamatdoc1984@gmail.com.

Feruza AHMEDOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys filologiyasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti
feruzaaxmedova200408@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA PARAFRAZANING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada parafraza tushunchasining tilshunoslikdagi o'rni va stilistik vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Unda parafrazaning tabiati, shakli, ma'nosi va funksional xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Mazkur mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, parafrazaning nominativ, estetik va ekspressiv funksiyalari ko'rsatib beriladi. Maqolada parafrazaning nutq va badiiy matnda takroriylikni kamaytirish, ifodaning ta'sirchanligi va estetikligini oshirish hamda yangi semantik ohang yaratishdagi roli misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, parafrazaning tarixiy ildizlari qadimgi yunon adabiyotiga borib taqalishi, uning Bibliya va Gomer asarlarida keng qo'llanilgani, keyinchalik esa lotin adabiyoti hamda Uyg'onish davri she'riyatida keng tarqalgani haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: parafraza, stilistik vosita, nominatsiya, ekspressivlik, sinonimiya, bilvosita ifoda

Аннотация: в данной статье рассматриваются место понятия парафразы в языкознании и его значение как стилистического средства. На основе научных источников анализируются природа, форма, семантика и функциональные особенности парафразы. В рамках исследования проводится сравнительный анализ взглядов зарубежных и отечественных учёных на данное явление, а также раскрываются номинативная, эстетическая и экспрессивная функции парафразы. На конкретных примерах обосновывается роль парафразы в уменьшении повторов в устной и письменной речи, повышении выразительности и эстетической ценности высказывания, а также в создании новых смысловых оттенков. Кроме того, рассматриваются исторические истоки парафразы, восходящие к древнегреческой литературе, её широкое использование в Библии и произведениях Гомера, а также последующее распространение в латинской литературе и поэзии эпохи Возрождения.

Ключевые слова: парафраза, стилистическое средство, номинация, экспрессивность, синонимия, косвенное выражение.

Annotation: this article examines the place of paraphrase in linguistics and its significance as a stylistic device. Drawing on scholarly sources, it analyzes the nature, form, meaning, and functional characteristics of paraphrase. The study provides a comparative analysis of the views of foreign and Uzbek scholars on this phenomenon and identifies the nominative, aesthetic, and expressive functions of paraphrase. Using specific examples, the article demonstrates the role of paraphrase in reducing repetition in speech and literary texts, enhancing the expressiveness and aesthetic quality of an utterance, and creating new semantic nuances. It also provides an overview of the historical origins of paraphrase, tracing its roots back to ancient Greek literature, where it was widely used in the Bible and the works of Homer, and examining its subsequent spread in Latin literature and Renaissance poetry.

Key words: paraphrase, stylistic device, nomination, expressiveness, synonymy, indirect expression.

Kirish. Til inson tafakkurining oynasi bo'lib, undagi har bir ifoda usuli ma'no, emotsiya va estetik ta'sir kuchiga ega. Shu jihatdan parafraza – tilning

badiiy va mantiqiy imkoniyatlarini boyituvchi stilistik vositalardan biridir [1]. U orqali so'zlovchi yoki yozuvchi ma'lum tushunchani to'g'ridan to'g'ri aytish

o'rniga bilvosita, kengroq va badiiyoq tarzda ifoda etadi. Parafraza yunoncha "perifrazein" so'zidan olingan bo'lib, "atroflicha ifoda etmoq" ma'nosini bildiradi. Mazkur maqolada parafrazaning lingvistik tabiati, maqsadi va uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodlari. Chet el va mahalliy tilshunos olimlar parafraza tushunchasini o'rganish bo'yicha katta ilmiy izlanishlar olib bordilar. Shubhasiz, parafraza tushunchasi turli xil tavsiflarda turli xil qarashlar va ifodalar bilan beriladi. Misol uchun, bir tilli inglizcha "Webster" lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: "... qisqaroq va soddaroq ifoda shakli o'rniga uzunroq iboralardan foydalanish". Aslini olganda, parafraza so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "perifrazein" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "atrof" ma'nosini bildiruvchi "peri-" va "frazein" ma'nosini bildiruvchi so'zlaridan kelib chiqqan. Parafraza - bu mumkin bo'lgan qisqa va soddaga so'z o'rniga uzunroq iborani ishlatishni o'z ichiga olgan usul hisoblanadi. Bu nomni o'zgartirish traversal yoki tanish obyektini nomlash uchun ishlatiladigan bilvosita usul deb ataladi. Tilning tabiati nuqtai nazaridan, parafraza obyektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun to'g'ridan to'g'ri o'rnini bosuvchi umumiy so'z turkumlari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi mumkin [2].

Tilshunos olim Galperin parafraza atamasiga ta'rifni quyidagicha beradi, ya'ni "lingvistik tabiati nuqtayi nazaridan qaraganda, parafraza obyektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun ularning to'g'ridan to'g'ri nomlarini almashtiradigan so'z belgilarining umumiy guruhi bilan birga ko'rib chiqilishi mumkin". Ba'zi bir so'z yoki iboralarni to'g'ridan to'g'ri aytish o'rniga, ba'zida yozuvchi yoki ma'ruzachi uning ma'nosini muqobil yoki sinonimik so'zlar bilan amalga oshiradi. Misol uchun: Bugungi sirkimizda "o'rmon shohi" (sher)ning ajoyib shousini tomosha qiling. Galperin shunday ta'kidlaydi: "An'anaga ko'ra, til yoki lug'at parafrazalari va ular bildiradigan so'zlar tabiatan sinonimdir, parafraza so'z birikmasi bilan ifodalanadi". Stilistik vosita sifatida parafraza – bu obyektning yangi, haqiqiy nominatsiyasi bo'lib, u o'tkinchi bo'lsa ham, obyektning ba'zi sifatini ochib berish va uni yolg'iz o'zi ifodalash orqali obyektlarga yangi nomlar berish qobiliyatini anglatuvchi jarayondir. Misol tariqasida: Buyuk Getsbida Daisy "qarzga olingan kabrioletda

tepadan pastga tushadigan qiz" deb ta'rif beriladi [1].

L. V. Grehneva parafraza tushunchasining ma'nosini shunday tushuntiradiki, parafraza nominativ xarakterning tavsifiy ifodasidir. Obyektini ifodalovchi parafraza birikmasi uning xarakterli belgilarini nomlaydi [2].

Parafraza – bu hodisa bo'lib, tilshunoslik fanida bir ma'noli tushunchaga ega emas. Buni tavsiflovchi ifoda sifatida aniqlash mumkin va ko'pincha boshqa til birliklari bilan - frazeologizmlar va iboralar bilan identifikatsiyalash sifatida olinadi.

Professor Ashurovaning ta'kidlashicha, "parafraza hodisaning yangi xususiyatini ko'rsatish maqsadida mumkin bo'lgan qisqaroq so'z o'rniga uzunroq va aylanma iborani qo'llashdir". Olim Q. Musayev bu tushunchani shunday targ'ib qiladi: "Obyektini ibora bilan shunday nomlash tushunchasi kontekst doirasida o'quvchi tomonidan oson tushuniladi". Olimning ta'kidlashicha, parafrazalar bilan ba'zi bir so'zlar, ifoda va to'plamlar o'quvchi yoki tinglovchiga tushunarli bo'lgan boshqa so'zlar bilan almashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, Musayevning fikricha, parafrazali so'z misollari kontekstsiz ham tushuniladi, chunki ular so'zlarning sinonimik variantidir [3]. Yozuvchi yoki notiq o'z fikrini to'g'ridan to'g'ri va lo'nda bayon qilish o'rniga ko'plab so'zlardan foydalansa, bu parafraza deb ataladi.

Parafraza turli sabablarga ko'ra ishlatilishi mumkin. Ular orasida yozuvchi yoki ma'ruzachi o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatishni xohlashi mumkin yoki parafrazani qo'shish orqali o'zining nutqini jozibador va chiroyli qilishni xohlagan bo'lishi mumkin. Misol uchun: Kim erta tursa, Xudo uni mukofotlaydi. Biz bu gapda parafrazadan foydalansak, quyidagicha bo'lishi mumkin; Har kuni harakat qiladigan odamlar bir kun yaxshi natijalarga erishadilar. Yana misollar bilan beradigan bo'lsak, quyidagi gaplar misol bo'lishi mumkin.

Hayot bitta va siz uni yashashingiz kerak. Parafraza: Biz yashashimiz kerak bo'lgan vaqtni behuda sarflamasligimiz kerak, chunki bizda boshqa zaxira yo'q, tashqariga chiqing va undan to'liq zavqlaning.

Men bir yigitni chaqmoqdek tez yugurayotganini ko'rdim. Parafraza: Men bir marta odamning imkon qadar tez harakat qilayotganini ko'rdim.

Bu hayotda pul hamma narsa emas. Parafraza: Baxtga erishish uchun moddiy ne'matlarni olishdan ko'ra ko'proq narsa bor.

Hayot shokolad qutisi, siz qanday ta'mga ega bo'lishingizni hech qachon bilmaysiz. Parafraza: Hayotingizda ko'plab kutilmagan hodisalar topasiz, kulasiz, yig'laysiz, zavqlanasiz, azoblanasiz va boshqa narsalar, qancha vaqtingiz bo'lishidan qat'iy nazar, u sizni hayratda qoldirishdan to'xtamaydi.

"Bu juda bema'nilik, bizning sevgimiz shunday bo'lishi kerak". Parafraza: Bu butunlay fojia, siz aytgandek sevgimiz shunday bo'lishi kerak.

"Parafraza – bu ma'lum bir ma'noni uyg'otish uchun zarur bo'lgandan ko'ra ko'proq so'z ishlatadigan grammatik prinsip va nutq uslubi. Ba'zida parafraza ma'lum sabablarga ko'ra foydali bo'ladi, lekin ko'pincha ortiqcha deb hisoblanadi" [4] Chunki suhbat qurish hamda gaplashishning asosiy maqsadi bu ma'lumotni tinglovchiga yetkazish hisoblanadi. Parafraza orqali gapirish esa bu maqsaddan uzoqlashtiradi va so'zlovchini asosiy xabarni yetkazishdan chalg'itishi mumkin. Parafrazaning ayrim misollari bu bosh miyasi shikastlanganda aniq va lo'nda gapni eslay olmay, uning o'rniga uzun va ko'p so'zlar ishtirok etgan gaplarni aytishiga o'xshab ketadi. Bunday hollarda odamlar ba'zan to'g'ri so'zlarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va ma'lum bir ma'noga erishish uchun parafrazadan foydalanishlari mumkin. Bu yangi tilni o'rganayotgan ko'p odamlarga ham tegishli [5]. Misol uchun, oddiy ingliz tili o'rganuvchilari "cattle" (molxona) so'zini bilmasligi mumkin, natijada ular "a place where cows and sheep live" (mollar va qo'ylar yashaydigan joy) kabi so'zlarni ishlatishi mumkin.

Parafraza tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning uzoq tarixga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tarixiy

tadqiqotlarga qaraganda ushbu qurilma Bibliyada va Gomerining "Iliada"sida keng qo'llanilgan. She'riy vosita sifatida u Virgilning she'riy satrlarida ham keng qo'llanilgan va she'rga o'zgacha joziba baxsh etgan. Bu qurilma lotin she'riyatida juda mashhur edi. Parafraza o'ta ta'sirchanligi, kuchli bo'lganligi tufayli, u butun o'rta asrlar va Uyg'onish davrigacha epik va tasviriy she'riyatning muhim xususiyatiga aylandi. Narsalarni qayta nomlash amaliyoti tufayli parafraza 17-18-asrlarda eng ko'p ma'qullangan vositalardan biriga aylanib, hatto Fransiya va boshqa mamlakatlar adabiyotida parafraza usuli deb atalgan maxsus yo'nalish paydo bo'ldi. Ingliz tilida bir qator iboralar mavjud bo'lib, ular hali ham narsalar va hodisalarning oddiy ma'nolari uchun parafrastik sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Professor Yartseva 16-asrda parafrazaning qo'llanishi zeb-ziynat xarakterida bo'lganligi va parafrazaning ma'lum bir adabiy uslubga xos xususiyatga aylanganini ta'kidlaydi [6]. Parafraza tushunchasi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan va ta'riflangan. Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, shuni tasdiqlaymizki, parafraza aniq so'zlarni to'g'ridan to'g'ri tushuniladigan tegishli ma'no o'rnini bosuvchi so'zlarni almashtirish uchun stilistik vosita sifatida qabul qilinadi. Gap tarkibini o'zgartirish yoki so'zlarni oldingi ma'noni saqlab qolgan holda sinonimik versiyalari bilan almashtirish mumkin. Parafraza so'zlari yoki iboralar kontekst ichida ham, kontekstsiz ham tushunilishi mumkin. Nutq, rivoyatlar, matnlar takrorlashdan qochib, rang-barang va jozibador bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow, 1981.
2. Grehneva L. V. Objects of Periphrasis in N. A. Zabolotsky's Poetry. 2010.
3. Ashurova D. U., Galiyeva M. R. Stylistics of Literary Text. Turon-Iqbol, – Toshkent, 2016.
4. Cherednichenko Yu. E. Izvestiya VGPU. – Astraxan, 2014.
5. Yartseva V. N. On Some Aspects of Periphrastic Nomination. 2009.
6. www.literarydevices.com/periphrasis/

Mashxuraxon BURXANOVA,

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti

kafedrası dotsenti, Phd

mashxuraxonkhakimova@gmail.com

KO'RISH SEMALI LEKSIK BIRLIKLAR TAVSIFI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvosensorika – sezgilar tili haqida so'z boradi. Vizual sezgi asosida namoyon bo'luvchi ma'lumotlar inson ongida tez assotsiatsiyalanadi. Vizuallikka asoslangan leksik birliklarning badiiy matnda qo'llanishi esa ijodkor bilan parallel ravishda asar qahramonlarining modusini ifodalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *lingvosensorika, antropotsentrik paradigma, sezgilar tili, vizual sezgi, vizuallik, vizual idrok modusi, assotsiatsiya, interpretatsiya, persepsiya, reprezentatsiya.*

Аннотация: в статье рассматривается лингвосенсорика – язык ощущений, являющийся одним из новых направлений современной лингвистики. Информация, воспринимаемая посредством визуальной модальности, быстро ассоциируется в человеческом сознании. Использование лексических единиц, основанных на визуальности, в художественном тексте служит выражению модуса как автора, так и персонажей произведения, обеспечивая их параллельную репрезентацию.

Ключевые слова: *лингвосенсорика, антропоцентрическая парадигма, язык ощущений, визуальное ощущение, визуальность, модус визуального восприятия, ассоциация, интерпретация, перцепция, репрезентация.*

Annotation: this article examines linguosensorics, or the language of sensations, as one of the emerging areas of modern linguistics. Information perceived through the visual modality is rapidly associated in the human mind. The use of lexical units based on visuality in literary texts serves to express the perceptual and interpretive modus of both the author and the characters, thereby facilitating their parallel representation.

Key words: *linguosensorics, anthropocentric paradigm, language of sensations, visual sensation, visuality, visual perception modus, association, interpretation, perception, representation.*

Kirish (Introduction). Sensor lingvistikaga oid tadqiqotlar ichida sohaga oid ilmiy tushunchalarni to'liq va mukammal darajada tushunish imkoniyati perseptiv leksikani tahlil va tadqiq etish hisobiga amalga oshiriladi. Bu sohaga oid aksariyat izlanishlarda aynan tilning leksik sathiga oid fikrlar bildirilgan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda o'rganish fokusi sensor lug'aviy birliklarning morfologik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat bo'lsa, boshqa bir tadqiqotlarda sensor leksik qatlamga xos xususiyatlar ijodkor tafakkurida shakllangan modallik kategoriyasi bilan tahlilga tortiladi. Shuning uchun ham bir o'rinda ko'rish sezgisini vizual modus idroki boshqa bir o'rinda ko'rishga oid leksikani qaysi turkumga taalluqlilik tamoyili bilan tahlilga tortiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy adabiyot namunalari olam manzarasini mukammal darajada aks ettira oladigan funksional uslub turi bo'lib, bu uslubga daxldor matnlarda nafaqat olam manzarasi, balki unga so'zlovchining munosabati ham singdiriladi. Vizuallikka asoslangan leksik birliklarning badiiy matnda qo'llanishi esa ijodkor bilan parallel ravishda asar qahramonlarining

modusini ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy matnda adibning borliqqa munosabati bir necha sezgi nomlari modusi bilan beriladi. Asar muallifining ko'rishga asoslangan modusi uning perseptiv tajribalari qatorida eng muhim o'rin tutadi. Ijodkor olam manzarasining badiiy ifodasida sezgi a'zolari nomidan kelib chiqqan holda, ko'rishga asoslangan portret tasviri bilan eshitishga asoslangan hikoya tasvirini jiddiy farqlaydi. Kitobxon ongi va tafakkuri shunday bir murakkab mexanizmki, uning imkoniyatlari shu darajada yuqoriki, u o'z faoliyati davomida vizual va tovush tasvirini tez fahmlaydi. Ayni vaqtda, oddiygina tuyulgan lisoniy ifodalar badiiy va obrazli tasvirdan keskin farqlanadi. Badiiy matnda voqelikni deyarli ko'rish, eshitish, his qilish, ta'm va hid bilish kabi sezgilar orqali idrok qilish, ular yordamida qabul qilingan ma'lumotlar mohiyatini obrazli ifoda mazmuniga singdirish va kitobxonga ta'sir ko'rsatish ijodkorning o'ziga xos mahoratidir. Ko'rish sezgisiga asoslangan oddiy xabar yoki ma'lumot qahramonning tashqi imijiga xos portret tasviri bilan kitobxon tasavvurida vizuallashadi. Boshqacha aytganda, o'quvchi badiiy asarni mutolaa qilish davomida sensor

kontekstlarni ko'rish mexanizmlariga asoslangan his-tuyg'ular bilan ongida gavdalantiradi. Misol uchun Said Ahmad asarlarida portret tasviriga asoslangan obrazlar vizuallik sezgisi bilan assotsiatsiyalanadi. Detallar tasvirida ham vizual kanal orqali ongda badiiy obrazni gavdalantirish assotsiatsiyasi yuz beradi. Sezgilari tasavvuri ichida assotsiatsiyaning vizuallik modusi boshqa sezgilarga nisbatan birinchi o'rinda turadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, til tashuvchilarining og'zaki muloqotlari asosida o'tkazilgan sinov-tajriba ishlarida ko'rishga asoslangan tasavvurlar idroki yetakchilik qiladi [1, 25].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Odatda, badiiy asarlar mutolaasi jarayonida kitobxon asar qahramonlari bilan birga harakatlanadi. Ular bilan birga nafas oladi. Ularning shodligiga, qayg'usiga sherik bo'ladi. Asar mazmuni assotsiatsiyasida kitobxon har bir narsani ko'rishga asoslangan idrok bilan his qiladi. Voqealar jarayonini vizual modus bilan qabul qiladi. Sezgi a'zolari ichida vizual modusning yetakchilik qilishi perseptiv leksika tizimida ham bunday lug'aviy birliklarning ko'pligini ta'kidlash lozim.

Odatda, muayyan xalqqa tegishli tilda o'sha xalqning madaniyati, urf-odati aks etadi. Bunday holat asosan tilning leksik tizimida kuzatiladi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar ham aynan tilning leksik qatlamida ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, shunday tillar mavjudki, ularda vizual idrok modusi faqat perseptiv leksikadagina emas, balki tilning grammatik qurilishida ham ko'zga tashlanadi. "Vakash tillari guruhiga kiruvchi kvakiutl tilida ko'rsatish olmoshlari vizuallik tamoyillari bilan shakllangan. Bunda olmoshning semantik asosi ko'rinayotgan va ko'rinmayotgan semaga nisbatan belgilanadi"[2, 9].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sezgi a'zolari ichida ko'rishga asoslangan tushunchalarning mohiyati inson xotirasidan tez o'rin oladi. Ko'rishga asoslangan tadqiqotlarda ham boshqa sezgi a'zolariga nisbatan obyektivlikning ustuvorligi ta'kidlanadi. Ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan maxsus

asbob-uskunalar, jihozlar va teleskop va mikroskop bilan bog'liq tadqiqotlarning amalga oshirilishi ko'rish bilan bog'liq bilim va malakalarning mukammal darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ilmiy adabiyotlarda vizuallik harakatlari qadimdan eng asosiy sezgi sifatida ta'kidlangan, ko'rish ilm-ma'rifatning ramziy shakli" [3,296] deb qabul qilingan. Ko'rish sezgisi orqali kuzatishga asoslangan tadqiqotlarning aniqligi o'ta darajada yuqori bo'ladi. Insonning umumiy bilim fondi barcha sezgi a'zolari faoliyati natijasida shakllansa-da, biroq mazkur bilim fondining asosini vizual harakatlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham ko'z bilan ko'rish natijasida orttirilgan bilim o'rtasida ma'lum ma'nodagi taraqqiyotni ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion). Sensor lingvistikaning tadqiqot obyektiga barcha sezgi a'zolari funksiyalari taalluqli bo'lib, ular tarkibida ko'rishga asoslangan idrok asosiy o'rinni egallaydi. Ko'rish bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni o'rganish, ularning semantik strukturasidagi nozik vizual komponentlarni aniqlash va ularning vazifalarini ajratish bunday tipdagi leksik birliklarning sensor xususiyatlarini ajratishga yordam beradi. Ma'lumki, inson o'zining har bir xatti-harakatida amalga oshirishi kerak bo'lgan ma'lum bir ishlarni oldindan rejalashtiradi. Sensor lingvistika ko'rish sezgisini insonning olamdagi asosiy mo'ljal olish vositasi sifatida o'rganadi va u bilan bog'liq tushunchalar hamda ularning nomlarida ko'rishga asoslangan idrokni sezish mumkin. Inson tafakkuri har bir predmetni maxsus lisoniy nomlar bilan idrok qiladi. Bir predmetga xos ko'plab xususiyatlar haqidagi xabarlar ko'rish amaliyoti orqali anglanadi. Aksariyat leksik birliklarda vizuallik semasi mavjud bo'ladi va ular perseptiv leksika guruhini tashkil qiladi. Perseptiv leksik birliklarning vizual sema ishtiroki bilan guruhlanishi boshqa sezgilari semasi bilan namoyon bo'luvchi so'zlarga nisbatan ko'pdir. So'zning perseptiv leksik qatlam guruhiga mansubligi sezgining turiga nisbatan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований: аналитический обзор. – М.: ИНИОН РАН, 2017.С.25.
2. Perception and cognition in language and culture. – Leiden; Boston: BRILL,2013. 300 p.
3. Howes D. Nose-wise: Olfactory metaphors in mind // Olfaction, taste, and cognition. – Cambridge: Cambridge univ. press, 2002. – P. 67–81., Classen C. The deepest sense: A cultural history of touch. – Urbana; Chicago; Springfield: Univ. of Illinois press, 2012. – 296 p.

Lola AVLIYOQULOVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ONKOLOGIK TERMINOLOGIYANING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada onkologik atamalarining strukturaviy va semantik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Onkologik terminologiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli omillar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan terminologiyaning asosiy xususiyatlariga asoslanib, onkologik atamalar tipologiyasi taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: *onkologik atamalar tipologiyasi, terminologiya tizimi, onkologik terminologiya*

Аннотация: в данной статье рассматриваются структурные и семантические особенности онкологических терминов. Анализируются различные факторы, влияющие на развитие онкологической терминологии. Одновременно предлагается типология онкологических терминов, основанная на основных особенностях анализируемой терминологии.

Ключевые слова: *типология онкологических терминов, система терминологии, онкологическая терминология*

Annotation: this article examines the structural and semantic features of oncology terms. Various factors influencing the development of oncology terminology are analyzed. A typology of oncology terms is proposed based on the key characteristics of the analyzed terminology.

Key words: *typology of oncological terms, system of terminology, oncological terminology*

Terminologik tizimlarning rivojlanishi va takomillashuvida bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yangi ilmiy tadqiqotlarning paydo bo'lishi, boshqa tillardan o'zlashgan terminlarning rivojlanishi, mavjud so'zlarga yangi terminologik ma'no yuklanishi, so'z yasashning mahsuldor modellari asosida yangi birliklarning yaratilishi hamda terminlarning standartlashuvi ushbu jarayonning asosiy manbalarini tashkil etadi.

Tabiiy fanlar bir ma'noli, neytral va kontekstdan mustaqil bo'lgan atamalarni talab qiladi. Bu ayniqsa, tibbiyot sohasida muhimdir. Shifokorlar o'rtasidagi muloqot tili iloji boricha sodda, aniq, tushunarli va xalqaro bo'lishi kerak. Ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi tufayli tibbiy nutq doimiy ravishda kognitiv ma'lumotlar bilan to'ldirilib boriladi, bu esa lingvistik resurslarni tejashni talab qiladi. Til "siqish"ga intiladi, ya'ni u eng ko'p ma'lumotni qisqartirilgan va ayni paytda tushunarli shaklda yetkazadigan shakllanishlarni yaratadi [7; 457-459]. Biroq, tibbiy terminologiya ko'pincha bir xil atamalarining noaniq variantlarini, sinonimlarini va variantli imlosini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, onkologiya muassasalari ishida yagona nomenklatura va tasnif juda muhimdir. Bu onkologlar, kimyoterapevtlar, radiologlar, jarrohlar va patologoanatomlar o'rtasidagi muloqot tilidir [2; 4-5].

Terminologiyani o'rganishning uchta jihatini zamonaviy tilning leksik tizimidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni nuqtayi nazaridan ajratish mumkin, bu bizning fikrimizcha, uning leksikondagi mavqeini aniqlash uchun eng obyektiv mezon bo'lib xizmat qiladi [1; 44-47].

Birinchi jihat terminologiya tizimida tibbiy terminologiyani o'rganishga taalluqlidir (ixtisoslashgan foydalanish). Bu jihat ushbu so'zlar guruhining o'ziga xos xususiyatlariga taalluqlidir. Ular, odatda, atamalarining asosiy xususiyatlariga mos kelsa-da, (tor ixtisoslashgan foydalanish, noaniqlik, tasvir yoki ifodalilikning yo'qligi va boshqalar), terminologiya tizimida tibbiy atamalarining maxsus xususiyatlari kuzatiladi, bu, odatda, tildan tashqari omillar tufayli yuzaga keladi. Ularning terminologiya tizimida

paradigmatik munosabatlarga – sinonimlarga va antonimlarga keng qo'shilishi diqqatga sazovordir.

Polisemiya ega tibbiy atamalar ajralib turadi. Ulardan ba'zilar baholovchi elementlar va stilistik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, so'zlashuv nutqida – adabiy tilning og'zaki quyi tizimida paydo bo'ladigan tibbiy atamalarda seziladi. Tibbiy atamalarining barcha bu xususiyatlari lingvomadaniy sabablar bilan ham izohlanadi. Masalan, tibbiy sinonim atamalarining mavjudligi aloqada qarzga olingan (ko'pincha tushunarsiz) atamani mahalliy rus sinonimi yoki so'zlashuv varianti bilan almashtirish istagi bilan bog'liq.

Ikkinchi jihat ushbu mikrosistemaning leksik makrosistema bilan aloqalari va munosabatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq. Tibbiy atamalar umumiy foydalanishga kiritilganligi sababli, ular tilning butun lug'ati bilan paradigmatic va sintagmatic munosabatlarga kirishadi. Tadqiqotning ushbu jihatida tibbiy atamalarining semantik salohiyati sezilarli bo'ladi, ularning majoziy ma'nolarni rivojlantirish qobiliyati yaqqol ko'rinib turibdi, ularning ko'pchiligi standartlashtirilgan foydalanishga kiradi, bu esa ba'zi atamalarni keng tarqalgan leksemalar toifasiga kiritadi. Natijada, "kasal", "tuzalish", "davolash", "safro", "qichishish" va "isteriya" kabi so'zlarning leksik bog'liqligi haqida savol tug'iladi. Ulardan ba'zilar (kasal, tiklanish, davolash) nominativ ma'nosida tibbiy atamalar bo'lib, zaiflashgan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni umumiy lug'at bilan birlashtiradi. Boshqalari (safro, qichishish, isteriya) umumiy til majoziy ma'nosida tibbiy atamalardir. Bu holda, so'z so'zma-so'z ma'noda terminologiya tizimining birligi bo'lib qoladi, ammo majoziy ma'noda u umumiy so'zga aylanadi.

Tibbiy atamalarining uchinchi jihati zamonaviy tilshunoslikda o'rganilayotgan so'zlar guruhini yanada rivojlantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Mutaxassislar tibbiyot fanining jadal rivojlanishi va yangi atamalarining paydo bo'lishi, ularni aniqlashtirish, sinonimlarni yo'q qilish va ularni aniqroq atamalar bilan almashtirish zarurati tufayli onkoterminologiyani

o'rganishga murojaat qilmoqdalar. Xalqaro hamkorlikning kengayishi va globallashuv tendensiyalari bilan tibbiyot terminologiyasi sohasi yanada murakkablashmoqda. Bularning barchasi tibbiy terminologiyani turli jihatlarida, jumladan, onkologiyada o'rganishni taqozo etadi.

Onkoterminologiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

1) fan va texnikadagi yangi yutuqlar, yangi atamalarining rivojlanishini o'z ichiga olgan yangi qurilmalarning paydo bo'lishida mujassamlashgan;

2) jamiyat uchun ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib keladigan yangi ijtimoiy hodisalar;

3) ushbu fanda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha onkoterminalarning terminologik asosi yunon va lotin kelib chiqishiga ega so'zlardir. Atama alohida terminologik elementlardan iborat bo'lib, ular uni tushunish uchun zarur bo'lgan semantik yordamni ta'minlaydi. Lotin va yunon tillarining sig'imi va ixchamligi bitta so'zning o'zbek tilida bir nechta tarjimalarni talab qiladigan narsani qamrab olishiga imkon beradi – "oligodendroglioma" miyaning glial o'smasi, "xolesistokopiya" esa o't pufagining ichki devorlarini tekshirishdir.

Qoida tariqasida, chastota komponentlari aniqlanadi, terminologiya tizimidagi elementlar maqomini oladi, modelning ma'nosini bildiradi, buning natijasida yangi so'z yasash birliklari, ya'ni termin elementlari tug'iladi. Kelajakdagi termin elementlarining kelib chiqishi sof birikma sohasida ham, mavjud murakkab shakllanishga qo'llanilganda o'zak birikma yoki affiksatsiya sohasida ham ildiz otishi mumkin.

Shunday qilib, adabiy lotin tilida birikma va affiksatsiya, xuddi so'z yasash va flektsiya chambarchas bog'liq bo'lgani kabi, chambarchas bog'liq, degan xulosaga kelish mumkin [3; 193-198]. Shu munosabat bilan, qo'shimchalarni ular belgilaydigan tushunchalar yoki voqeliklarning tabiatiga ko'ra guruhlash zarur:

1. O'ziga xos anatomik shakllanishlar, tana qismlari, organlari va boshqa inson tanasining elementlari nomlari. Bunga moddalarni bildiruvchi atamalar ham kiradi (hayvonot va o'simlik dunyosida sintezlangan mahsulotlar, shuningdek, kasalliklarni davolash va oldini olish uchun sun'iy ravishda yaratilgan dorilar): -an-, -as-, -at-, -bul-, -kul-, -en-, -er-, -ett-, -i(-ium), -id-, -in-, -ion-, -it-, -ment-, -ol-, -on-, -or-, -ori-, -tat-, -uncul-, -ur-. Masalan: qorin, xoroid – qon tomir membranasi.

2. Organizmda sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar: -i(-ia), -i(-ium), -ion-, -isation-, -ism-, -os-, -tat-. Masalan: *xondromatoz ossium* – suyaklarning *xondromatozi*, *pnevmoniya*.

3. Organizmning patologik holatlari, ular orasida yallig'lanish jarayonlari, surunkali kasalliklar va o'smalar nomlaridan iborat maxsus kichik guruh mavjud. Ular terminologik maydonlarni hosil qiladi va -asm-, -emat(-ema), -ias-, -id-, -ism-, -itid(-it-), -omat(-oma), -os- qo'shimchalari, shuningdek -ion-, -isation-, -or-, -tat-yordamida ifodalanadi. Masalan: *to'rtinchi qorinchaning rozet hosil qiluvchi glionevronal o'smasi*.

4. Tekshirish va davolash usullari, qarang: -i(-io), -ion(-isation), -isation-, -ur-. Masalan, *rezektsiya –olib tashlash*.

5. Diagnostika va jarrohlik uskunlari va asboblari, -ari, -or-, -izator-, -ment-, -ori- ga qarang. Masalan, *ko'chma rentgen uskunlari* [4; 193-198].

Semantik tahlil natijalariga ko'ra, o'sma atamalarini bir nechta turlarga bo'lish mumkin. Birinchi tur o'sma nomi naqshga asoslanganda: ildiz – o'sma rivojlangan organ yoki o'sma rivojlangan hujayralar + o'smani bildiruvchi "-oma" qo'shimchasi. Masalan: *meningioma*, *astrocitoma*.

Ikkinchi tur – organ yoki hujayralarning nomi birinchi modelga qo'shilganda, natijada yangi atama paydo bo'ladi. Masalan: *intraventrikulyar kraniofaringioma*.

Uchinchi tur – bu o'smaning sifat yoki miqdoriy tarkibini tavsiflovchi so'zlar birinchi modelga qo'shilganda. Masalan: *anaplastik oligoastrocitoma*, *gigant hujayrali glioblastoma*.

To'rtinchi tur – bu organ yoki hujayralar nomiga "saraton", "o'sma" yoki "neoplazma" so'zlari qo'shilganda. Masalan: *glialneoplazma*.

Beshinchi tur – "o'sma" so'zi + o'sma xarakteristikasi. Masalan: *gantel o'smasi*.

Oltinchi tur – "o'sma" so'zi + organ yoki hujayra nomi + o'sma xarakteristikasi. Masalan: *epifiz mintaqasining papiller o'smasi*.

Yettinchi tur – bu atamaning birinchi modeli + organ yoki hujayra nomi + o'sma xarakteristikasi. Masalan: *serebellumning displastik gangliotsitomasi*.

Sakkizinchi tur – bu birinchi model + organ nomi + o'sma hujayra xarakteristikasi. Masalan: *uchinchi qorinchaning xordoid gliomasi*.

To'qqizinchi tur – bu o'smani birinchi bo'lib tasvirlab bergan shaxsni aniqlaydigan o'smaning nomi. Masalan: *Abrikosov o'smasi*, *Kaposi sarkomasi*.

Shunday qilib, onkologiya sohasidagi tibbiy lug'atning terminologik sohasi xalqaro hamkorlikning kengayishi va globallashuv tendensiyalari bilan yanada murakkablashib bormoqda. Bularning barchasi ushbu sohadagi tibbiy terminologiyaning tipologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A.A. Tibbiy terminologiya asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
2. Дубровина Л.В. Медицинская терминология в лексической системе английского языка: автореф. дис.... канд. филол. наук. – М., 1986. – С.4-5.
3. Иванов А.В. К проблеме статуса греко-латинских основ в морфологической структуре общезыковых единиц и единиц специальной номинации // Вестник Нижегородского университета Н.И.Лобачевского. 2011. – № 6 (2). – С.193-198.
4. Налепин В.Л. Термин и терминосистема как предмет лексикологии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1975. – С.16.
5. Murodho'jayev N.Q., Xudoyqulova T.Q., Jo'rayev M.D. Onkologiya. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2002. 262-bet.
6. Sirojiddinov S. O'zbek tili terminologiyasi masalalari. – T.: Fan, 1970. 212-b.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Zilola SHUKUROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori



BAYOZLARNING TURKIY ADABIYOTGA KIRIB KELISHI VA TARAQQIY ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida temuriylar davrida arab adabiyotidan kirib kelgan va XX asrning boshiga qadar ma'lum va mashhur bo'lgan bayozlar haqida so'z boradi. Bayozlarning O'rta Osiyoga kirib kelish omillari va uning adabiy zarurati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bayoz, she'r, she'riy to'plam, muallaqot, qasida.

Annotation: this article discusses the bayozs (literary anthologies) that entered Uzbek classical literature from Arabic literature during the Timurid period and remained well-known and popular until the beginning of the 20th century. It examines the factors behind the introduction of bayozs to Central Asia and their literary necessity.

Key words: bayaz, poem, poetry collection, Mu'allaqat, qasida.

Аннотация: в данной статье рассматриваются баёзы (литературные сборники), проникшие в узбекскую классическую литературу из арабской литературы в эпоху Тимуридов и остававшиеся известными и популярными вплоть до начала XX века. Речь идет о факторах проникновения баёзов в Среднюю Азию и их литературной необходимости.

Ключевые слова: баяз, стихотворение, поэтический сборник, муаллакат, касида.

O'zbek adabiyoti uzoq va boy madaniy merosga ega bo'lib, ko'plab mutafakkirlar, allomalarni yetishtirgan. Turonzamin yerlarida ulg'aygan ajdodlarimiz ilm-ma'rifat orqali olamshumul yutuqlarga erishishgan. Qadim tarixga ega bu hududlarga islom dini kirib kelgach, aholining dini, madaniyati, turmush tarzi yangi bosqichga ko'tarilgan. Yangi dinni qabul qilish asnosida arab tili, islom tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishib, ilmiy va badiiy adabiyotda ulkan yutuqlarga erishilgan. Barcha asarlarda Qur'on hamda Hadisga murojaat qilish an'anasi qat'iy qoidaga aylangani holda yangi adabiy janrlar, badiiy san'atlar, aruz ilmi o'zlashtirilgan. Ana shunday yangiliklar qatorida bayozlarning kirib kelishi mumtoz adabiyot tarixida alohida hodisa bo'ldi.

Arab diyorlarida shakllangan va taraqqiy etgan she'riy to'plam tuzish an'anasining turkiy adabiyotga ko'chishida Ibn Mammotiyning 1200 – 1207-yillarda tuzgan "A'lom un-nasr" ("G'alaba bayroqlari") asarining alohida o'rni bor. "To'plam bir necha bobdan iborat bo'lib, unda jami 80 dan ortiq shoir ijodiga mansub bo'lgan she'riy parchalar muayyan tartib bilan joylashtirilgan. To'plamda nomlari uchraydigan shoirlarning aksariyati abbosiylar davri va ba'zilar qadimgi davrda yashab ijod etgan. Shuningdek, to'plamda avtor noma'lum bir qancha she'rlar ham uchraydi. Ana shu xususiyatlar bu asarni o'zbek va fors-tojik adabiyotidagi bayozlarga ancha yaqinlashtiradi"¹. O'rta Osiyoda bayozlarning kirib kelishida "A'lom un-nasr" asarining o'rni yuqori bo'lib, turli davrda yashagan shoirlarning ijod namunalarini qamrab olishiga ko'ra arab she'riy to'plamlariga o'xshash. Biroq qat'iy tarkibiy tuzilishga ega bo'lmashligi, bo'limlarga ajratilmasligiga ko'ra arab xalqlari she'riy to'plamlaridan O'rta Osiyo bayozlari farq qiladi. Aslida, ularning aynan arab she'riy to'plamlaridek tuzilmasligi ham tabiiy hol.

¹ Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 82.

Chunki bir necha asr davomida shakllangan an'ananing ilk marta o'zlashtirilishi, tabiiyki, mukammal ko'rinishga ega bo'lmashligi mumkin. Bayozlarning ana shunday dastlabki tuzilishi keyinchalik ularning taraqqiy etgan davrida ham asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib qoldi.

Dastlabki tuzilgan she'riy to'plamlar maxsus nom bilan yoki umumiy "Majmua" nomi ostida ko'chirilgan. O'rta Osiyoda she'riy to'plam tuzish an'anasining kengayib borishi uning o'zbek mumtoz adabiyotida bayoz nomi bilan shuhrat tutishiga sabab bo'ldi. Bayoz arab tilidagi بایز so'zidan olingan bo'lib, "1. Oq, oqlik, oq rang. 2. Yozilmagan oq qog'oz. 3. Qoralama (dastlabki nusxa)dan oqqa (oq qog'ozga) ko'chirilgan toza nusxa. 4. Turli shoirlarning she'rlaridan tanlab tuzilgan to'plam"² kabi istilohiy ma'nolarni bildiradi. Bayoz tuzuvchi shaxs, kotib – bayoznavis deb atalgan. "Bayoznavis – shoirlar, hofizlar va adabiyot muxlislari tomonidan tanlab, ajratib berilgan she'rlarni bayoz holiga keltirib, ko'chirib chiquvchi kotib. Ba'zan bu ishni ijodkor yoki adabiyot muxlisining o'zi bir necha yillar davomida amalga oshirib borishi

² Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: DAVR PRESS, 2013. – Б. 52.; Шермухамедов Т., Абдуллаев Ф., Халилов Л., Халилов А. Ўқиш китоби. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 46.; Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 60.; Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 85.; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. (Б харфи). – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, – Б. 22.; Иброҳимов А., Сулаймонов А. Китобат санъатида оид атамаларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 12.; <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bayoz> (27.11.2022-yilda olindi ushbu ma'lumot); https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bayo_z-uz/ (Ushbu ma'lumot 27.11.2022-yilda ko'rildi);

ham mumkin³. Ushbu ta'riflardan ma'lumki, aslida oq, oqlik degan ma'noni anglatgan bu termin ma'no ko'chishi natijasida shoirlar ijodidan tarkib topgan maxsus to'plam ma'nosida ishlatila boshlangan.

Eron xalqlari adabiyotida ham bayozga o'xshash to'plamlar bo'lib, ular jo'ng, safina, kashkul terminlari bilan yuritilgan. Ularda bayozlarning bir necha turi: bayozi naqqoliy – naql qiluvchi bayoz, duo bayozi, nola va marsiya bayozi, ta'ziya bayozlari va h.k kabilari aniqlangan. Eng ko'p uchraydigan ta'ziya bayozlari hisoblanib, navhago'y o'ziga moslab, qo'lida ushlab qulay qilib, she'rlarni tanlab kiritgan⁴.

O'rta Osiyoda yaratilgan she'riy to'plamlarning aynan bayoz atamasi bilan tarqalganining sababi aniq bo'lmasa-da, ba'zi taxminlarimiz bu termin she'riy to'plamga o'z-o'zidan berilmaganligini ko'rsatadi. O'rta Osiyoda bayozlarning paydo bo'lishi tasodifiy hol emas. Bayozchilikning kirib kelishi mahalliy aholining adabiyotga bo'lgan ishtiyoqi, talabi samarasi o'laroq yuzaga kelgan. Shoirlar arab tilini puxta bilgani holda shu millat she'riyatining nozik qirralarini, o'ziga xosligi va tabiatini yaxshi anglagan hamda Ibn Mammotiyning "A'lom un-nasr" asariga o'xshash to'plam yaratish zarurati davr taqozosiga aylangan. Adabiyot ahli o'zigacha yashab ijod etgan shoirlarning go'zal she'rlarini adabiy mahfillarda aytib zavq olishgan. Jomiy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy kabi buyuk shoirlarning ijodiga taxmis bog'lab, tahlil qilishgan. Ana shunday mahfillarda bir yoki ikki emas, bir nechta shoirlar ijodidan namunalar aytilib, ustoz shoirlarning ijodidan eng saralarini bir yerda jamlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Mahfil a'zolaridan ba'zilari o'ziga ma'qul kelgan shoirlarning she'rlarini oq qog'ozlarga ko'chirib qo'ygan va ularning hammasi shu holda bitta qilib jamlangan. Mana shu oq qog'ozlarni birlashtirib qo'ymoq, oqqa ko'chirmoq ma'nosida بَيْز so'zi ishlatilgan. Qismning nomi bilan butunni anglatuvchi bu termin keyinchalik she'riy to'plam ma'nosida qo'llanilib, shu shaklda qotib qolgan. Bayoz tuzishdagi ushbu asos prinsip ularning gullab-yashnashidan pasayish davriga qadar davom etdi.

Bayozlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan olimlar bu borada bir qancha qimmatli fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.Semenov: "Bayozlar she'riy to'plam bo'lib, unda

turli mualliflarning har xil mavzudagi she'rlari, turli davrda yashagan, turli tilda yozilgan shoirlarning she'rlari o'rin oladi. Ushbu to'plamda mashhur shoirlarning devonlariga kiritilmagan she'rlari ham uchraydi. Shu sababli bayozlarni o'rganish yangi ijod namunalarini topish uchun manba bo'lib xizmat qiladi⁵, – deya ta'kidlaydi. Y.Is'hoqov: "Bayozlar muayyan davrning mahsuli bo'lib, ularning uslubi va tarkibini izchil kuzatish ma'lum davrlardagi madaniy va adabiy harakat, yo'nalishlar va, umuman, o'sha muhit namoyandalarning badiiy didi va intilishlarini aniqlashga imkoniyat yaratishini"⁶ aniqlagan. M.Hamidova esa bayozlarning shoirlarni kiritishda chegara bilmasligini e'tirof etib: "Bayoz turli davrda ijod qilgan, turli millatga (o'zbek, tojik, fors, ozarbayjon, arab, usmonli turk) mansub shoirlarning har xil janrda yaratgan she'rlari to'plamidir"⁷, – deya ta'rif bergan. A.Erkinov bayoz tuzish an'anasi haqida gapirganda: "Bayoz – bu turli shoirlarning she'rlaridan iborat to'plam (majmua)dir. Undagi she'rlar mahoratga ko'ra tanlab olinadi yoki to'plovchilar, o'quvchilar yoxud muayyan shaxslar qatlamining buyurtmasiga asosan to'planishini"⁸ ta'kidlaydi. Bayoz tuzish an'anasi tojik adabiyotida ham uchraydi. Tojikistonning Badaxshon adabiy muhiti haqida tadqiqot olib borgan N.Shakarmamadov: "Badaxshonda kuylay olgan va ilmi bo'lgan insonlar o'zlari uchun shaxsiy maxsus "daftarcha" – bayoz (she'riy to'plam) tuzish odatga aylangan. Bu bayozlarda xalq qo'shiqlaridan tashqari adabiy she'rlar ham o'rin olgan. Shu tarzda bayozlar qo'ldan qo'lga, ajdodlardan avlodlarga o'tib xalq qo'shiqlari va adabiy she'rlar tarqalib, shu kungacha yetib kelgan. Ularning ba'zilari mashhur bo'lib, turli variantda xalq orasida tarqalgan"⁹, – deb ma'lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, bayozlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi turkiy xalqlarning she'riyatga bo'lgan adabiy ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan. Natijada bayozlar o'ziga xos kompozitsiyaga ega, turli shoirlarning ijodini qamrab olgan adabiy manba sifatida shakllangan va u XX asrning boshlariga qadar tuzilgan.

5 Семенов А. Собрание восточных рукописей академии наук узбекской ССР. II том. –Ташкент, 1954. – С. 10.

6 Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 100.

7 Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 15.

8 Erkinov A. Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar // Oltin bitiglar. – Toshkent, 2024. №2. – B. 5.

9 Шакармамадов Н. Жанровые и типологические особенности народной лирики Бадахшана. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Душанбе, 1997. – С. 19.

3 Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: DAVR PRESS, 2013. – Б. 52.

4 Qarang: <https://fa.imamatpedia.com/wiki/%D8%A8%DB%8C%D8%A7%D8%B6>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: DAVR PRESS, 2013.
2. Шермухамедов Т., Абдуллаев Ф., Халилов Л., Халилов А. Ўқиш китоби. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
3. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
4. Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. (Б ҳарфи). – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти
6. Иброҳимов А., Сулаймонов А. Китобат санъатида оид атамаларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2018.
7. Семенов А. Собрание восточных рукописей академии наук узбекской ССР. II том. – Ташкент, 1954.
8. Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981.
9. Erkinov A. Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar // Oltin bitiglar. – Toshkent, 2024. №2.

To'lg'anoy XOLIYOROVA,

Tadqiqotchi

e-mail: xoliyorovatulganoy@gmail.com

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINING ADABIYOTSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDAGI ILMIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy mualliflik korpusining adabiyotshunoslik tadqiqotlaridagi ilmiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mualliflik korpusining tuzilishi, ilmiy ahamiyati hamda Navoiy poetikasini zamonaviy korpus metodlari asosida o'rganishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, korpus texnologiyalarining badiiy matnlarni tizimli tahlil qilish va yangi ilmiy natijalarga erishishdagi imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, mualliflik korpusi, korpus lingvistikasi, korpus poetikasi, adabiyotshunoslik, raqamli filologiya, poetika.*

Аннотация: в статье анализируются научные возможности авторского корпуса Алишера Навои в литературоведческих исследованиях. Рассматриваются структура корпуса, его научное значение и роль в изучении поэтики Навои на основе корпусных методов. Особое внимание уделяется применению цифровых технологий в исследовании художественных текстов.

Ключевые слова: *Алишер Навои, авторский корпус, корпусная лингвистика, поэтика, литературоведение, цифровая филология, корпусный анализ.*

Annotation: this article examines the scientific potential of the Alisher Navoi Author Corpus in literary studies. It discusses the structure of the corpus, its academic significance, and its role in studying Navoi's poetics through corpus-based methods. The study also highlights the contribution of digital technologies to the systematic analysis of literary texts.

Key words: *Alisher Navoi, author corpus, corpus linguistics, poetics, literary studies, digital humanities, corpus analysis.*

Kirish. XXI asr filologiyasida raqamli texnologiyalar va korpus tadqiqotlarining jadal rivojlanishi adabiyotshunoslik oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, badiiy matnlarni korpus metodlari asosida tadqiq etish mumtoz adabiyot namunalariining poetik xususiyatlarini obyektiv mezonlar asosida o'rganish imkonini yaratmoqda. Shu jihatdan Alisher Navoiy mualliflik korpusi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. [12:11]

Alisher Navoiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunasi sifatida ko'p yillardan buyon turli metodologiyalar asosida tadqiq etib kelinmoqda. Biroq shoir asarlarini raqamli korpus materiallari yordamida kompleks tahlil qilish masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Mualliflik korpusining yaratilishi esa Navoiy poetikasini yangi metodologik asosda tadqiq etish, badiiy birliklarning qo'llanish qonuniyatlarini aniqlash hamda poetik tizimni statistik va semantik jihatdan baholash imkonini bermoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Alisher Navoiy mualliflik korpusining adabiyotshunoslik tadqiqotlaridagi ilmiy imkoniyatlarini ochib berish hamda uning Navoiy

poetikasini o'rganishdagi metodologik ahamiyatini asoslashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, korpus tahlili va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Zamonaviy filologiyada korpus texnologiyalarining rivojlanishi badiiy matnlarni o'rganishda yangi metodologik bosqichni boshlab berdi. Korpus lingvistikasi dastlab til birliklarining qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda uning imkoniyatlari adabiyotshunoslik sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, mualliflik korpuslarini yaratish orqali alohida ijodkor uslubi, poetik tafakkuri, badiiy tasvir vositalari va individual badiiy mahoratini tizimli ravishda tadqiq etish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Alisher Navoiy mualliflik korpusi o'zbek raqamli filologiyasining muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi [2]. Mazkur korpus shoirning she'riy va nasriy merosini yagona elektron platformaga jamlash, matnlarni ilmiy jihatdan qayta ishlash hamda ularni zamonaviy qidiruv tizimlari orqali tahlil qilish imkonini beradi. Korpus tarkibida asarlarning elektron matnlari, morfologik belgilanishi, leksik birliklari, izohli lug'ati, poetik vositalari va boshqa lingvistik hamda

adabiy parametrlar tizimlashtirilgan. Bu esa tadqiqotchiga muayyan poetik hodisani alohida emas, balki butun ijod doirasida kuzatish imkonini yaratadi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusining muhim afzalliklaridan biri poetik birliklarni kontekstda kuzatish imkoniyatidir. Tadqiqotchi biror soʻz, obraz, ramz yoki badiiy sanʼatning barcha qoʻllanish holatlarini qisqa vaqt ichida aniqlashi, ularning semantik oʻzgarishlari va poetik funksiyasini qiyosiy tahlil qilishi mumkin. Masalan, “koʻngil”, “ishq”, “el”, “xalq”, “vatan”, “til” kabi konseptlarning shoir ijodidagi qoʻllanishi korpus orqali tizimli ravishda oʻrganilib, ularning poetik maydoni aniqlanadi. Mualliflik korpusi, ayniqsa, Navoiy poetikasining individual xususiyatlarini tadqiq etishda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Chunki korpus yordamida shoirning eng koʻp murojaat qilgan poetik vositalari, obrazlar tizimi, ramziy birliklari hamda badiiy sanʼatlarining qoʻllanish qonuniyatlari aniqlanadi. Bu esa Navoiy uslubining oʻziga xos jihatlarini yangi ilmiy mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Alisher Navoiy mualliflik korpusi nafaqat elektron matnlar bazasi, balki mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq etishga xizmat qiluvchi innovatsion platformadir. Korpusda jamlangan maʼlumotlar shoir ijodining poetik xususiyatlarini keng qamrovda oʻrganish, badiiy birliklarning qoʻllanish qonuniyatlarini aniqlash hamda ularning estetik vazifasini ilmiy asosda izohlash imkonini beradi. Shu jihatdan mualliflik korpusi adabiyotshunoslik va raqamli filologiyaning tutashgan nuqtasida shakllangan yangi ilmiy yoʻnalishlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Adabiyotshunoslikda poetik hodisalar koʻpincha alohida asar yoki maʼlum bir janr doirasida tahlil qilinadi [11:45]. Mualliflik korpusi esa bunday chegaralarni kengaytirib, shoir ijodini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish imkonini yaratadi.

Tadqiqotchi birgina badiiy sanʼat yoki poetik obrazning Navoiy ijodidagi barcha qoʻllanish holatlarini qamrab olishi, ularning mazmuniy oʻzgarishlarini, poetik funksiyasini hamda janrlar kesimidagi oʻziga xosligini qiyosiy tahlil qilishi mumkin. Korpusning yana bir muhim afzalligi poetik birliklarni statistik jihatdan tahlil qilish imkoniyatidir. Muayyan badiiy sanʼat yoki obrazning qoʻllanish chastotasi, uning qaysi asarlarda faolroq uchrashi, boshqa poetik vositalar bilan bogʻliqligi ilmiy dalillar asosida aniqlanadi. Bu esa anʼanaviy kuzatuvlarga asoslangan xulosalarni aniq raqamlar bilan tasdiqlash imkonini beradi.

Korpus texnologiyalari badiiy sanʼatlarni oʻrganishda ham yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Tashbeh, istiʼora, talmeh, tazod, tajnis, tanosub kabi poetik vositalarning qoʻllanish xususiyatlarini avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlari orqali aniqlash, ularni semantik guruhlarga

ajratish va funksional jihatdan tavsiflash mumkin. Natijada badiiy sanʼatlarning shoir uslubini shakllantirishdagi oʻrni hamda poetik mazmun yaratishdagi vazifasi yanada aniqroq yoritiladi. Mualliflik korpusidan foydalanish ilmiy tadqiqotlarning obyektivligini oshiradi. Chunki tadqiqotchi oʻz xulosalarini alohida misollar asosida emas, balki shoir ijodining barcha matnlari asosida shakllantiradi. Bu esa ilmiy natijalarning ishonchligi va takror tekshirilish imkoniyatini taʼminlaydi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda bunday yondashuv empirik maʼlumotlarga tayangan ilmiy tahlil sifatida eʼtirof etilmoqda.

Alisher Navoiy mualliflik korpusining ilmiy imkoniyatlari faqat mavjud tadqiqotlarni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. U kelgusida poetik birliklarni avtomatik aniqlash, badiiy sanʼatlarni elektron teglash, konseptual xaritalarni yaratish, stilometrik tahlillarni amalga oshirish hamda sunʼiy intellekt texnologiyalari asosida Navoiy poetikasini oʻrganish kabi istiqbolli yoʻnalishlarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois mualliflik korpusi oʻzbek adabiyotshunosligining metodologik bazasini boyituvchi muhim ilmiy resurs sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi asosida adabiy matnlarni tadqiq etish istiqbollari. Mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy metodologiyalar asosida oʻrganish bugungi adabiyotshunoslikning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida korpus lingvistikasi imkoniyatlari kengayib, u nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslikning ham muhim tadqiqot metodiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy mualliflik korpusi shoir ijodini kompleks oʻrganish uchun keng ilmiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Mualliflik korpusidan foydalanish Navoiy poetikasining ichki tizimini yangi ilmiy mezonlar asosida tadqiq etishga xizmat qiladi. Avvalo, korpus yordamida shoirning individual uslubi (idiostili)ni tavsiflovchi asosiy poetik belgilar aniqlanadi. Muayyan obrazlar, ramzlar, badiiy sanʼatlar hamda konseptlarning qoʻllanish chastotasi va oʻzaro bogʻliqligi asosida Navoiy poetikasining individual modeli yaratilishi mumkin.

Ikkinchidan, korpus texnologiyalari poetik birliklarning semantik maydonini aniqlash imkonini beradi. Masalan, “ishq”, “koʻngil”, “yor”, “el”, “xalq”, “vatan”, “turk”, “adolat” kabi birliklarning qaysi kontekstlarda va qanday poetik vazifada qoʻllanganini qiyosiy tahlil qilish mumkin. Natijada bitta konseptning shoir ijodidagi mazmuniy taraqqiyoti va badiiy funksiyasi ilmiy asosda yoritiladi.

Uchinchidan, mualliflik korpusi asosida janrlararo poetik qiyoslashni amalga oshirish mumkin. Navoiy gʻazallari, qasidalar, dostonlari va nasriy asarlarida

uchraydigan badiiy vositalar o'zaro taqqoslanib, ularning janr xususiyatlari bilan bog'liqligi aniqlanadi. Bunday yondashuv shoir poetikasining yaxlit tizimini ochib berishga xizmat qiladi.

Korpusning yana bir istiqbolli jihati poetik birliklarni elektron teglash va ularni ilmiy tasniflash imkoniyatidir. Kelgusida badiiy san'atlar, poetik obrazlar, ramziy birliklar va konseptlarni maxsus elektron belgilash orqali Navoiy poetikasining raqamli xaritasini yaratish mumkin. Bu esa nafaqat ilmiy izlanishlar, balki oliy ta'lim tizimida mumtoz adabiyotni o'qitish metodikasini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, korpus materiallari stilometrik tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo'la oladi. Stilometrik tahlil orqali muallifning individual uslubi, leksik boyligi, poetik birliklardan foydalanish darajasi va matnning statistik xususiyatlari aniqlanadi. Bunday tadqiqotlar Navoiy ijodining boshqa mumtoz shoirlar poetikasi bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish uchun ham metodologik asos yaratadi. Alisher Navoiy mualliflik korpusining ilmiy salohiyati faqat mavjud matnlarni saqlash bilan cheklanmaydi. Mazkur korpus kelgusida sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish, avtomatik semantik tahlil va raqamli adabiyotshunoslik yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan holda yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bu esa o'zbek mumtoz adabiyotini xalqaro ilmiy maydonda zamonaviy metodlar asosida tadqiq etish va targ'ib qilish uchun muhim zamin yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy mualliflik korpusining adabiyotshunoslik sohasida keng ilmiy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Mualliflik korpusi shoir asarlarining elektron bazasi sifatida nafaqat

matnlarni jamlash va saqlash, balki ularni zamonaviy korpus metodlari asosida kompleks tahlil qilish imkonini ham yaratadi. Bu esa Navoiy poetikasini yangi metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korpus texnologiyalaridan foydalanish poetik birliklar, badiiy san'atlar, obrazlar va konseptlarni tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi. Muayyan poetik birliklarning qo'llanish chastotasi, semantik rivojlanishi, kontekstual xususiyatlari hamda ularning poetik funksiyasini aniqlash an'anaviy adabiy tahlilning ilmiy salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Natijada tadqiqot xulosalari faqat nazariy kuzatuvlarga emas, balki korpus ma'lumotlariga tayangan empirik dalillar bilan ham asoslanadi. Mualliflik korpusining yana bir muhim afzalligi Navoiy poetikasini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish imkoniyatidir [10]. Shoir ijodidagi poetik obrazlar, ramziy birliklar, badiiy san'atlar va konseptlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni aniqlash orqali uning individual uslubi hamda badiiy tafakkurining o'ziga xos jihatlari chuqurroq yoritiladi. Bu esa o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishda yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi Alisher Navoiy mualliflik korpusining adabiyotshunoslikdagi metodologik imkoniyatlarini tizimli ravishda yoritish, korpus tahlilining poetik tadqiqotlardagi o'rnini asoslash hamda uni mumtoz adabiyot namunalari o'rganishning samarali usullaridan biri sifatida baholash bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari Navoiy poetikasini korpus metodlari asosida o'rganishga doir keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M. Alisher Navoiy merosini korpus lingvistikasi asosida o'rganishning dolzarb masalalari // Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2026.
2. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallarining tanlanishi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. – Toshkent, 2024.
5. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
6. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Navoiy A. Xamsa. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1989.
8. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1988.
9. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 2011.
10. Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Toshkent: Fan, 2011.
11. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
12. Zaxarov V., Bogdanova S. Korpusnaya lingvistika. – Sankt-Peterburg: SPbGU, 2020.

Yulduz ABDULHAKIMOVA,
Filol. fan.falsafa doktori (PhD), v.b dotsenti
O'zMU doktoranti
yulduzabdulhakimova3g@mail.ru



ALISHER NAVOIY VA MUHAMMAD FUZULIY IJODIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyni doston qahramonlarini tasvirlashda badiiy san'atlardan mohirona foydalanganliklari haqidagi qarashlarimizni aniq misollar va tahlillar orqali ochib berishga harakat qildik. Unda ijodkorlar mahorati haqida so'z yuritib, turkiy adabiyotda Navoiyga munosib izdoshlik maqomiga erishgan Muhammad Fuzuliy va Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonlari qiyosan o'rganildi. Tadqiqotimiz bu ikki ijodkorning bir nomdagi dostonlari qiyosi ilk marta amalga oshirilayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: *tashhis, tashbih, ishq, ijod, badiiy san'at*

Аннотация: в данной статье на конкретных примерах и в ходе анализа мы стремимся показать, как Алишер Навои и Мухаммад Фузули мастерски использовали литературные приемы при создании образов главных героев своих поэм. Мы рассматриваем художественное своеобразие творчества этих авторов и проводим сравнительный анализ поэм «Лейли и Меджнун», написанных Алишером Навои и Мухаммадом Фузули (причем последний по праву считается достойным преемником Навои в тюркоязычной литературе). Данное исследование представляет особую значимость, поскольку сравнительный анализ поэм этих двух поэтов, объединенных общим названием, проводится впервые.

Ключевые слова: *олицетворение, сравнение, любовь, творчество, литературный прием.*

Annotation: this article aims to demonstrate, through specific examples and analysis, how Alisher Navoi and Muhammad Fuzuli masterfully employed literary techniques in crafting the protagonists of their poems. We examine the distinctive artistic qualities of these authors' works and conduct a comparative analysis of the "Layla and Majnun" poems written by Alisher Navoi and Muhammad Fuzuli (with the latter rightfully regarded as Navoi's worthy successor in Turkic-language literature). This study is of particular significance, as it marks the first time a comparative analysis has been conducted on the poems by these two poets that share the same title.

Key words: *personification, simile, love, creativity, literary device.*

Ma'lumki, Sharq musulmon adabiyoti tarixida shunday zabardast so'zgarlar borki, ularning yaratgan ijod na'munalari, qoldirgan boy ilmiy-adabiy merosi bugungi kun uchun ham qimmatli manbalardandir. Uzoq yillik samarali mehnat, sabr-toqat va yuksak iste'dod evaziga bunyod bo'lgan bunday ma'naviy xazinalarni nafaqat ko'z qorachig'idek asrash balki, ulardan ibrat olish, ularda ko'rsatilgan mezonlar asosida yashash har bir go'zal axloq sohibining burchi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Boisi, bunday asarlar bir nechta ma'no qatlamlariga egaki kishini beixtiyor tarbiyalaydi, kamolotiga ta'sir eta oladi. Ularda nazarda tutilgan diniy-tasavvufiy g'oyalar, falsafiy qarashlar, ramz va ma'noga yo'g'rilan tafakkur hosilasidan bahramand bo'lishlik bizga Hofiz va

Attorning, Rumi va Jomiyning, Navoiy va Fuzuliyni ko'ngil olami bilan bevosita hamnafas bo'lish baxтини nasib etadi. Bunday qimmatli fikrlar nafaqat har bir satrda balki, ijod na'munalari jamlab tuzilgan devon debochalarida yanada go'zal tarzda ifodalanadi.

Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Turkiy adabiyotning yetuk namoyondalaridan bo'lgan Hazrat Alisher Navoiy ham, Muhammad Fuzuliy ham o'z ijodlarini ana shunda go'zal badiiy san'at na'munasiga aylantira olganlardandir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Alisher Navoiy davrida lirikaga forsiy til bergan jilo, go'zal ohang kishilarni shu

qadar o'ziga mahliyo etdiki, ular bu go'zallikni turkiy tilda yaratib bo'lmaydi, degan xulosaga keldilar. O'z zamonasi qoliplarini parchalab, zamondoshari qalbida turkiy tilga nisbatan muhabbat uyg'ota olgan Hazrati Alisher Navoiyning yaratgan ijodiy maktabi bugungi kunga qadar minglab hatto millionlab ijodkorlarni tarbiyaladi. Shoir an'alarini munosib davom ettirgan ijodkor Muhammad Fuzuliy ham shu ijodiy maktabning saboqdorlaridandir.

Navoiy misralarida o'zining vafosi va sadoqati bilan qalblarni rom etgan turkiy go'zalga monand Fuzuliy ozariy sanamning tasvirini yaratdi. Tuyg'u va kechinmalarini ifoda etishda ham aynan Navoiydan ulg'u olgan Fuzuliy o'z ijodini badiiy tasvir vositalari orqali o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Ayniqsa, ijodkorning "Layli va Majnun" dostoni tom ma'noda shoir ijodining cho'qqisi bo'lgan, deb ayta olamiz.

Ushbu maqolada Muhammad Fuzuliyning dostonchilik bobida Alisher Navoiyga izdoshlik masalasi yuzasidan o'z qarashlarimiz va xulosalarimiz bilan bo'lishni niyat qildik.

Har bir insonda o'ziga xos qobiliyat, iste'dod bor. Ijodkorning ijodkorligi esa voqea-hodisani go'zal badiiy tasvir vositalari orqali jonlantirib ko'rsata bera olishidadir. Xususan, Navoiy Layli ta'rifida, uning yuz go'zalligini bayon etishda mubolag'a san'atidan mahorat bilan foydalanadiki, o'quvchi xayolotida mubolag'a san'atining lug'aviy ma'nosi o'z ahamiyatini yo'qotib, shoir yaratgan go'zalning tasviriga oshiq bo'lib qoladi. Bu san'at badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirish bilan birga Navoiy fikrining go'zal ifodasiga ham xizmat qiladi:

Boshkim qo'shib ikki egma qoshi,

Husn ichra ikisining taloshi.

Un voqif o'lub bu mojarog'a,

Mushkin xutaba kirib arog'a .

Mujgon safining qaro balosi,

Ko'zlar uza soyaning qarosi.

Yo'q soyaki, to'rt saf chekib zang,

Majmui libosi surmairang.[1:67-68] (Bundan keying iqtiboslar aynan shu manbadan olingan)

Bu xil tasvirlarda badiiy timsol xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi, qahramon tasviri o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalanadi. Layli shu qadar go'zal qizki, uning kipriklarini qora baloga qiyos etib, aslida kipriklari naqadar uzun, quyuq va qora, ayni go'zallar orzu etgani kabi ekanligiga ishora etiladi

va bu bilan sanamning go'zalligi yanada orttirib ko'rsatiladi. Asar boshidan qizning malohatini tasvirlash barobarida shoir o'quvchiga bu chindan ham yagona, degan tushunchani singdiradi, uni ham oshiq qiladi. Mana bu asarning chin ma'noda jonlantiradigan, uni yashovchanligini ta'minlaydigan va tuyg'ularni jilvalantiradigan jarayondir. Bundan keyingi misralarda shoir badiiy tasvir vositalarini yanada bo'rttirishga erishadi. Qizning kipriklarini saf tortib turgan qora libosli qo'shinga o'xshatadi. Va Layli ko'zini har ochib-yumganda kipriklar xun istab jangga kirishardi.

Muhammad Fuzuliy esa Navoiyga ergashgan holda o'z ozariy go'zali- Laylining shu qadar mahorat bilan vasf etadiki, uning ta'rifi bevosita mubolag'a aylanib ketadi. Ammo o'quvchi bu qizni shunisi bilan yaxshi ko'radi, ijodkorni ortiqcha bo'yoqdorlikda ayblamaydi, undan ranjimaydi, dostonni sekin yopib qo'ymaydi. Chunki, uning xayolidagi Laylisi aynan shunday va hatto bundan ham go'zal ekanligiga ishonadi.

Shumshadi-latifina mürakkab,

Sibi-zanaxü turunci-ğabğab.

Əndami latifeyi-ilahi,

Daryayi-latafat içrə mahi.[2:23](Bundan keying iqtiboslar aynan shu manbadan olingan)

Navoiy Layli tasvirini boyitib, uning chiroyiga chiroy qo'shib boraveradi. Ushbu baytda shoir Layli jismini go'zalligini tashbih san'ati orqali quyidagicha bayon etishni niyat qiladi:

Shahdi labidinki komi shirin,

Andin kelibon kalomi shirin.

Bir toza niholi sarvqomat

Kim, jilvasidin solib qiyomat.

Bu baytda shoir yorning muxtasar ta'rifini keltirar ekan, qiz so'zining shirinligiga sabab, labidagi shira og'ziga ham yuqqanligidadir. Shundan so'zlari ham shirin chiqadi. U bir toza niholki, jilvasi bilan dillarga qiyomat soladi. Ko'rgan ko'zni quvnatib, qalbga shirin tuyg'ular bag'ishlaydi, deb aytadi.

Hazrat Navoiy yana dostonida *husni ta'lil* san'atidan unumli foydalanib, baytni chiroyli dalillaydi:

Qoshlari iki qulochin ochib,

Bo'ldi ko'zi uylariga hojib.

Qon yosh etti gulini toza,

Mashshotai margurdi g'oz.

Muhammad Fuzuliyning dostonida esa bu san'at quyidagicha qo'llaniladi:

*Bilmazlik ila xoş idi halim,
 Nə hüsn, nə eşq idi xəyalım.
 Sən vasiteyi-vücutim oldun,
 Sən manei-feyzi-cudim oldun!*

Umumiy ma'noda bu bayt orqali shoir Majnun tilidan Layliga qarata, seni bilmasimdan avval ahvolim yaxshi edi. Husn haqida ham, ishq haqida ham o'ylamas edim. Sen mening butun borlig'imni egallab, bor imkonimni qo'ldan olding, deb aytadi.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida *tajohuli orif* san'atidan ham unumli foydalanadi. Laylining Majnunga yozgan maktubida bu san'at turi bilan bog'liq quyidagicha misollar keladi:

*Holing ne durur firoqim ichra?
 Fikring nedur ishtiyoqim ichra?
 Farqingki emish qush oshyoni,
 Kim urkutar erkin andin oni?*

Ma'shuqa oshiq holini bilib tursa ham o'zini bilmaslikka oladi va oshiq qalbiga yana azob beradi. Uning hol so'rashlari oshiq chekayotgan firoq azobidan-da azobliroqdir, aslida.

Dostonning yana bir o'rnida Layli va Majnun suhbatini keltiriladi. Xuddi yuqoridagi singari ma'shuqa yor holatini bilib bilmaslikka oladi. Undan: Seni qanday g'aming borki yoshing oqizib, nola qilarsan? Ishrat chog'i mehnating, hasrating qanday? Bu g'am sanga qaydan yopishdi, Bu holingga kim sabab bo'ldi?-deb so'raydi vaholanki oshiqning bu azaoblari va og'riqlarining sababchisi yolg'iz o'zi ekanligini bilib tursa ham!

*Sen nola qilib g'amin nedinsen,
 Ashking oqizib hazin nedinsen?
 Ishrat chog'i mehnating ne ya'ni,
 Sho'robai hasrating ne ya'ni?
 Bu g'am sanga qaydin o'ldi hodis
 Kim bo'ldi bu shiddatingg'a bois?
 Bu savolga Majnun quyidagicha javob beradi:
 Qilg'onni yoshurmog'ing ne erdi?
 Mendin yana so'rmog'ing ne erdi?*

Aslida har dardimga sababchi ham, davo ham o'zingsan, shuncha fitnalarni qilib nimaga yashirasan, mendan qay yuz bilan hol so'raysan?-deydi Majnun. Bir qaraganda oddiy insonning javobidek tuyuladi, ammo zohirparastlar Majnunni telbaga chiqargan bir vaqtda u dono odamlar singari so'zlashi aslida uning komil inson ekanligidan dalolatdir. Komil inson esa insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosidir.[3: 150]

Muhammad Fuzuliyda esa *tajohuli orif* san'atidan quyidagicha foydalanadi:

*Farmana muxalifatmi qildim?
 O'daya muvafiqatmi qildim?
 Badxahlarinmidir bu tadbir?
 Qammazlarinmidir bu tazvir?*

Oliy farmonga qarshilik qildingmi? Bu ishlar sening dushmanligingmi? Yoki, bu sirlarni ochish uchun hiylami?

Har ikki ijodkor badiiy san'at vositalaridan nafaqat mazmun va baytning go'zalligini ta'minlash, balki qahramonlar ruhiyatini ochib berish uchun ham mohirona foydalana olganlar.

Badiiy adabiyotning barcha zamonlardagi mahsullarida ta'sirchanlik yaratuvchi omillar badiiy san'atlar bo'ladi[4:4].

Xulosa qilib aytganda, Layli va Majnun obrazini tasvirlashda Alisher Navoiy ham, Muhammad Fuzuliy ham badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganlar. Har ikki mutafakkir asarlarida eng ko'p qo'llangan badiiy san'atlar tashbih, mubolag'a, tazod, tanosib, qarshilantirish, husni ta'lil, tajohuli orif bo'lib, Navoiy Layli obrazi tasvirida asosan ruju' va mubolag'a san'atlaridan foydalangan bo'lsa, Fuzuliy Layli obrazini tashbih va tanosib san'atlari vositasida gavdalandiradi[5:133]. Badiiy san'atlar orqali har ikki ijodkor tasvirda teran mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligini ta'minlay olganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – T.: Tamaddun, 2021
2. Фузулий. Лайли ва Мажнун. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти-1968.
3. Komilov N. Tasavvuf va komil inson axloqi. –T.:Ёзувчи-1996
4. Rahmonov V. She'r san'atlari. – T.:Sharq-2020
5. Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Мухаммад Фузулий "Лайли ва Мажнун" дostonларинг қиёсий таҳлили. Фил.ф.ф.док. (PhD) дисс. – Т., 2022

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Yulduzxon SAYDAZIMOVA,
Sirdaryo viloyati Oqoltin 3-son texnikumi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
ORCID: 0009-0007-8925-4865
yulduzsaydazimova1997@gmail.com

ONA TILI DARSLARIDA KATTA HAJMLI MATNLARNI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida katta hajmli matnlar bilan ishlashda qo'llaniladigan interfaol o'qitish metodlarining nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik adabiyotlar asosida matn bilan ishlashning kognitiv va kommunikativ jihatlarini yoritilgan, o'quvchilarning katta hajmdagi matnlarni idrok etish, tahlil qilish va qayta ishlash jarayonidagi qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlarning o'quvchilar matnli kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, interfaol metodlar, katta hajmli matn, matnli kompetensiya, o'qish strategiyalari, kognitiv yondashuv, kommunikativ ta'lim.

Аннотация: в данной статье анализируются теоретико-методологические основы интерактивных методов обучения, применяемых при работе с текстами большого объема на уроках родного языка. На основе современной педагогической литературы освещены когнитивные и коммуникативные аспекты работы с текстом, рассмотрены трудности, возникающие у учащихся в процессе восприятия, анализа и переработки больших по объёму текстов, а также эффективные способы их преодоления. Результаты исследования обосновывают значимость интерактивных методов в повышении текстовой компетенции учащихся.

Ключевые слова: обучение родному языку, интерактивные методы, текст большого объёма, текстовая компетенция, стратегии чтения, когнитивный подход, коммуникативное обучение.

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of interactive teaching methods used in working with large-volume texts in native language lessons. Drawing on contemporary pedagogical literature, the cognitive and communicative aspects of working with text are examined, along with the difficulties students face in perceiving, analyzing, and processing large texts and the effective ways of overcoming them. The findings of the study substantiate the importance of interactive methods in enhancing students' textual competence.

Key words: native language education, interactive methods, large-volume text, textual competence, reading strategies, cognitive approach, communicative teaching.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini, xususan, katta hajmdagi matnlarni to'g'ri idrok etish, tahlil qilish va undan zarur ma'lumotni ajratib olish qobiliyatini shakllantirishdir. Axborot texnologiyalari asrida o'quvchilar kundalik hayotda turli hajmdagi matnli materiallar bilan to'qnashadilar, biroq an'anaviy o'qitish usullari ko'pincha bunday matnlarni samarali o'zlashtirish uchun yetarli darajada moslashtirilmagan [1]. Bir qator tadqiqotchilar ta'kidlashicha, katta hajmli matnlarni o'qitishda o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt saqlash, matn tuzilishini tushunish va undagi asosiy g'oyalarni ajratib olish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Interfaol metodlarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa matnni chuqurroq idrok etish va uzoq muddatli xotirada saqlab qolish imkonini beradi [3]. Xorijiy pedagogika fanida bunday yondashuv "active learning" nomi ostida keng o'rganilgan bo'lib, u o'quvchining bilim olish jarayonidagi faolligini ta'lim

natijadorligining asosiy omili sifatida talqin qiladi [4]. Mahalliy tilshunoslik va metodika sohasida ham so'nggi yillarda ona tili darslarida interfaol texnologiyalarni qo'llash masalasiga qiziqish ortib bormoqda, biroq katta hajmli matnlar bilan ishlashga bag'ishlangan maxsus metodik ishlanmalar hali yetarli emas [5].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Tadqiqotda mahalliy va xorijiy pedagogik-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish metodidan foydalanilgan. Metodologik yondashuv sifatida matn lingvistikasi va kognitiv pedagogika nazariyalarining sintezi qo'llanildi, bu esa katta hajmli matnlarni o'qitishning nafaqat lisoniy, balki psixologik jihatlarini ham yoritish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, katta hajmli matnlar bilan ishlashda qo'llaniladigan interfaol metodlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga matnni bo'laklarga bo'lib o'rganish strategiyalari kiradi, jumladan "jigsaw reading" texnikasi, unda matn qismlarga bo'linib, har bir o'quvchi yoki guruh ma'lum bir qismni chuqur o'rganib, keyin sinfdoshlariga taqdim etadi [6]. Bu usul nafaqat matnni o'zlashtirishni yengillashtiradi, balki o'quvchilar orasida

hamkorlikni rivojlantiradi. Ikkinchi guruhga grafik tashkilotchilar (graphic organizers) asosidagi metodlar kiradi, ular matn tuzilishini vizual shaklda aks ettirish orqali o'quvchiga murakkab ma'lumotni tizimlashtirishga yordam beradi [7]. Uchinchi guruh esa savol-javob va munozaraga asoslangan metodlarni o'z ichiga oladi, jumladan "Sokrat savollari" usuli, bu usul o'quvchini matn mazmuni ustida tanqidiy fikrlashga undaydi [8].

Rossiya metodika maktabida ham katta hajmli badiiy va publitsistik matnlarni o'qitishda interfaol yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, xususan, matnni bosqichma-bosqich o'qish texnologiyasi (texnologiya smyslovogo chteniya) keng qo'llaniladi, unda o'quvchi matn bilan uch bosqichda, ya'ni o'qishdan oldin, o'qish jarayonida va o'qishdan keyin ishlaydi [9]. Bunday texnologiya o'quvchining matnga nisbatan prognozlash, savol berish va xulosa chiqarish kabi kognitiv operatsiyalarni faollashtiradi. O'zbek tilshunosligi va metodikasida esa matn lingvistikasining ta'limiy jihatlari, xususan, matnning mazmuniy va kompozitsion yaxlitligini o'quvchiga tushuntirishning interfaol usullari o'rganilgan bo'lib, bu borada matnni tahlil qilishning "klaster" va "insert" kabi strategiyalari samarali deb topilgan [10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili katta hajmli matnlarni o'qitishda interfaol metodlarning samaradorligini belgilovchi bir qator omillarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan, matnni bo'laklarga bo'lib o'rganish strategiyalari o'quvchining kognitiv yukini kamaytiradi, chunki katta hajmdagi ma'lumotni bir vaqtning o'zida qayta ishlash o'rniga, u kichik qismlarga bosqichma-bosqich yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, kognitiv yuklama nazariyasi nuqtayi nazaridan asoslidir, chunki inson qisqa muddatli xotirasining hajmi cheklangan bo'lib, katta hajmli ma'lumotni bo'laklarga bo'lish uni samaraliroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, grafik tashkilotchilardan foydalanish matnning lisoniy tuzilishini vizual model orqali aks ettirish imkonini beradi, bu esa xususan vizual idrok turi ustun bo'lgan o'quvchilar uchun

katta ahamiyatga ega. Grafik vositalar matn ichidagi sabab-oqibat, qiyoslash yoki xronologik munosabatlarni aniqroq ko'rsatib berishi bilan an'anaviy chiziqli o'qishdan farq qiladi.

Uchinchidan, savol-javob va munozaraga asoslangan usullar o'quvchida matnga nisbatan faol, tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Sokrat savollari usuli yoki bosqichma-bosqich o'qish texnologiyasi qo'llanilganda o'quvchi matnni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uning mazmunini izohlovchi va baholovchi shaxsga aylanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, o'quvchining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Shuningdek, tahlil shuni ko'rsatadiki, turli interfaol metodlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi, ya'ni matnni bo'laklarga bo'lish, grafik tashkilotchilardan foydalanish va munozarani birgalikda qo'llash, alohida-alohida qo'llanilgan har qanday metoddan ko'ra yuqoriroq natija beradi degan xulosaga kelish mumkin. Bu, ayniqsa, katta hajmli badiiy va ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki bunday matnlar murakkab kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, ularni bir turdagi metod bilan to'liq qamrab bo'lmaydi.

Xulosa.

O'tkazilgan tahlil natijasida ona tili darslarida katta hajmli matnlarni o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Matnni bo'laklarga bo'lish strategiyalari, grafik tashkilotchilar va munozaraga asoslangan usullar o'quvchining matnli kompetensiyasini shakllantirishda o'zaro to'ldiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu metodlarning kompleks tarzda qo'llanilishi o'quvchilarning katta hajmdagi matnlarni idrok etish, tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu metodlarning aniq ta'lim bosqichlariga moslashtirilgan modellarini ishlab chiqish va ularni ona tili ta'limi dasturlariga tatbiq etish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqova N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari va matn bilan ishlash muammolari. – Toshkent: Fan, 2021. 184-b.
2. Каримов А.А. Методика преподавания родного языка в современной школе. Ташкент: Учитель, 2020. 212 с.
3. Bonwell C.C., Eison J.A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. Washington DC: George Washington University, 1991. 121 p.
4. Freeman S., Eddy S.L., McDonough M. et al. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences. 2014. Vol. 111, No. 23. P. 8410-8415.
5. Yusupova D.M. Ona tili darslarida matn bilan ishlashning zamonaviy shakllari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. 156-b.
6. Aronson E., Patnoe S. Cooperation in the Classroom: The Jigsaw Method. 3rd ed. London: Pinter & Martin, 2011. 208 p.
7. Hyerle D., Alper L. Student Successes with Thinking Maps: School-Based Research, Results, and Models for Achievement Using Visual Tools. 2nd ed. Thousand Oaks: Corwin Press, 2011. 264 p.
8. Paul R., Elder L. The Thinker's Guide to Socratic Questioning. Tomales: Foundation for Critical Thinking, 2019. 92 p.
9. Сметаникова Н.Н. Стратегический подход к обучению чтению. Москва: Школьная библиотека, 2005. 512 с.
10. Rahimova G.T. Matn lingvistikasi va uni maktab ta'limida qo'llash masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. 198-b.

Dilfuzaxon GANIYEVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
dilfuzaganiyeva57@gmail.com

NOFILOG TALABALARNING KASBIY EHTIYOJIGA MOS BO'LGAN GRAMMATIK MATERIALNI INTERFAOL USULDA O'QITISH MODEL

Annotatsiya: ushbu maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi grammatik kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning kasbga yo'naltirilgan (ESP asosidagi) hamda kommunikativ yondashuv modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy grammatika o'qitish usullari bilan interfaol, kasbiy kontekstga moslashtirilgan yondashuv o'rtasidagi alohida xususiyatlari tahlil qilinadi. Interfaol va kasbga yo'naltirilgan metodlarning talabalar motivatsiyasi va grammatik ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi masalasi tadqiq etiladi.

Kalit So'zlar: kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP), grammatik kompetensiya, interfaol metodlar, metodik model.

Annotation: this article analyzes a model based on communicative and profession-oriented (ESP) approaches that utilizes interactive methods to develop English grammatical competence among students in non-philological fields of study. The research examines the distinctions between traditional grammar teaching methods and an interactive approach tailored to a professional context. It further investigates the positive impact of interactive and profession-oriented methods on student motivation and the ability to apply grammatical skills in practice.

Key words: english for Specific Purposes (ESP), grammatical competence, interactive methods, methodological model.

Аннотация: в статье анализируется модель, основанная на коммуникативном и профессионально-ориентированном (ESP) подходах и использующая интерактивные методы для формирования грамматической компетенции в английском языке у студентов нефилологических специальностей. В исследовании рассматриваются различия между традиционными методами обучения грамматике и интерактивным подходом, адаптированным к профессиональному контексту. Также анализируется положительное влияние интерактивных и профессионально-ориентированных методов на мотивацию студентов и их способность применять грамматические навыки на практике.

Ключевые слова: английский язык для специальных целей (ESP), грамматическая компетенция, интерактивные методы, методическая модель.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida chet tili, xususan ingliz tilini o'qitish nafaqat filologik, balki nofilologik yo'nalishlarda ham muhim o'rin egallaydi. Biroq nofilolog talabalar uchun ajratilgan soatlarning cheklanganligi, ularning asosiy e'tibori kasbiy fanlarga qaratilganligi va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning pastligi grammatik kompetensiyani rivojlantirishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi.

An'anaviy grammatika o'qitish usullari — qoidalarni yodlash, mexanik mashqlar bajarish — ko'pincha talabalarining kasbiy ehtiyojlaridan uzoq bo'lib, ularda tilni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirmaydi. Bu holat nofilolog talabalar uchun grammatikani o'qitishda yangi, kasbga yo'naltirilgan va interfaol yondashuvlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u grammatik kompetensiyani shakllantirishni talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'laydi, natijada til o'rganish nafaqat majburiy fan sifatida emas, balki kasbiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — nofilologik yo'nalish talabalar uchun grammatik materiallarni kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda interfaol metodlar yordamida o'zlashtirish modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdir.

"Grammatik kompetensiya" tushunchasi M. kanal va M. Sveyn tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modelida markaziy o'rin tutadi. Grammatik kompetensiya bu — tilning grammatik qurilishini tashkil etadigan morfologik, sintaktik hamda semantik bilimlarni

egallash, ularni turli vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir. Grammatik kompetensiya filolog mutaxassislar uchun kelajakda kasbiy ehtiyojlari qanchalik muhim bo'lsa, nofilolog talabalar uchun ham shunchalik ahamiyatlidir. Sababi, nofilolog talabalar bo'lajak iqtisodchi, texnik, bank xodimi, tibbiyot xodimi sifatida faoliyat olib boradilar. Albatta xorijiy tillardan birida, xususan ingliz tilida erkin muloqot qila olish, ularni xalqaro maydonda o'z kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishi uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Kasbiy-kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan, grammatik kompetensiyani rivojlantirish, nofilologik yo'nalishlarda birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Buning sababalari sifatida ularning til o'rganishga motivatsiyasi pastligi, kasbiy fanlarni o'zlashtirish uchun kognitiv yuklamaning ortishi, cheklangan soat orqali ingliz tilini o'rgatish kabilarni keltirish mumkin. Grammatik kompetensiyani kasbga yo'naltirib o'qitish g'oyasi yuqoridagi barcha muammolarga yechim sifatida o'laroq, interfaol metodlar bilan integratsiyalash hamda samaradorligini isbotlash tadqiqotimizning maqsadini belgilab beradi.

Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili ESP (English for Specific Purposes) yo'nalishi ingliz tilini kasbiy hamda akademik maqsadlardan kelib chiqqan holda til va kommunikatsiyani birlashtirgan yondashuv hisoblanadi. ESP o'qitishda T. Hutchinson va A. Vaters, shuningdek T. Dudley-Evans tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, ular tilni o'quvchining kasbiy va akademik ehtiyojlariga moslashtirib o'qitish tamoyillarini asoslaydi. Ushbu yondashuv tibbiyot, biznes, fan va boshqa sohalarida ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki bu yo'nalishlarda qo'llaniladigan ingliz tili grammatikasi, lug'at tarkibi va diskurs xususiyatlari umumiy ingliz tilidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Maxsus maqsadlarga

yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish, bir necha shartlarni o'z ichiga oladi: Ehtiyojlar tahlili (Needs Analysis), Autentiklik (Authenticity), Maqsadga yo'naltirilganlik (Purpose-Orientedness), Ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik (Learner-Centeredness). ESP yondashuvi o'quvchilarning bilim darajasi, tajribasi, ehtiyojlari va o'rganish uslublari bir-biridan farq qilishini e'tirof etadi. Shu sababli o'qitish jarayoni ularning individual xususiyatlariga moslashtiriladi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Interfaol metodlar – bu o'quv jarayonida talabalarining faol ishtiroki, o'zaro hamkorligi va kommunikativ faoliyatini tashkil etish orqali bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradigan o'qitish metodidir. Ingliz tili grammatikasini o'qitishda talabalarni grammatik qoidalarni tayyor qabul qilish emas, balki ularni real kommunikativ va kasbiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash va fikr almashish orqali o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish metodlaridir.

Biz tomonimizdan tadqiqotimiz doirasida nofilologik ta'lim yo'nalishi, xususan iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi grammatik kompetensiyasini interfaol metodlar yordamida rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi (1.1-rasm). Mazkur model nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilidagi grammatik kompetensiyasini interfaol metodlar asosida rivojlantirishning metodik tizimini aks ettiradi. Modelning yuqori qismida ijtimoiy buyurtma, ta'lim maqsadi hamda pedagogik yondashuv va tamoyillar o'zaro uzviy bog'liqlikda berilgan. Mazkur modelimiz, yuqridagi ESP shartlarini inobatga olgan holda quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1.1-jadval


Tamoyil	Mazmuni
Kasbga yo'naltirilganlik	Grammatik materiallar talabaning mutaxassisligiga oid matnlar orqali taqdim etiladi.
Interfaollik	Task-based, kommunikativ va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish
Kontekstuallik	Grammatik struktura alohida emas, balki kasbiy nutq vaziyati ichida o'rgatiladi
Amaliy yo'naltirilganlik	Har bir mavzu real kasbiy vaziyatga tatbiq etiladi

Mazkur maqsadni amalga oshirishda kompetensiyaviy, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda tizimli yondashuvlar metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar o'qitish jarayonini talabaning kasbiy ehtiyojlari, amaliy faoliyati va mustaqil ta'limini hisobga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

Modelning markaziy qismida grammatik kompetensiyani rivojlantirishning **mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari** keltirilgan. Mazmun grammatik bilimlar, CEFR talablari, kasbiy matnlar hamda grammatik birliklarning nutq faoliyatida qo'llanilishini o'z ichiga oladi. O'qitish individual, juftlik va guruhlarda

1.1-rasm.

PEDAGOGIK YONDASHUV



tashkil etiladi. Jarayonda Dictogloss, Think–Pair–Share, Brainstorming, Case Study, Role Play, Problem-Based Learning, Scaffolding hamda Collaborative Learning kabi interfaol metodlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar darsliklar, ishchi daftarlar, Moodle, Google Forms, Quizizz, Kahoot platformalari, videolar, podkastlar, infografikalar va boshqa raqamli resurslar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Model grammatik kompetensiyani rivojlantirishni **besht bosqich** asosida amalga oshirishni nazarda tutadi:

1. Diagnostik bosqich – talabalarning boshlang'ich grammatik bilimlari va mavjud xatolarini aniqlash;

2. Motivatsion bosqich – o'quv motivatsiyasini shakllantirish va o'quv maqsadlarini belgilash;

3. Operatsion bosqich – grammatik materiallarni interfaol metodlar asosida o'zlashtirish hamda mashq va topshiriqlarni bajarish;

4. Kommunikativ-amaliy bosqich – grammatik birliklarni kasbiy va kommunikativ vaziyatlarda qo'llash;

5. Refleksiv-baholash bosqichi – o'z-o'zini baholash, monitoring, natijalarni tahlil qilish va zarur tuzatishlarni amalga oshirish.

Model samarali amalga oshirilishi uchun **pedagogik shart-sharoitlar** ham belgilangan. Jumladan, interaktiv ta'lim muhitini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, doimiy fikr-mulohaza (feedback)ni ta'minlash, talabalar hamkorligini rag'batlantirish, mustaqil ta'lim va refleksiv faoliyatni rivojlantirish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

Talabalarning grammatik kompetensiyasi **kognitiv, operatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlar** asosida baholanadi. Ushbu mezonlar grammatik bilimlarning o'zlashtirilishi, ularni amaliy qo'llash, muloqot jarayonida samarali foydalanish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini kompleks ravishda baholash imkonini beradi.

Natijalar **yuqori, o'rta va past** darajalarda aniqlanadi. Yuqori darajadagi talabalar grammatik birliklardan turli kommunikativ va kasbiy vaziyatlarda to'g'ri hamda erkin foydalanadi. O'rta darajadagi talabalar ayrim xatolarga yo'l qo'ygan holda asosiy kommunikativ vazifalarni bajara oladi. Past darajadagi talabalar esa grammatik bilim va ko'nikmalarni qo'llashda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi.

1.1-rasm.

Nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilidagi grammatik kompetensiyasini rivojlantirish modeli.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tili grammatikasini o'rgatishda, nofilolog talabalarining kasbiy ehtiyojiga to'liq javob bera oladigan hamda ularning ta'lim olish jarayonini kompleks zamonaviy talablarga javob beradigan metod, vosita va usullardan foydalanishni ta'minlaydiga metodik model loyihasi nolisoniy talabalarining xorijiy tilni egallashga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiribgina qolmay, kasbiy sohasida real vaziyatlarda yozma va og'zaki nutq me'yorlariga amal qilgan holda erkin muloqot qila olishlarini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Canale, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. M. Canale, M. Swain // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1, Issue 1. – P. 1–47.
2. Hutchinson T., Waters, A. English for Specific Purposes: A learning-centred approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
3. Noella, V. English for specific purpose. - 2019 <https://www.ebsco.com/research-starters/language-and-linguistics/english-specific-purposes>. (Murojaat sanasi: 05.08.2026)
4. Muminova D. Teaching English for specific purposes (ESP) to students. A comprehensive overview // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – Vol 3. Issue 5. – P. 93 – 96.
5. Wajnryb, R. Dictogloss and grammar reconstruction tasks / R. Wajnryb. — Sydney : Language Teaching Publications, 2018. — 110 b.
6. Озерова Т. Ф. Использование интерактивных методов в практической работе с учащимися. — URL: <https://nsportal.ru> (Murojaat sanasi: 01.03.2026).
7. Swan M. Practical English Usage (New Edition). — Oxford: Oxford University Press, 1995. — 658 p.
8. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 432 b.



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the text 'TADQIQOTLAR' in bold dark blue in the center, and a white plus sign at the bottom right.

Farangiz YUSUPOVA,
 Samarqand davlat pedagogika instituti
 mustaqil tadqiqotchisi
 www.farangiz95f@gmail.com

SURXON BO'RIYEVNING "TANHOLIK TANTANASI" ROMANIDA ONA OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek adabiyotida ona obrazining badiiy-estetik talqini, uning milliy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni ifodalashdagi o'rni tahlil etiladi. Ona obrazining o'zbek adabiyotidagi an'anaviy va zamonaviy talqinlari qiyosiy aspektda yoritilib, istiqbol davri adabiyotida milliy o'zlik, ona siymosi, oilaviy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy mezonlarga bo'lgan e'tiborning kuchayishi asoslanadi. Xususan, Surxon Bo'riyevning "Tanholik tantanasi" romanida ona obrazining yaratilish prinsiplari, uning xarakter va ruhiy olamini ochishda qo'llanilgan badiiy vositalar hamda obrazning sujet-kompozitsion yaxlitlikdagi o'rni tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: ona obrazi, obraz, xarakter, milliy ruh, milliy qadriyat, badiiy talqin, uslub, retrospektiv, poetika, personaj, ruhiy kechinma, xotira, badiiy ifoda.

Аннотация: в данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация образа матери в узбекской литературе, его роль в выражении национального мышления, духовных ценностей и человеческих качеств. В сравнительном аспекте освещаются традиционные и современные трактовки образа матери в узбекской литературе, обосновывается усиление внимания к национальному самосознанию, образу матери, семейным ценностям и духовно-нравственным критериям в литературе периода независимости. В частности, исследуются принципы создания образа матери в романе Сурхана Буриева «Торжество одиночества», художественные средства, использованные для раскрытия её характера и внутреннего мира, а также место образа в сюжетно-композиционной целостности произведения.

Ключевые слова: образ матери, образ, характер, национальный дух, национальная ценность, художественная интерпретация, стиль, ретроспектива, поэтика, персонаж, душевные переживания, память, художественное выражение.

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of the image of the mother in Uzbek literature, examining its role in expressing national consciousness, spiritual values, and human virtues. The traditional and modern interpretations of the mother figure in Uzbek literature are comparatively explored, substantiating the heightened focus on national identity, the image of the mother, family values, and spiritual-moral criteria in the literature of the independence period. Specifically, it investigates the principles behind the creation of the mother's image in Surkhon Bo'riyev's novel "Triumph of Loneliness", the artistic devices used to reveal her character and inner world, and the image's role in the plot's compositional integrity.

Key words: image of the mother, image, character, national spirit, national value, artistic interpretation, style, retrospective, poetics, character, psychological experience, memory, artistic expression.

Har qanday ijodkor ona haqida asar bitarkan, o'zi yashab turgan muhit bilan, davr oralig'idagi xotiralar haqida go'zal she'r bitgisi keladi. Shu tariqa, xoh nazm, xoh nasriy asarlar bo'lsin, ona obraziga alohida mehr bilan qaraydi. O'zbek adabiyotida Pirmuqol Qodirov, O'tkir Hoshimov, Isajon Sulton kabi yozuvchilar ona obrazini alohida bir motiv sifatida talqin etganlar. Iste'dodli yozuvchi Surxon Bo'riyev "Tanholik tantanasi" romanida esa Ona obraziga alohida bir mehr-muhabbat bilan to'xtaladiki, beixtiyor o'qirman o'z tuqqan onasining insoniy fazilatlarni yodiga olishi tayin.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sultonning "Onazorim" qissasi keyingi o'n yilliklarda yaratilgan qissalar ichida eng yaxshisi deya e'tirof etildi. O'zbek

adabiyotida ayol qalbining butun tovlanishlarini-yu, mangu izzatlarining asl mohiyatini O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan keyin bu asarda ko'ramiz. "Dunyoning ishlari" qissasidagi Ona obrazi bilan Isajon Sultonning "Onazorim" asaridagi ayol ruhiy olamini qiyoslab tahlil qilsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. "Dunyoning ishlari" qissasida yozuvchi Ona siymosiga shu qadar tiniq ruh bilan kirib boradiki, o'qigan o'quvchi xuddi o'z Onasini bag'riga bosib, yum-yum yig'lagisi keladi. Aslida Ona haqidagi barcha go'zal asarlardagi umumiy dard pafosi o'quvchilar ko'nglini birdek o'ziga jalb qilishining sababi ham mohiyatning bir ma'noni kashf etishga qaratilgani bilan belgilanadi. Surxon Bo'riyevning "Tanholik tantanasi" trilogiyasida Jabbor

ismli qahramonning o'z onasi haqidagi o'ylarini goho Jasur vositasida, goho o'zining uzundan-uzun suhbatlarida tilga oladi:

“Bechora onam!.. Xuddi unga bag'ishlab aytilgan qo'shiqqa o'xshaydi” yana xayolidan o'tkazdi u. “Kutdik. Ko'p kutdik otam kelmadi... Onamdanda xafa bo'lib, dashtga qochib ketdim. Tunni daladagi g'aram poyalar orasidan qo'nim topadigan mollar bilan o'tkazdim. Uyda onam yolg'iz qoldi. Shu qo'shiqdagi ayolning xuddi o'zginasidek. Ikkinchi turmushga chiqishini men bilan maslahatlashib, u xato qilganmi? Yo'q, uning majbur bo'lganligini endi-endi tushunapman. O'shanda “Jabbor, hamma o'rtoqlaringning otasi bor. Yoningda dada bo'lishini sen ham xohlarmiding?” deya ming xijolat chekib so'radi u mendan. Men “o'zimning otam qaytib kelayotgan bo'lsa kerak” deya xayol qilganimdan bir necha kun ichimga sig'may, sevinib yurdim. Onam hech qachon ruxsat bermagan narsalarni endi bemalol otamdan so'rashim mumkinligi xayolimni band etdi”[1;206].

Yozuvchi S.Bo'riyev birinchi kitobida “Quyoshga intilganlar”da ham Ona obraziga alohida mantiqiy urg'u bergandi. Sababi, o'g'il farzand ko'rishlik, o'z do'stlariga bu haqida kuyinib gapirib berishlari tasviri bilan boshlanadi muqaddima. O'z onasining tez-tez betob bo'lishi, shahar va qishloq oralig'ida kechgan umrni har qanday mantiq chegarasida tahlil qilardi. Shuni unutmaslik kerakki, yozuvchi Ona siymosini ulug'lab, alohida mehr bilan xotirlaydi. Shu boisdan ham, onalarning barchasi bir-biriga o'xshashini bot-bot ta'kidlaydi. Turmush o'rtog'i Zeboning ham onasi erta vafot etib, yetimlik azobini totayotganini ham ichki sog'inish bilan his qiladi. Zamonaviy o'zbek romanlarida ona ruhiyatining aks etish prinsiplari haqida so'z borganda, avvalo, jamiyatning maishiy muammolaridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydigan ONA obrazi ko'z o'ngimizda zohir bo'ladi. O'zbek xalqining boshiga nima tashvish kelmasin, avvalo, oilada Ona kuyunadi, iztirob chekadi, qayg'uradi, yig'laydi, hayotning achchiq qismatiga bardosh beradi va alaloqibatda chidaydi. Shuning uchun ham badiiy talqinda ruhiy tahlil birlamchi va yetakchi tasvir prinsiplaridan biriga aylanib borayotgani yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli quvvatlaydi:

“Singlimni qo'li bilan bo'g'ib o'ldirmagan bo'lsa ham, axir u qo'lg'inang singur, Jabborni qanchalar urgan edi. Bu haqiqat-ku. Ehtimol, shuning zarbini bugungacha totayotgandirman. Bunisini yolg'iz Xudo biladi...”. Sabohat xola Nasibagulni kuzatib, uning ortidan qarab qolarkan, xayol qila boshladi, “Chetda turgan odam uchun hamisha qaror qilish oson kechgan. Maloning uvoli ursin uni. Nasibagul to'g'ri taxmin qildi. Bu odamlar biladi... O'g'il kimniki-yu, ko'kragiga qo'sh mushtlab to'y qilgan kimlar? Bu pushti sovuqning yigirma besh yildan oshib o'g'il ko'rgani chindan ham juda g'alati-ku. Odam yoshligida

do'ndirmagan ishini keksayganda go'r qilarmidi? O'z aybi o'zi bilandir-da, shu bois to'y qilib ham egilgan boshini ko'tarib ololmayotgandir... ezilma, Sabohat! Qaddingni tik tut! Nasibagul aytganday, dushmanlarning qarshisida og'zingga qon kelsa ham tuflama. Hech qachon tushkun holingni ko'rsatma. Elning ko'zi senda bo'lsa, ularga qo'shilib to'yga bor. Yemay-ichmay o'tirsang ham hech bo'lmasa ichingdagi zahringni dasturxoniga to'kib qaytarsan-ku...”. Shu tobda ichki bir sas Sabohat xolani tinmay to'yga borishga unday boshladi. Quloqlari ostida kichkina-kichkina odamchalar “bor-bor-bor!!!” deb chiyillab baqirayotgandek tuyulib ketdi”[2;231].

Romanda Sabohat xolaning obrazi juda teran tasvirlangan. Unda milliy qadriyatlar singdirilgan, o'zbekona ruhiyat, urf-odatlar barchasi jamuljamdir. Jabborni yoshligida azob bergan, mirob haqida ham Nasibagul bilan quyuq xotiralarni o'rtoqlashdi. Bu asarda Sabohat xola obrazi Jabbor nazdida tengsiz bir mehr-shafqat timsoli bo'lib ko'rinadi. S.Bo'riyev Onaning naqadar ulug'ligini, naqadar muqaddasligini shu darajada hayotiy misollar bilan “kashf” qiladiki, beixtiyor kitobxon undan bir lahza ayro tasavvur eta olmay qoladi. Romandagi umumiy pafos og'ushida oylab birga yashashda davom etadi.

E.Frommning talqini ham xuddi shunday. Bolalik inson psixikasini tartiblashtiradi. Unga yangi mazmun berishi bilan bir qatorda hissiy idrok ta'sirlaridan ham boxabar qiladi. “Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g'oyaviy-ruhiy izlanishlarini o'zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o'zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma'rifiy-muammoviy va badiiy qimmatini, eng avvalo, shunda ko'rinadi”[3;176]. Binobarin, har bir inson o'z olamining kashfiyotchisi sifatida muttasil izlanib yashaydi. Ayniqsa, bolalikning sohir orzulari uni kelajakka sari tayyorlaydi. “Tanholik tantanasi” trilogiyasida Ona obrazining ijtimoiy-ruhiy olami o'zbekona milliy g'ururni har bir murg'ak qalbida azaldan yashab kelayotgan “ong osti tuyg'ulari”mizni qayta uyg'otadi. Bu uyg'oqlik Jabborning o'z onasini ilk bergan tarbiya-saboqlari yanglig' boshqacha ahamiyat kasb etadi. Asarda ertakka xos, ya'ni folklor motivlar shu qadar ko'p qo'llanilganki, yozuvchi o'sha motivlarni keyinchalik “qayta tiriltiradi”. Bu tirilish zamirida juda ko'plab sirlar, bilimlar, tasavvurlar kitobxon ko'zi oldida qaytadan jonlanish beradi. Mana shu o'tkir falsafiy-psixologik idrok S.Bo'riyevning boshqa qahramonlariga ham ko'chib o'tganligida real mohiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, inson har qanday davrda milliy g'urur va iftixor tushunchasi atrofida yashaydi. Bu ulug'lik uning botinida go'zal bir qo'shiq (ohang)ni jilvalantiradi. Jabbor betob paytlari, yoki kayfiyati tushkun lahzalarda o'z onasidan bo'lak shirin va unutilmas xotiralar bilan yolg'iz qolgisi keladi:

“Shu sovuq havoda terlab yaxtay suv ichganmi, ikki kundan buyon Jabborning tomogʻi qizarib, yutinsa ogʻrib turuvdi. Bugun saharga kelib tamoman boʻgʻilib, boshi ogʻrib, isitmasi koʻtarilib ketdi. “Tashqarida yomgʻir” deb xotini koʻrpa-toʻshak qilib beruvdi, ishga ham bormadi. Allergiya qoʻzituvchi bu nam ob-havoda, boz ustiga koʻhna kasali qoʻzib turgan bir paytda, ish koʻngilga sigʻarmidi? Dard kelganda onangdan boshqasini eslamaysan. Jonga payvand faqat onadir, ONA! Gilgib yotarkan, ancha vaqtdan buyon qishloq bilan xabarlashmagani yodiga tushib, sogʻinch ustun kelganidan peshinga yaqin joyidan turdi. Oyoqlarda jon yoʻq, suyaklar gʻiyqillaydi. Ne bir xayol bilan bekat yonidagi telefon butkasi yonigacha borishiga toʻgʻri keldi. Simlar chiriganmi, kabellarga suv kirganmi, svet oʻchganmi... nima boʻlsa boʻlgan, telefon apparati “chiy-chiy” qiladi-yu toʻlqin tutmaydi”[4;267].

“Asarda psixologik tahlilning paydo boʻlishi uning shakli va tipologiyasi koʻpincha yozuvchi dunyoqarashiga, maqsadiga, isteʼdodi va shaxsiy fazilatlarining xarakteriga, asardagi vaziyatga qaramdir. Ayni chogʻda, aftidan, psixologik tahlilni onglilikka asoslangan estetik prinsip sifatida baholay turib, uning u yoki bu xususiyatlari soʻz rassomi tomonidan atay tanlanganligini nisbiylashtirish shart emas”[5;47]. Koʻrinadiki, rus olimi V.V.Kompaneyesning ushbu mulohazalari fikr-mulohazalarimizni yanada rivojlantirishga qaratilgani bilan tahsinga loyiqdir. Davrning maishiy-ijtimoiy muammolari, inson psixikasi va shart-sharoit nuqtayi nazaridan oʻzgarish xossalari ham muammoning ildiziga teran kirib borishga kalit vazifasini oʻtaydi.

Prof.H.Umurov yozishicha: “Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati – adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi xususiyatlardan biri darajasiga koʻtarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Jumladan, Aristotelning “Poetika” asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi – tashqi hodisalarning

tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir”. Agar ijodiy metodlar va ularning estetikasi nuqtayi nazaridan psixologizm problemasiga yondashsak, bu masalaning zamon va davr talabiga muvofiq yanada koʻproq, yanada qabariqroq boʻlib borganligining guvohi boʻlamiz”[6;12].

Haqiqatdan ham, inson ruhiy olamiga teran kirib borish, ularni toʻgʻri tahlil va talqin qilish, hozirgi oʻzbek qissachiligining dolzarb masalalaridan biriga aylanib borayotgani fikrimizni quvvatlaydi. Chunki XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ruhshunoslik bilan bogʻliq tadqiqotlar salmogʻi ortdi. Bu jarayon biz yashab turgan global dunyoning asosiy va yetakchi tamoyillarining biriga aylanib boʻlgani bilan ham belgilanadi. Masalan, oʻtgan asrning fojialari, shodliklari, kulfatlari har bir millat taqdirini yaxshi va yomon tomonga oʻzgartirib yuborgani, inson qaysi sohada boʻlmasin, oʻz yashash maydonidan nari chiqolmaydigan “biqiq” bir olamga tushib qolayotgani, tobora mutelik, qaramlik, yovuzlik shiddatli tus olayotgani badiiy shakl (roman)larga ham koʻchib oʻtmoqda. XX asrning 90-yillaridan keyin yaratilgan juda koʻplab asarlarda ruhiyat bilan bogʻliq masalalar yetakchi tasvir usuli sifatida koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. Mehnatdan qoʻllari qavargan ONAning, egat boshida ham bolasini, ham dehqonchiligini qilayotgan ayolning siymosi hech qachon koʻz oʻngimizdan nari ketmasligi ayon.

Umuman, yozuvchi S.Boʻriyev “Tanholik tantanasi” trilogiyasida oʻzbek ayollariga xos mardlik, mehnatsevarlik va bolaparvarlik, oilaparvarlik xislatlarini ichki bir sogʻinch, Jabbor monologlari, Zeboning eshlashlari bilan tasvirlaydi. Xotira usulidan unumli foydalangan yozuvchi oʻz onasiga boʻlgan ulkan muhabbat Amerikadek sehrli diyorda mukammallashib, milliy qadriyatlarga evrilganini ham alohida taʼkidlash zarur. Negaki, esselashgan talqin mezonlari Jabbor va Onasi bilan bogʻliq shirin xotiralarda qayta jonlantirilib, obrazlilikni, personajlarning umumiy jihatlarini anglashga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бўриев С. Танҳолик тантанаси. –Т.:Тафаккур, 2019. –Б.206-267.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. –М.,1988. –С.176.
3. Компанеев В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) – Л.: Наука, 1980. –С.47.
4. Умuroв Ҳ. Рисолалар.1–жилд. –Т.: ФАН, 2007. –Б.12.
5. Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.47.
6. Roʻzimuhammad B. Postmodernizmni nima deymiz? Yoxud taqlidmi taʼsirlanish // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. – Toshkent, 2004. – №8.
7. Sarimsoqov B. Absurd maʼnisizlikdir // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. – Toshkent, 2002. – №27.
8. Solijonov Y. Oʻzbek polifonik romanlari// Oʻzbek tili va adabiyoti. Ilmiy jurnal. – Toshkent, 2002. №5.

Gulnora QO'SHAQOVA,

Surxondaryo viloyati

Denov tumanidagi 38-maktabning
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri Sirojiddin Sayyid ijodida qo'llangan frazeologik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida xalq tiliga xos turg'un iboralar, maqol va matallar, xalqona frazemalarning poetik imkoniyatlari ochib beriladi. Frazeologik birliklarning obraz yaratish, milliy ruhni ifodalash, lirik qahramonning ichki kechinmalarini yoritish hamda she'rning ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, poetik til, badiiy mahorat, xalqona uslub, obrazlilik, Sirojiddin Sayyid, badiiy-estetik vazifa.*

Annotation: this article examines the artistic and aesthetic functions of phraseological units employed in the poetry of Sirojiddin Sayyid, one of the leading representatives of contemporary Uzbek literature. It explores the poetic potential of fixed expressions, proverbs, sayings, and folk phraseological units characteristic of the Uzbek language. Drawing on textual examples, the study highlights the role of phraseological units in creating artistic imagery, expressing the national spirit, revealing the inner emotions and experiences of the lyrical persona, and enhancing the emotional and aesthetic impact of poetic discourse.

Key words: *phraseological unit, poetic language, artistic mastery, folk style, imagery, Sirojiddin Sayyid, artistic and aesthetic function.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются художественно-эстетические особенности фразеологических единиц, используемых в творчестве одного из крупнейших представителей современной узбекской поэзии Сирожиддина Саййида. Раскрываются поэтические возможности устойчивых выражений, пословиц, поговорок и народных фразеологизмов, характерных для узбекского языка. На основе анализа поэтических текстов показана роль фразеологических единиц в создании художественных образов, выражении национального духа, раскрытии внутренних переживаний лирического героя, а также в усилении выразительности и эмоционального воздействия стихотворений.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, поэтический язык, художественное мастерство, народный стиль, образность, Сирожиддин Саййид, художественно-эстетическая функция.*

Kirish. Har bir xalqning milliy tafakkuri va ma'naviy dunyosi, avvalo, uning tilida mujassam bo'ladi. Tilning eng boy qatlamlaridan biri frazeologik birliklar bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odati va estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa she'riyatda frazeologizmlar nafaqat nutqning obrazlilikini kuchaytiradi, balki muallif uslubining o'ziga xosligini ham belgilaydi. Sirojiddin Sayyid zamonaviy o'zbek she'riyatida xalqona ruh, falsafiy mushohada va badiiy mahorati bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida frazeologik birliklar xalq og'zaki ijodi bilan zamonaviy poetik tafakkurni uyg'unlashtiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklar tilda tayyor holda qo'llanadigan, ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un birikmalardir. Ular nutqqa obrazlilik, emotsionallik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Shoirilar bunday birliklardan foydalanish orqali fikrni sodda va lo'nda ifodalash bilan birga, kitobxonga kuchli estetik ta'sir ko'rsatishga erishadilar.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida xalq maqollari, matallari va frazeologik birliklar yangi poetik ma'no kasb etadi. Shoir ularni ko'pincha o'zgarishsiz qo'llasa, ayrim hollarda individual uslub asosida qayta ishlab, yangi badiiy ifoda yaratadi. Sirojiddin Sayyid she'riyati o'zining xalqona ruhi, milliy tafakkurga yaqinligi va obrazli tili bilan zamonaviy o'zbek she'riyatida

alohida o'rin egallaydi. Shoir poetik tilining muhim xususiyatlaridan biri frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalanishidir. U xalq tilida shakllangan turg'un iboralarni she'riy matnga tabiiy singdirish, ularga yangi poetik mazmun yuklash hamda individual uslub asosida qayta talqin qilish orqali o'ziga xos badiiy-estetik ta'sir hosil qiladi.

Frazeologik birliklar shoir ijodida nafaqat tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, balki lirik qahramonning ruhiy holatini ochish, vatan, tarix, muhabbat va insoniy qadriyatlarni badiiy-falsafiy talqin etishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Shoirning "Ilinj" she'rida frazeologik birliklar Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'ularini ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan: *Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan*¹. Mazkur misrada "gardini o'pmoq" iborasi xalq tilida muqaddas zaminni cheksiz e'zozlash, unga sadoqat ko'rsatish ma'nosini anglatadi. Shoir ushbu frazeologizm orqali vataning moddiy boyliklariga emas, uning tuprog'i va tarixiy qadriyatlariga oshuftaligini ifodalaydi. Shu bilan birga, "bir nasim bo'lib kelmoq" birikmasi ham ramziy mazmun kasb etib, shoirning o'zini Vatan dardini tarannum etuvchi sokin va samimiy ovoz sifatida tasvirlaydi.

She'rning: *"Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan"*² misralarida "bir xas yetar" iborasi xalqona frazeologik mazmun kasb etgan. Shoir uchun muqaddas zaminning oddiy bir xasi ham butun dunyo boyligidan ustun qo'yiladi. Bu ibora milliy qadriyat va tarixiy xotirani ulug'lashning poetik ifodasidir.

Shoirning "Alamli dunyoda" she'rida insonning ruhiy iztiroblari xalqona frazeologizmlar orqali yuksak badiiy darajada ifodalanagan. Masalan: *"Dil ketib, valekin or qolgan kunlar"* misrada "dili ketmoq" va "ori qolmoq" frazeologik birliklari insonning muhabbat va ayriliq tufayli yuzaga kelgan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Shoir birgina misrada muhabbat, iztirob va insoniy g'ururni uyg'unlashtiradi. Shuningdek: *"Ko'nglimni beomon yanchib..."*³ misrasidagi "ko'nglini yanchmoq" frazeologizmi ruhiy azobning kuchli darajasini ko'rsatadi. Mazkur ibora

she'rning emotsional ta'sirini oshirib, lirik qahramon kechinmalarini kitobxonga yaqinlashtiradi.

Shoirning "Pahlavon Mahmud" she'rida esa tarixiy shaxs obrazi orqali xalq donoligi va hayot falsafasi yoritiladi: *"Gar ko'ylak tiksalar armonlaringdan, Egri but bo'lardi yupun dunyoning"*⁴. Bu misralarda "egri but bo'lmoq" frazeologizmi ko'chma ma'noda qo'llanib, Pahlavon Mahmudning ruhiy boyligi va insoniyatga qoldirgan ma'naviy merosini ifodalaydi. Shoir frazeologik birlikni poetik metafora bilan uyg'unlashtirib, uning estetik ta'sirini kuchaytiradi.

"Birodar!" radifli she'rda xalq hikmatiga xos frazeologizmlar yetakchi o'rin egallaydi. *"Dunyo topiladi, odam topilmaydi"* mazkur ibora xalq orasida keng tarqalgan hikmatli fikrni eslatadi. Shoir uni takror vositasida she'rning asosiy g'oyasiga aylantiradi. Natijada frazeologik mazmun umuminsoniy axloqiy xulosaga xizmat qiladi.

Shuningdek, *"Umid g'unchalari doim ochilmaydi"*, misrasida "g'uncha ochilmoq" iborasi umidlarning ushali shi ramzi sifatida qo'llangan bo'lsa, uning inkor shakli inson hayotidagi armon va yo'qotishlarni ifodalaydi. Shoirning ishqiy g'azallarida ham frazeologik birliklar muhim poetik vosita hisoblanadi. Masalan: *"Ko'ngil uyining otashi armonida kuydim"*, bu misrada "ko'ngil uyi" xalqona poetik obraz bo'lsa, "otashida kuymoq" iborasi oshiqning ichki iztirobini ifodalovchi frazeologik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Yoki *"Har yon sado berdi zori dilimga"*, misrasidagi "zori dil" birikmasi mumtoz she'riyat va xalq poetik tafakkuriga xos turg'un obrazlardan biri bo'lib, oshiq qalbidagi cheksiz armonni ifodalaydi. Shoirning: *"Ko'ksim ichra otashin dard bo'lsa bas"* misrasida "otashin dard" iborasi inson qalbini kuydiruvchi iztirobning kuchli poetik ifodasidir. Shuningdek: *"Dil kuyar, ey do'st"* misrasidagi "dil kuymoq" frazeologizmi xalq tilida chuqur qayg'urish va iztirob chekish ma'nosida qo'llanadi. Shoir ushbu iborani falsafiy mazmun bilan boyitadi.

"Diydor" she'rida esa frazeologik birliklar oilaviy qadriyatlarni ulug'lashga xizmat qiladi. *"Quyug' xotiralar piyolasidan esdaliklar ichib o'tirar onam"*, bu misrada "xotiralarni ichmoq" individual-muallif frazeologizmi bo'lib, xotiralarning inson qalbida qayta jonlanishini obrazli ifodalaydi. Shoirning "Vatan" she'ri frazeologik birliklarning badiiy-estetik imkoniyatlari eng yorqin namoyon bo'lgan asarlardan biridir.

1 Сирожиддин, Саййид. Дил фасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ.— 2007.— 240 б.

2 Сирожиддин, Саййид. Дил фасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2007.240-б.

3 Сирожиддин, Саййид. Дил фасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ.2007.240-б.

4 Сирожиддин, Саййид. Дил фасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ.2007.240-б.

Masalan: *“Dil porasi, ko‘z qorasi sen o‘zingdirsan”*. Bu misrada *“ko‘z qorasi”* hamda *“dil porasi”* xalq tilidagi eng faol frazeologik birliklar bo‘lib, nihoyatda aziz va muqaddas narsani anglatadi. Shoir ushbu iboralarni Vatan obraziga nisbatan qo‘llash orqali yurtini inson uchun eng bebaho qadriyat sifatida ulug‘laydi. Yana: *“Gard qo‘nmasin toki sening kipriklaringga”* misrasidagi *“gard qo‘nmasin”* iborasi xalq tilida *“zarar yetmasin”, “dog‘ tushmasin”* ma‘nolarini ifodalaydi. Shoir bu frazeologizm orqali vatanning osoyishtaligi va pokligini tilaydi.

Shuningdek: *“Ulug‘laring xokini men yuzlarga surtay”* misrasida *“xokini yuzga surtmoq”* frazeologik birligi buyuk ajdodlarga cheksiz hurmat va ehtirom ramzi sifatida qo‘llangan. Bu ibora she‘rning milliy va ma‘naviy ruhini yanada kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sirojiddin Sayyid frazeologik birliklardan faqat tayyor til materiali sifatida foydalanmaydi. U xalq tilidagi iboralarni poetik tafakkur asosida qayta ishlaydi, ularga yangi semantik qirralar yuklaydi hamda individual uslub yaratadi. Natijada frazeologik birliklar shoir she‘riyatida obrazlilikni kuchaytiruvchi, milliy ruhni ifodalovchi, falsafiy mazmunni chuqurlashtiruvchi va kitobxonga kuchli estetik ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim lingvopoetik vositaga aylanadi.

Shoir ijodida xalqona iboralar she‘rning tabiiyligini ta‘minlaydi. Jumladan: *“Otang bozor, onang bozor,*

Sen bozorda tug‘ilding”, mazkur misralarda *“otang bozor, onang bozor”* iborasi xalq orasida uchraydigan turg‘un ifodaga asoslangan bo‘lib, insonning moddiy manfaatni ma‘naviyatdan ustun qo‘yishini tanqid qiladi. Shoir ushbu frazeologizm orqali jamiyatdagi ma‘naviy tanazzulni satirik ruhda ochib beradi. Yana bir misolda: *“Eshakman deb g‘am yema, uyat bo‘lar”* xalq tilidagi kinoyaviy mazmunni saqlagan holda qo‘llanib, ijtimoiy tengsizlik va insonning jamiyatdagi mavqeyiga nisbatan tanqidiy munosabatni ifodalaydi. Shoir maqol va iboralarni she‘r mazmuniga singdirish orqali fikrning xalqona ohangini kuchaytiradi.

Xulosa. Sirojiddin Sayyid she‘riyati xalq tilining boy frazeologik qatlamiga tayangan holda yaratilgan yuksak badiiy hodisadir. Shoir xalq maqollari, matallari va frazeologik birliklaridan unumli foydalanib, ularni yangi poetik mazmun bilan boyitadi. Natijada frazeologik birliklar she‘rning obrazlilik, milliy ruhi, falsafiy teranligi hamda estetik ta‘sirchanligini ta‘minlovchi muhim vositaga aylanadi.

Shoirning individual uslubi aynan xalqona iboralarni zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg‘unlashtira olganida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Sirojiddin Sayyid she‘riyati o‘zbek badiiy tilining frazeologik imkoniyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сирожиддин, Саййид. Дилфасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ. 2007. 240-б.
2. Rahmatullayev Sh. Hoirgi adabiy o‘zbek tili. —Т.: Universitet. 2006. 476-b.
3. Йўлдошев Б. Бадий матн ва лингвопоетик таҳлил асослари. —Т.: Фан, 2007. 31- б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. —Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
5. Uz.m. wiktory.org.

Lola TO'XTAYEVA,
 Buxoro shahar 12-IDUM
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'ZBEK SHE'RIYATIDA TARIXIY VOQELIKNING BADIY TALQINI (ABDULLA ORIPOV VA ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATI MISOLIDA)

Annotatsiya: tarix – bugun va o'tmish, bugun va kelajak orasidagi ko'prik. Tarix – ming yillar qaridan kelib turadigan sado, uzoq va yaqin o'tmishimizning ko'zgusi. O'zbek she'riyatida tarixiy mavzuning badiiy talqini insoniyat paydo bo'lganidan, bugungi hayotimizgacha bo'lgan uzoq, zalvorli, mashaqqatli, shonli, ayanchli kunlarni akslantiradi, har bir davrda tarixdan saboq olib xulosalar chiqarishga undaydi. Ayniqsa, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov she'riyatida tarix shunchaki voqealar tasvirida emas, balki tarixiy shaxslar, tarixiy xronotop, tarixiy voqealar haqida yaxlit va haqqoniy xulosalar beradi, o'quvchining ko'z oldida o'sha davr va kishilarining turmush tarzini gavdalantiradi. Ushbu maqolada tarix va badiiy tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda uning o'zbek she'riyatidagi badiiy talqini tahlil qilinadi. Tarixiy tafakkurning ilmiy va estetik mohiyati, tarixiy haqiqat hamda badiiy haqiqat tushunchalarining o'zaro munosabati yoritiladi

Kalit so'zlar: *tarixiy tafakkur, badiiy tafakkur, tarixiy mavzu, poetik talqin, tarixiy xotira, tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, badiiy haqiqat, milliy o'zlik, intertekstuallik, poetika, o'zbek she'riyati.*

Аннотация: история – это мост между прошлым и настоящим, настоящим и будущим. История – это голос, доносящийся из глубины тысячелетий, зеркало далекого и близкого прошлого нашего народа. Художественная интерпретация исторической темы в узбекской поэзии отражает долгий, сложный, славный и вместе с тем трагический путь человечества – от его возникновения до наших дней, побуждая каждое поколение извлекать уроки из истории и делать соответствующие выводы. Особенно в поэзии Абдуллы Арипова и Эркина Вахидова история предстает не только в изображении событий, но и в целостном и достоверном осмыслении исторических личностей, исторического хронотопа и исторических событий, позволяя читателю зримо представить дух эпохи и образ жизни людей прошлого. В данной статье анализируется взаимосвязь истории и художественного мышления, а также особенности художественной интерпретации исторической темы в узбекской поэзии. Освещаются научная и эстетическая сущность исторического мышления, а также взаимосвязь понятий исторической и художественной истины.

Ключевые слова: *историческое мышление, художественное мышление, историческая тема, поэтическая интерпретация, историческая память, исторический образ, историческая истина, художественная истина, национальное самосознание, интертекстуальность, поэтика, узбекская поэзия.*

Annotation: history is a bridge connecting the past with the present and the present with the future. It is a voice echoing through millennia and a mirror reflecting both the distant and recent past of our nation. The artistic interpretation of historical themes in Uzbek poetry depicts the long, arduous, glorious, and at times tragic journey of humanity from its origins to the present day, encouraging every generation to learn from history and draw meaningful conclusions. Particularly in the poetry of Abdulla Oripov and Erkin Vohidov, history is presented not merely through the depiction of events, but through a comprehensive and authentic interpretation of historical figures, historical chronotopes, and historical events, enabling readers to vividly envision the spirit of the age and the way of life of its people. This article examines the intrinsic relationship between history and artistic thinking, as well as the artistic interpretation of historical themes in Uzbek poetry. It explores the scholarly and aesthetic nature of historical thinking and elucidates the relationship between the concepts of historical truth and artistic truth

Key words: *historical thinking, artistic thinking, historical theme, poetic interpretation, historical memory, historical image, historical truth, artistic truth, national identity, intertextuality, poetics, Uzbek poetry.*

Tarix va badiiy tafakkur insoniyatning ma'naviy rivojida muhim o'rin egallovchi, o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida o'tmishni anglashga doimo ehtiyoj sezgan va bu ehtiyoj tarixiy tafakkurning shakllanishiga asos bo'lgan. Tarix nafaqat voqealar ketma-ketligini ifodalovchi soha, balki jamiyatning o'zligini anglash mexanizmi ham hisoblanadi. Shu jihatdan, tarixiy bilim insonning ijtimoiy xotirasini shakllantiradi va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Badiiy tafakkur esa ana shu tarixiy voqelikni inson ruhiyati orqali qayta idrok etish imkonini beruvchi estetik hodisadir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, tarixning asosiy vazifasi o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni o'rganish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashdan iborat. Biroq tarix faqat faktlarni jamlash bilan cheklanmaydi, balki ularni talqin qilish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu bois tarixiy bilim har bir davrda yangicha mazmun kasb etadi. Adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, tarixiy tafakkur inson ongida ikki xil yo'sinda: ilmiy va badiiy shaklda namoyon bo'ladi. Ilmiy shakl mantiqiy tahlilga asoslangan bo'lsa, badiiy shakl obrazli idrok orqali amalga oshadi. Badiiy tafakkur tushunchasi adabiyot nazariyasida voqelikni estetik o'zlashtirish usuli sifatida talqin qilinadi. Bu borada ko'plab olimlar badiiy tafakkurning asosiy belgisi sifatida obrazlilikni ko'rsatadilar. Ya'ni, badiiy tafakkur voqelikni to'g'ridan to'g'ri emas, balki obrazlar tizimi orqali ifodalaydi. Shu bilan birga, unda hissiylik va subyektivlik kuchli bo'ladi. Tarix va badiiy tafakkur o'rtasidagi munosabatni izohlashda "tarixiy haqiqat" va "badiiy haqiqat" tushunchalari muhim ahamiyatga ega.

O'zbek she'riyatida tarixiy mavzu badiiy tafakkurning muhim komponentlaridan biri bo'lib, u milliy ong, tarixiy xotira va estetik idealning uzviy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Tarixiylik poetik ifodada oddiy faktlar yig'indisi sifatida emas, balki shoirning subyektiv qarashi, davr ruhiyati va badiiy umumlashmalari orqali qayta yaratiladi.

Klassik davr she'riyatida tarixiy mavzu ko'proq didaktik va axloqiy yo'nalishda talqin qilingan. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida tarixiy shaxslar ideal inson modeli sifatida tasvirlanadi. "Xamsa" dostonlarida tarixiy voqelik badiiy qayta ishlanib, unda adolat, sadoqat va komillik g'oyalari ilgari suriladi. Masalan, Navoiy tarixiy shaxslarni tasvirlar ekan, ularni real tarixiy muhitdan ko'ra ko'proq ramziy-

ma'naviy darajada ko'rsatadi. Bu esa tarixiylikni ideallashtirish orqali poetik umumlashmaga olib keladi. Natijada tarixiy obrazlar zamonlar osha ahamiyatini yo'qotmaydigan universal timsollarga aylanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyati esa tarixiy mavzuning o'ziga xos ko'rinishini namoyon etadi. Uning ruboiy va g'azallarida tarixiy voqealar shaxsiy kechinmalar bilan uyg'unlashadi. Masalan, Boburning quyidagi misralarida tarixiy taqdir va shaxsiy iztirob uyg'unlashgan:

"Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir"[5]

Mazkur misralarda nafaqat shaxsiy tajriba, balki hukmdor sifatida boshdan kechirgan tarixiy voqealarning falsafiy xulosasidir. Demak, Bobur she'riyatida tarixiylik ichki psixologik qatlam orqali beriladi.

XX asr she'riyatida tarixiy mavzu yangicha talqin etila boshlandi. XX asrga kelib, bu mavzu yangi ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etdi. Bu davr shoirlari tarixni milliy o'zlikni anglash vositasi sifatida talqin qildilar. Jadidlar adabiyotida ham tarix mavzusi, undan xulosalar chiqarish "moziyga qarab ish ko'rish" kabi jihatlariga e'tibor qaratildi. Shundan kelib chiqib, istiqbol davri badiiy adabiyoti tarixiy mavzu talqinini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O'tmishni qayta gavdalandirish;
2. Unutilayotgan milliy urf-odat va qadriyatlarni qayta tiklash;
3. Buyuk ajdodlarimizning tarixiy siymosini qayta yaratish.

Tarixiy shaxslar siymosini badiiy talqin qilish, (Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Bibixonim, Eson Davlatbegim...) ulardan ibrat olish va yangi kelajakka baland ruh, uyg'oq ruh bilan boqish ehtiyojidan kelib chiqdi.

XX asr 60-70 yillari shoirlari orasida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Jamol Kamol, Rauf Parfi, Matnazar Abdulhakim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar ijodida tarixiy xotira, o'tmishning shonli sahifalari badiiy bo'yoqlarda akslandi. 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilinishi orqali esa adabiyotimiz yanada yuksaldi. 10 ga yaqin dramatik asarlar, doston, she'rlar yaratildi. Ular orasida

Pirimqul Qodirovning *“Yulduzli tunlar”*, *“Avlodlar dovoni”*, *“Amir Temur siymosi”*, Xurshid Davronning Amir Temur va temuriylar davriga bag‘ishlangan eng mashhur asari *“Bibixonim qissasi yoxud tugamagan doston”*, Muhammad Ali *“Amir Temur solnomasi”*, Abduqayum Yo‘ldoshev *“Amir Temur va Yetti iqlim”* asarlari bir necha marotaba nashrdan chiqib o‘z o‘quvchilari qalbidan joy egalladi. Ular orasida yetakchilik qiladigan Abdulla Oripovning *“Sohibqiron”* dramasida Amir Temur obrazi orqali kuchli davlat, adolat va milliy g‘urur g‘oyalari ilgari suriladi. Abdulla Oripov tarixiy shaxsni faqat o‘tmish qahramoni sifatida emas, balki zamonaviy ideal sifatida talqin qiladi. Bu esa tarixiy obrazning aktualizatsiyasini ta‘minlaydi. Abdulla Oripov she‘riyatida tarixiy mavzu ko‘pincha milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglash bilan bog‘lanadi. Shoirning *“Bahor”* she‘riga e‘tibor qarataylik. Bir qaraganda faqat fasl madhi aks etsa kerakdek taassurot uyg‘otsa-da, shoir tarixiy haqiqatlardan so‘zlaydi. Maqsud Shayxzoda va G‘afur G‘ulom vafoti haqida tarixiy shaxslar siymosidan foydalanib ta‘riflashga intiladi.

... Evoh, unda na she‘r, na may na safo.

Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda

Joy olmish o‘zga bir suyukli daho.

Beqiyos edi u she‘r lochini!

Xayoli bamisli Ko‘ragoniydek.

Gar tarix evrilsa, Shuxrat tojini

Unga kiygizardi Sulton Ulug‘bek.

Balxda horib qaytgan Alisher misol

Endi to‘lg‘izgandi cho‘kkan dovotin. [2;123]

Mazkur parchaning asosiy badiiy xususiyati tarixiylik va zamonaviylikning uyg‘unlashuvidir. Tarixiy shaxslar bu yerda faqat o‘tmish vakillari emas, balki ichki ruhiy o‘lchov sifatida xizmat qiladi. Shoir tarixni passiv tasvirlamaydi, balki uni faol poetik vositaga aylantiradi. Bu esa tarixiy mavzuning zamonaviy interpretatsiyasini yuzaga keltiradi. Bu yerda

Ulug‘bek ilm-fan, adolat va buyuklik ramzi sifatida keltiriladi. *“Shuhrat toji”* metaforasi orqali shoir ideal shaxsni tarixiy buyuklik bilan tenglashtiradi. Bu poetik usul tarixiy idealizatsiya, zamonaviy qahramonning yetishmovchiligini yanada keskinroq ko‘rsatadi.

“Balxda horib qaytgan Alisher misol

Endi to‘lg‘izgandi cho‘kkan dovotin.” [2;123]

Ushbu misralarda Alisher Navoiyga ishora qilinadi. *“Balxda horib qaytgan”* iborasi tarixiy-biografik fakt asosida qurilgan bo‘lib, shoirning hayotidagi murakkab davrlarni eslatadi. Shu orqali lirik qahramon o‘z holatini buyuk shoir taqdiri bilan qiyoslaydi. Bu yerda **intertekstual aloqa** yuzaga keladi, ya‘ni, tarixiy shaxsning hayoti orqali zamonaviy ruhiy kechinma ifodalanadi. Natijada she‘r ko‘p qatlamli ma‘no kasb etadi. **“She‘r lochini”** – yuksak iste‘dod, erkin va baland parvoz qiluvchi ijod timsoli, **“Cho‘kkan dovot”** – ijodning to‘xtashi, ilhomning qurishi, **“Shuhrat toji”** – e‘tirof va buyuklik belgisi sifatida talqin qilish mumkin. Mazkur she‘r parchasida tarixiy obrazlar poetik vosita sifatida qo‘llanib, zamonaviy ijodkorning ruhiy holati, ilhom inqirozi va idealga intilishi ifodalangan. Ulug‘bek va Alisher Navoiy obrazlari orqali tarixiylik ramziy-estetik mezonga aylantirilgan. Natijada she‘rda tarixiy mavzu nafaqat o‘tmish tasviri, balki bugungi kunning ma‘naviy tahliliga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she‘riyatida tarixiy obrazlar milliy g‘urur, vatanparvarlik, ozodlik va insoniy komillik g‘oyalari bilan uzviy bog‘langan. Abdulla Oripov tarixiy shaxslarni zamonaviy ma‘naviy ideal sifatida talqin etib, tarixni bugungi kun ruhiyati bilan uyg‘unlashtirsa, Erkin Vohidov tarixiy voqelikni falsafiy mushohada va inson taqdiri bilan bog‘liq holda badiiy talqin qiladi. Har ikki shoir ijodida tarixiy xotira estetik tafakkur vositasida yangicha mazmun kasb etib, o‘quvchini o‘tmish saboqlaridan xulosa chiqarishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Rahimjonov. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. – T.: Fan, 2007.
2. Абдулла Орипов. Тўрт жилдлик. (1-жилд). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. – Б.10
3. Boburnoma. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008. 161-b.
4. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent, 1997. 148-b.
5. <https://ok.ru/abdullaori/topic/62173455488306>

Javohir IBRAGIMOV,

O'zDJTU Jahon adabiyoti kafedrası stajor o'qituvchisi

Email: jibrahimov@77gmail.com

ADABIYOTDA PANDNOMA JANRI

(Xusayn Xorazmiyning “Nasihatnomayi Shohiy” asari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada XV asr turkiy adabiyotining pandnoma yo'nalishidagi muhim namunalardan biri bo'lgan Husayn Xorazmiyning “Nasihatnomayi Shohiy” asari janri, kompozitsion va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatidan tahlil qilinadi. Asarning pandnoma janridagi o'rni, muallifning axloqiy-didaktik qarashlarini ifodalash usullari, hikoyatlarning badiiy-didaktik vazifasi hamda nasr, nazm, diniy manbalar uyg'unligi yoritiladi. Shuningdek, pand, hikoyat va she'riy-diniy dalilning o'zaro uyg'unligi asarning asosiy poetik-didaktik xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Husayn Xorazmiy, “Nasihatnomayi Shohiy”, pandnoma, didaktik adabiyot, hikoyat, komil inson, axloq, rostgo'ylik, do'stlik, ilm, nasr va nazm.

Аннотация: в данной статье анализируются жанровые, композиционные и идейно-художественные особенности произведения Хусайна Хорезми “Насихатномаи Шохий”, являющегося одним из значимых образцов наставительной литературы (панднома) тюркской литературы XV века. Освещаются место произведения в жанре панднома, способы выражения автором нравственно-дидактических взглядов, художественно-дидактическая функция повествований, а также взаимосвязь прозы, поэзии и религиозных источников. Кроме того, взаимное сочетание наставления, повествования и поэтико-религиозного аргумента рассматривается как одна из основных поэтико-дидактических особенностей произведения.

Ключевые слова: Хусайн Хорезми, “Насихатномаи Шохи”, панднома, дидактическая литература, повествование, совершенный человек, нравственность, правдивость, дружба, знание, проза и поэзия.

Annotation: this article analyzes the generic, compositional, and ideological-aesthetic features of Husayn Khwarazmi's “Nasihatnomayi Shohiy,” one of the significant examples of the didactic (pandnama) tradition in fifteenth-century Turkic literature. The study examines the work's place within the pandnama genre, the ways in which the author expresses his ethical and didactic views, the artistic and didactic functions of the narratives, and the integration of prose, poetry, and religious sources. Furthermore, the interplay of admonition, narrative, and poetic-religious evidence is presented as one of the principal poetic and didactic features of the work.

Key words: Husayn Khwarazmi, “Nasihatnomayi Shohiy,” pandnama, didactic literature, narrative, perfect human, morality, truthfulness, friendship, knowledge, prose and poetry.

Har bir davr adabiyoti o'z zamonasining inson va jamiyat haqidagi qarashlarini o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda didaktik adabiyot insonning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan badiiy tafakkur shakllaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Sharq adabiy an'anasida pand-nasihati, hikmat, axloqiy qarash va hayotiy tajribani badiiy ifodalash qadimdan muhim o'rin egallab kelgan. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaqi, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlar merosida inson kamoloti, ezgulik, ilm, odob, halollik va ma'naviy tarbiya masalalarining keng yoritilishi ana shu an'ananing uzviyligini ko'rsatadi. Pandnoma ana shu didaktik yo'nalishning muhim janrlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi insonni ma'naviy kamolotga yetaklash, ezgu fazilatlarni targ'ib qilish va hayotiy tajriba asosida axloqiy xulosalar chiqarishga undashdan iborat. Bunday asarlarda pand-nasihati bevosita bayon qilinish bilan birga, hikoyat, rivoyat, maqol, hikmatli so'z, oyat, hadis va she'riy parchalar vositasida badiylashtiriladi.

Husayn Xorazmiyning “Nasihatnomayi Shohiy” asari ana shu an'ananing o'ziga xos namunalardan biridir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, asar Parij Milliy kutubxonasida

saqlanayotgan yagona qo'lyozma asosida nashrga tayyorlangan bo'lib, XV asr turkiy adabiyotining muhim manbalaridan biri sifatida baholanadi. Asar muqaddima, o'n ikki bob va xotimadan tashkil topgan. Boblarda ma'rifat, ilm, ezgu insonlar bilan muloqot, tavoze, yaxshi axloq, ulug' himmat, vafo va rostgo'ylik, xizmat va shukr, podshoh farmoniga itoat, taqvo, qazo va qadar hamda insonning o'z holatini mushohada qilishi kabi masalalar izchil yoritiladi.

“Nasihatnomayi Shohiy”ning janriy tabiatini belgilovchi asosiy xususiyat – pand va nasihatning asar kompozitsiyasidagi ustuvorligidir. Biroq muallif pandni faqat nazariy fikr sifatida bayon qilish bilan cheklanmaydi. Har bir axloqiy qarashni hayotiy vaziyat, hikoyat yoki obraz orqali konkretlashtirishga intiladi. Shu jihatdan asar kompozitsiyasida nazariy nasihat va badiiy hikoyat o'zaro chambarchas bog'langan. Muallif boblar mavzusini aniq belgilab, ularni turli hikoyatlar, rivoyatlar, oyatlar, hadislar va she'riy parchalar bilan mustahkamlaydi. Demak, asarning ichki qurilishini shartli ravishda pand – hikoyat – dalil – xulosa tizimi asosida ko'rish mumkin. Bunday qurilish pandnomaga xos didaktik maqsadni badiiy ifoda imkoniyatlari bilan birlashtiradi. Hikoyat bu yerda shunchaki voqeani qiziqarli qilish vositasi emas.

U abstrakt axloqiy tushunchani hayotiy voqea shakliga keltiradi. Masalan, va'daga vafo qilish haqidagi hikoyatda savdogarning ahdiga sodiq qolmagani oqibatida yana kasal bo'lishi, va'dasini bajargach esa qulini ozod qilib, shifo topishi bayon qilinadi. Shu tariqa vafo, halollik va ahdga sodiqlik kabi tushunchalar quruq nasihat emas, balki sabab va oqibat asosidagi badiiy voqea orqali ochiladi. Shu nuqtayi nazardan "Nasihatnomayi Shohiy"dagi hikoyatlarni asarning badiiy-didaktik mexanizmi sifatida baholash mumkin. Muallifning maqsadi o'quvchiga tayyor hukmni berish emas, balki voqea orqali uni fikrlashga, qahramon xatti-harakatini baholashga va undan axloqiy xulosa chiqarishga undashdir.

Pandnoma janrida nasihatning ta'sirchanligi ko'p jihatdan uning qanday ifodalanishiga bog'liq. "Nasihatnomayi Shohiy"da bu vazifa, avvalo, hikoyatlar zimmasiga yuklanadi. Muallif muayyan axloqiy qoidani bevosita bayon etishdan oldin yoki keyin uni voqea vositasida konkretlashtiradi. Hikoyatlarning birinchi xususiyati – mavhum axloqiy tushunchani obrazga aylantirish. "Do'stlik" hikoyatida haqiqiy do'stlikning mazmuni bevosita "sodiq do'st shunday bo'ladi" tarzida emas, balki sinov vaziyati orqali ochiladi.

Ikkinchi xususiyati – axloqiy qarashni sabab va oqibat munosabati orqali ko'rsatish. Qahramonning ma'lum xatti-harakati natijasida yuzaga kelgan holat o'quvchiga muayyan xulqning foydali yoki zararli oqibatini ko'rsatadi.

"Nasihatnomayi Shohiy"dagi "Qozi" hikoyati ilm va haqiqat o'rtasidagi munosabatni ochib beruvchi muhim badiiy parchalardan biridir. Hikoyatda qozi oldiga ikki da'vogar keladi. Ularning ikkalasi ham ilmiy kishilar sifatida tasvirlanadi, biroq ularning manfaatdorligi haqiqatni ko'rishga xalaqit beradi. Shu vaziyatda darvesh qoziga muhim bir fikrni anglatadi: insonning o'zi manfaatdan xoli bo'lsa, haqiqatni anglash imkoniyati kuchayadi. Hikoyatning asosiy konfliktini bilim va manfaat o'rtasida yuzaga keladi. Tashqi jihatdan ilmiy bo'lish insonni avtomatik ravishda haqiqatparast qilmaydi. Agar bilim shaxsiy manfaat bilan qorishib ketsa, u haqiqatni anglash vositasidan manfaatni himoya qilish vositasiga aylanishi mumkin. Shu ma'noda hikoyatning asosiy g'oyasi – haqiqiy ilmning mezonini bilim miqdori emas, balki undan foydalanishdagi xolislikdir. Muallif uchun olimning qadrini faqat uning bilimi emas, balki haqiqatga munosabati belgilaydi. Bu fikr asarning keyingi qismlarida dunyo va mansab uchun dinni vosita qiladigan soxta olimlarni tanqid qilish bilan yanada kuchayadi. Ular diniy iboralar, hadislar va chiroyli so'zlardan foydalanadilar, ammo asl maqsadlari mol, obro' va mansabga erishish bo'ladi.

Demak, "Qozi" hikoyati doirasida ilm ikki xil shaklda talqin qilinadi: biri – haqiqatga yetaklovchi xolis ilm; ikkinchisi – manfaatga xizmat qiluvchi soxta ilm. Shu qarama-qarshilik muallifning ilm va axloqni bir-biridan ajratmasligini ko'rsatadi.

Asardagi "Do'stlik" hikoyati insonlar o'rtasidagi munosabatlarda chin do'stlik mezonlarini ochib beradi. Xoja farzandiga katta miqdorda mablag' berib, mol-dunyoning vaqtinchalik, haqiqiy do'stlik esa inson uchun boqiyroq qadriyat ekanini uqtiradi. Farzand qisqa vaqt ichida o'n nafar kishini o'ziga do'st deb biladi. Biroq do'stlikning haqiqiylikni tekshirish maqsadida qiyin vaziyat yuzaga keltirilganda, ularning aksariyati turli bahonalar bilan yordam berishdan bosh tortadi. Xojaning hayotidagi ikki do'stdan biri ham sinovda chekinadi, ikkinchisi esa do'stining mushkulini o'z mushkulidek qabul qiladi. Hikoyatdagi asosiy badiiy mezon – sinov. Muallif do'stlikni oddiy suhbat yoki manfaat almashinuvi bilan emas, balki inson og'ir vaziyatga tushgan paytdagi munosabat bilan o'lchaydi. Shu sababli hikoyatda do'stlikning uchta muhim belgisi ajralib chiqadi: sadoqat, fidoyilik va ishonch. Haqiqiy do'st nafaqat yaxshi kunlarda suhbatdosh, balki qiyin vaziyatda ham yonida turuvchi kishidir. Hikoyatning keyingi qismida yaxshi do'stning boshqa mezonlari ham belgilanadi: inson solih, yaxshi xulqli va rostgo'y kishilar bilan do'stlashishi, fosiq va buzg'unchi kishilardan uzoq yurishi kerak. Chunki inson ko'p suhbatlashgan kishilarining xulq-atvoridan ta'sirlanadi. Demak, hikoyatda do'stlik faqat ikki inson o'rtasidagi munosabat emas, balki insonning axloqiy shakllanishiga ta'sir qiluvchi muhit sifatida ham talqin etiladi. Yuqoridagi ikki hikoyatni alohida voqealar sifatida emas, o'zaro bog'liq axloqiy qarashlar tizimi sifatida ko'rish mumkin. "Qozi" hikoyatida xolislik va haqiqatga sodiqlik, "Do'stlik" hikoyatida esa sadoqat, vafo va rostgo'ylik ustuvor fazilat sifatida namoyon bo'ladi. "Nasihatnomayi Shohiy"dagi hikoyatlar asarning axloqiy g'oyalarini konkretlashtiruvchi muhim kompozitsion-poetik vosita ekanini ko'rsatadi. Hikoyatlarda ilm, adolat, do'stlik, rostgo'ylik, taqvo va nafs tarbiyasi kabi tushunchalar hayotiy voqea va obrazlar orqali badiiy-didaktik talqin etilgan. Pand, hikoyat, she'riy parcha va diniy dalillarning uzviy uyg'unligi asarning yaxlit didaktik-poetik modelini shakllantirgan. Turli hikoyatlarda ifodalangan axloqiy qarashlarning semantik va g'oyaviy mushtarakligi esa muallifning komil inson konsepsiyasini tashkil etadi. Shu jihatdan "Nasihatnomayi Shohiy" Sharq pandnoma an'anasi doirasida axloqiy-ma'rifiy qarashlarni yaxlit tizimga birlashtirgan badiiy-didaktik asar sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalliyeva G.I. "Насихатномаи Шоҳий" қўлёзмаси асосида. – Toshkent: EFFKT-D, 2023. 260-b.
2. Ўзбек адабий танқиди: [антология] / тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б. Каримов; таҳрир ҳайъати У. Норматов [ва бошқ.]. – Т.: «TURON-IQBOL», 2011, 544 б. (XX аср адабиётшунослиги).
3. Xalliyeva G.I., To'rayeva B.B., Ko'chimov U.K., Sultonsaidova S., Sabirova Z.Z., Rasulmuxamedova D.Z., Qo'chqorova M.X. Jahon adabiyoti: darslik/ – Toshkent, 2025. 552-b.

Perizat JAUMITBAEVA,

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
perizatjaumitbaeva@gmail.com

QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINING QIYOSIY JANRIY TIPOLOGIYASI

Annotatsiya: maqolada qoraqalpoq va turkman folklorshunosligida xalq ertaklarini janriy tasniflash tamoyillari xalqaro ertak syujetlarining xalqaro tasnifi bilan qiyosiy o'rganiladi. Olimlar Q.Ayimbetov, Q.Maqsatovning qoraqalpoq ertaklarini ajoyib hodisalar haqidagi, hayvon obrazlariga asoslangan va maishiy ertaklarga ajratishi, turkman ertaklarining uchlik tasnifi hamda olim A.Baymiradovning syujet tiplarini belgilash tajribasi tahlil qilindi. Milliy janr atamasi bilan xalqaro syujet raqami bir xil ilmiy vazifani bajarmasligi asoslandi.

Kalit so'zlar: ertak tasnifi, janr, sehrli ertak, maishiy ertak, hayvonlar haqidagi ertak, qoraqalpoq folklori, turkman folklori, ingliz ertaklari.

Аннотация: в статье в сопоставительном аспекте рассматриваются принципы жанровой классификации народных сказок в каракалпакской и туркменской фольклористике и международная классификация сказочных сюжетов. Анализируется классификация каракалпакских сказок, предложенная учёными К. Айымбетовым и К. Максетовым, согласно которой сказки подразделяются на сказки о чудесных событиях, сказки, основанные на образах животных, и бытовые сказки. Рассматриваются также трёхчастная классификация туркменских сказок и опыт учёного А. Баймирадова в определении сюжетных типов. Обосновывается положение о том, что национальный жанровый термин и международный номер сказочного сюжета не выполняют одну и ту же научную функцию.

Ключевые слова: классификация сказок, жанр, волшебная сказка, бытовая сказка, сказка о животных, каракалпакский фольклор, туркменский фольклор, английские сказки.

Annotation: the article comparatively examines the principles of genre classification of folk tales in Karakalpak and Turkmen folklore studies in relation to the international classification of folktale types. The study analyzes the classification of Karakalpak folk tales proposed by scholars K. Ayimbetov and K. Maksetov, who divided them into tales about marvelous events, animal tales, and household tales. It also examines the three-part classification of Turkmen folk tales and the experience of scholar A. Baymiradov in identifying tale types. The study substantiates the view that a national genre term and an international tale-type number do not perform the same scholarly function.

Key words: classification of fairy tales, genre, fairy tale, everyday fairy tale, animal tale, Karakalpak folklore, Turkmen folklore, English fairy tales.

Kirish. Xalq ertaklarini tasniflash folklorshunoslikdagi murakkab masalalardan biridir. Ertaklarning bir qismida sehrli voqealar, ikkinchisida hayvon obrazlari, uchinchisida kundalik turmush va hajv ustuvor bo'ladi. Ayrim matnlarda esa bu belgilar bir-biriga qo'shilib ketadi. Shu bois ertakni muayyan guruhga kiritishda birgina personaj yoki motiv emas, asarning umumiy syujet yo'nalishi va badiiy vazifasi hisobga olinishi lozim deb hisoblaymiz.

Maqolada qoraqalpoq va turkman milliy tasniflarining nazariy asoslari o'rganilib, ularning ingliz ertaklari hamda ertak syujetlarining xalqaro tasnifi bilan munosabati aniqlanadi.

Natijalar va munozara. Qoraqalpoq olimi Q.Ayimbetov qoraqalpoq folklorini xalqning asrlar davomida to'plangan donishmandligi, hayotiy tajribasi va badiiy tafakkurini saqlovchi ma'naviy meros sifatida baholaydi. Uning "Xalq danaligi" asarida folklor namunalari xalqning turmushi, urf-odati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. [1, 169]. Olim Q.Ayimbetov yondashuvining ertak nazariyasi uchun ahamiyati shundaki, u folklor matnini xalq hayotidan ajratilgan estetik shakl emas, balki tarixiy-madaniy tajribaning obrazli ifodasi sifatida tushunishga asos yaratadi.

Bunday yondashuvga ko'ra, ertakdagi personaj va voqealarning shartliligi uning milliy hayot bilan bog'liqligini inkor etmaydi. Aksincha, shartli syujet orqali xalqning: mehnat va tirikchilik haqidagi tasavvuri; oilaviy munosabatlari; hokimiyatga munosabati; adolat va baxt haqidagi qarashlari; yaxshilik va yovuzlik mezonlari umimlashtiriladi. Olim Q.Ayimbetov qarashlari asosida ertakning etnomadaniy vazifasini xalq xotirasini saqlash va avlodlarga yetkazish mexanizmi sifatida belgilash mumkin.

Qoraqalpoq olimi Q.Maqsatov qoraqalpoq xalq ertaklarini shartli ravishda uch guruhga ajratadi: a) ajoyib hodisalar haqidagi ertaklar; b) hayvon obrazlari orqali inson xulqini tasvirllovchi ertaklar; v) maishiy-turmush ertaklari [2, 169].

Olim "qiyaliy", "fantastik" va "sehrli" atamalariga tanqidiy munosabat bildiradi. Uning fikricha, xayol barcha ertak turlariga xos. Shuning uchun "qiyaliy ertak" atamasi muayyan janriy turni boshqalaridan aniq ajrata olmaydi. "Sehrli" so'zi esa qoraqalpoq tilida ko'zbo'yamachilik va duoxonlikka yaqin tor ma'noda tushunilishi mumkin. Olim Q.Maqsatov "ajoyib hodisalar haqidagi ertaklar" atamasini ma'qul ko'radi [2, 169–170].

Mazkur atamaning afzalligi shundaki, u sehrli ertaklarni faqat jodu yoki sehrgar personaj bilan cheklamaydi. Bu guruhga: dev va pari; ajdar; Semurug'; sehrli olma; gapiruvchi tabiat predmeti; uchar gilam; ochil dasturxon; insonning hayvonga aylanishi; o'likni tiriltirish kabi g'aroyib hodisalarning syujetni tashkil etuvchi vazifasi asos bo'ladi.

Sehrli-fantastik ertakni belgilashda matnda biror g'ayritabiiy obrazning qatnashishi yetarli emas. Asosiy mezon — sehrli hodisaning syujet rivojida yetakchi vazifa bajarishidir. Masalan, qoraqalpoq folklorida "Qiran" ertagida pari qizi, devlar, sehrli soch tolasi va g'ayritabiiy tezlikka ega yordamchi syujetning asosiy harakatini tashkil etadi. Qahramonning sinovdan o'tishi va maqsadga yetishi mo'jizaviy yordamsiz amalga

oshmaydi. Shu sababli bu matn sehrli-fantastik ertakka mansub.

Turkman folklorida "Temmel ýalta" ertagida ham dev, pari va ichi qimmatbaho toshlarga to'la anorlar mavjud. Ammo syujetning birinchi qismi yalqov yigitning aqlli qiz ta'sirida mehnatga o'rganishiga bag'ishlangan. Unda maishiy-hajviy va sehrli belgilar birga qatnashadi. Bunday matnni tasniflashda qaysi belgining butun syujetda yetakchilik qilishi aniqlanishi kerak.

Ushbu nazariy qarashlaridan kelib chiqib, janriy tasnif: "matnda qanday obraz bor?" degan savolga emas, "asar syujeti qaysi badiiy mexanizm asosida harakatlanadi?" degan savolga tayanadi.

Olim Q.Maqsatov hayvonlar haqidagi ertaklarni tabiat yoki jonivorlar hayoti to'g'risidagi hikoya deb emas, hayvon obrazlari orqali inson xulqi va ijtimoiy munosabatlar tasvirlanadigan asar sifatida baholaydi [2, 178].

Bunday ertaklarda: tulki — hiyla va tadbirkorlik; bo'ri — ochko'zlik yoki zo'ravonlik; qo'y va echki — mehnatkashlik; eshak — soddalik yoki ahmoqlik; qoyan — qo'rqqoqlik yoki topqirlik kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin.

Biroq hayvonning ma'nosi barcha syujetlarda bir xil emas. Olim Q.Maqsatov qoyan ayrim ertaklarda qo'rqqoq bo'lsa, boshqalarida aqlli va jamoani zulmkor arslondan qutqaruvchi personaj sifatida kelishini ko'rsatadi [2, 181].

Shu sababli obrazning ma'nosi uning turg'un ramziy belgisi bilangina emas, muayyan matndagi harakati va funksiyasi bilan aniqlanadi.

1969-yilda nashr qilingan "Prodanniy son: Turkmenskie narodnie skazki" to'plamida turkman ertaklari uch asosiy guruhga ajratilgan: a) hayvonlar haqidagi ertaklar; b) sehrli ertaklar; v) maishiy ertaklar [3, 5].

Mazkur tasnif olim Q.Maqsatov tasnifiga tuzilishi jihatidan yaqin. Ikki an'anada ham hayvonlar haqidagi, g'ayritabiiy voqealarga asoslangan va maishiy mazmundagi matnlar farqlanadi.

Farq asosan, terminologiyada namoyon bo'ladi:

Qoraqalpoq tasnifi	Turkman tasnifi	Xalqaro atama
ájayıp hádiyseler haqqındaғы ertekler	jadılı ertekiler	tales of magic
haywanat obrazlarına baylanisli ertekler	xayvanlar xakındaki ertekiler	animal tales
turmıs ertekleri	durmush ertekileri	realistic tales

Qoraqalpoq va turkman atamaları til jihatidan yaqin, ammo janriy guruhlarining ichki tarkibida farqlar bo'lishi mumkin. Masalan, botirlik mazmunidagi matn bir nashrda sehrli ertakka, boshqasida botirlik ertagiga kiritilishi mumkin.

Turkman olimi A. Baymiradov "Xayvanlar haqidagi turkmen ertekilari" tadqiqotida hayvonlar haqidagi turkman ertaklarining 155 syujet tipini aniqlagan. Shulardan 47 tasi asosiy raqamlar bilan belgilangan; katalogga 108 ta ertak matni ham kiritilgan [4, 49–78; 4, 33].

Bu tasnif janriy guruhlashdan farq qiladi. "Hayvonlar haqidagi ertak" — janriy guruh, uning ichidagi "tulki bo'rini aldaydi" yoki "kuchsiz hayvon kuchli raqibni hiyla bilan yengadi" kabi sxemalar esa syujet tiplaridir.

Ushbu qiyosiy tahlillardan kelib chiqib, janr va syujet tipi ikki xil ilmiy sathga mansub: a) janr asarning umumiy badiiy tabiatini belgilaydi; b) syujet tipi o'xshash voqealar sxemasini aniqlaydi.

Ingliz olimi Jozef Jeykobsning English Fairy Tales to'plamida hayvonlar haqidagi, sehrli, maishiy, hajviy va kumulyativ matnlar birga berilgan. To'plam milliy repertuarni namoyon etadi, ammo undagi tasnif zamonaviy ertak syujetlarining xalqaro tasnifi katalogining janriy chegaralariga aynan mos kelmaydi. [7, 7–19].

Olim Hans-Yorg Uter yangilagan ertak syujetlarining xalqaro tasnifi katalogi ertaklarni: hayvonlar haqidagi

ertaklar; sehrli ertaklar; diniy ertaklar; realistlik ertaklar; nodon dev haqidagi ertaklar; latifa va hajviy hikoyalar; formulali ertaklar kabi katta guruhlariga ajratadi [6, 7–19].

Ertak syujetlarining xalqaro tasnifi raqami muayyan syujetning xalqaro variantlarini topishga xizmat qiladi. Biroq u milliy ertak tasnifining o'rnini bosmaydi. Qoraqalpoq yoki turkman ertagini Ertak syujetlarining xalqaro tasnifi raqami bilan belgilash uning milliy tili, personajlari, urf-odati va estetik mazmunini izohlamaydi.

Shuning uchun qiyosiy tadqiqotda ikki bosqichli tasnif zarur deb hisoblaymiz. a) ertakning milliy janriy tizimdagi o'rnini aniqlash; b) syujetiga mos ertak syujetlarining xalqaro tasnifi raqamini belgilash.

Xulosa. Umuman olganda, qoraqalpoq va turkman ertaklarining uchlik tasnifi o'zaro yaqin: har ikki an'anada sehrli, hayvon obrazlariga asoslangan va maishiy ertaklar farqlanadi. Biroq ayrim matnlarda janr belgilari aralashib kelgani sababli tasnif birgina personaj yoki motivga emas, syujetning ustuvor badiiy yo'nalishiga asoslanishi lozim deb hisoblaymiz.

Milliy janr tasnifi bilan ertak syujetlarining xalqaro tasnifi katalogi bir-birini to'ldiradi, ammo ularning vazifasi bir xil emas. Milliy tasnif ertakning janriy va estetik tabiatini, ertak syujetlarining xalqaro tasnifi katalogi esa syujetning xalqaro tipini ko'rsatadi. Shu farqqa amal qilish qoraqalpoq, turkman va ingliz ertaklarini mexanik tenglashtirishdan saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: "Қарақалпақстан", 1968.
2. Мақсетов Қ. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дөретпелери. – Нөкис: Билим, 1996. Б. 168–181.
3. Проданный сон: Туркменские народные сказки. – Москва: Наука, 1969. С. 5.
4. Баймырадов А. Хайванлар хакындакы туркмен эртекилери. – Ашхабад, 1986. Б. 49–78.
5. Uther H.-J. The Types of International Folktales. Parts I–III. – Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia, 2004. Part I. P. 7–19.
6. Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890.
7. Аширов Т. Түркмен Ертекилери, Hazırlayan: A. Aliyev // Uluslararası Halkbilimi Araştırmaları Dergisi. 2021. №7. S. 270–273.

Dilnoza SAYIPOVA,
 Yashnobod tumani 23-maktab
 ona tili va adabiyot o'qituvchisi

IJTIMOY TARMOQLARDA TIL ME'YORLARI VA KOMMUNIKATIV SHAKLLARNING SOTSIOLINGVISTIK YANGILANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar muhitida til me'yorlari va kommunikativ shakllarning sotsiolingvistik yangilanishi tahlil qilinadi. Raqamli muloqotning jadallashuvi til birliklarining qo'llanish doirasi, nutq uslublari, yozma va og'zaki shakllar o'rtasidagi chegaralar, ijtimoiy identifikatsiya hamda kommunikativ odob me'yorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada qisqartmalar, transliteratsiya, kod almashinuvi, emoji, hashtag, mem, audiovizual ifoda vositalari, izoh va repost kabi shakllarning kommunikativ vazifalari yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi til o'zgarishlari me'yorlarning yemirilishi emas, balki yangi kommunikativ sharoitga moslashuv jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, sotsiolingvistika, raqamli kommunikatsiya, til me'yorlari, kod almashinuvi, emoji, hashtag, internet tili, nutq madaniyati.*

Аннотация: в статье анализируется социолингвистическое обновление языковых норм и коммуникативных форм в социальных сетях. Ускорение цифровой коммуникации оказывает существенное влияние на сферу употребления языковых единиц, речевые стили, границы между письменной и устной речью, социальную идентификацию и нормы коммуникативного поведения. Особое внимание уделяется сокращениям, транслитерации, переключению кодов, эмодзи, хэштегам, мемам, аудиовизуальным средствам, комментариям и репостам. Языковые изменения в социальных сетях рассматриваются не как разрушение нормы, а как процесс адаптации языка к новым коммуникативным условиям.

Ключевые слова: *социальные сети, социолингвистика, цифровая коммуникация, языковые нормы, переключение кодов, эмодзи, хэштег, интернет-язык, культура речи.*

Annotation: this article examines the sociolinguistic renewal of language norms and communicative forms in social media. The intensification of digital communication significantly affects the use of linguistic units, speech styles, the boundaries between written and spoken language, social identification and communicative etiquette. The article discusses the communicative functions of abbreviations, transliteration, code-switching, emojis, hashtags, memes, audiovisual tools, comments and reposts. Language changes in social media are interpreted not as the destruction of norms, but as the adaptation of language to new communicative conditions.

Key words: *social media, sociolinguistics, digital communication, language norms, code-switching, emoji, hashtag, internet language, speech culture.*

Kirish. XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar kundalik muloqot, axborot almashinuvi, shaxsiy munosabat, jamoatchilik fikri, ta'lim, reklama, siyosiy munozara va madaniy o'zaro ta'sirning eng faol maydonlaridan biriga aylandi. Facebook, Instagram, Telegram, X, TikTok, YouTube va boshqa platformalarda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy mavqe, yosh, guruhga mansublik, kasbiy identifikatsiya, estetik did va kommunikativ strategiyani ifodalovchi belgilar tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardagi til hodisalarini faqat imlo xatosi, og'zaki so'zlashuvning yozuvga ko'chishi yoki adabiy me'yordan chekinish sifatida baholash yetarli emas. Bu jarayon sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, ya'ni tilning jamiyat, guruh, vaziyat va kommunikativ ehtiyojlar bilan o'zaro bog'liqligi doirasida o'rganilishi lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy tarmoqlarda til me'yorlarining yangilanishi, avvalo, yozma va og'zaki nutq o'rtasidagi an'anaviy chegaralarning yumshashi bilan bog'liq. Klassik yozma nutq odatda grammatik to'liqlik, imloviy barqarorlik, mantiqiy izchillik va rasmiy uslubga yaqinlik bilan tavsiflanadi. Og'zaki nutq esa vaziyatga bog'liqlik, qisqalik, emotsionallik, pauza, intonatsiya, takror va noverbal belgilar bilan ajralib turadi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa yozuv ko'pincha og'zaki muloqot tezligida amalga oshadi. Foydalanuvchi matnni uzoq tahrir qilmaydi, balki tezkor javob qaytaradi, hissiy munosabat bildiradi, qisqa izoh yozadi yoki reaksiya belgisidan foydalanadi. Natijada raqamli yozuv "yozma shakldagi og'zaki nutq" xususiyatini oladi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Kod almashinuvi ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'zga tashlanadigan hodisalardan biridir. O'zbek foydalanuvchilari nutqida o'zbek, rus va ingliz tillari elementlarining bir matn ichida almashinib kelishi kuzatiladi: "meeting bor", "deadline yaqin", "post joyladim", "story ko'rdingmi?", "feedback ber", "tema zo'r ekan" kabi birikmalar raqamli muhitda odatiy holga aylanmoqda. Bu hodisa faqat til buzilishi sifatida emas, balki ijtimoiy tajriba, kasbiy muhit, yoshlar submadaniyati, global texnologik terminologiya va guruh ichidagi muloqot qulayligi bilan bog'liq jarayon sifatida baholanishi kerak. Androutsopoulos kompyuter vositasidagi muloqotni sotsiolingvistik tahlil qilishda internetdagi nutq shakllarini ijtimoiy guruhlar, identifikatsiya va kommunikativ vaziyat bilan bog'lab o'rganish zarurligini ta'kidlaydi [2].

Ijtimoiy tarmoqlar tilining yana bir muhim belgisi — multimodallikdir. An'anaviy yozma matnda ma'no asosan, so'z va tinish belgisi orqali beriladi. Raqamli muloqotda esa ma'no emoji, stiker, gif, rasm, video, audio, hashtag, link, mem, reaksiya tugmasi va sahifa dizayni bilan birgalikda yaratiladi. Masalan, foydalanuvchi "Yaxshi" deb yozsa, bu so'zning ma'nosi yonidagi emoji, kontekst, oldingi xabar, kinoya, rasm yoki mem orqali o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy tarmoq matnini faqat lingvistik birliklar ketma-ketligi sifatida emas, balki matn, tasvir, tovush va interaktiv belgilar uyg'unligidan iborat kommunikativ butunlik sifatida talqin qilish zarur.

Emoji va stikerlar raqamli muloqotda noverbal vositalarning o'rnini qisman to'ldiradi. Yuzma-yuz suhbatda inson mimika, ovoz ohangi, kulgi, tana harakati va pauza orqali munosabat bildiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda bu imkoniyat cheklangani uchun foydalanuvchilar hissiy holatni emoji yoki stiker orqali ifodalaydi. Biroq emoji faqat bezak emas; u matnning pragmatik ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Masalan, keskin tanqid yoniga kulgi belgisi qo'yilsa, u yumshatiladi; oddiy tabrik yurak belgisi bilan iliqlashadi; kinoyaviy izoh mos emoji orqali boshqacha talqin qilinadi. Demak, raqamli muloqotda til me'yorlari faqat grammatik shaklda emas, balki semiotik belgilar tizimi orqali ham yangilanmoqda.

Natijalar.

Hashtag ham ijtimoiy tarmoq tilining yangi kommunikativ shakllaridan biridir. U bir vaqtning o'zida

mavzu ko'rsatkichi, qidiruv belgisi, guruhlash vositasi, ijtimoiy kampaniya elementi va baholovchi pozitsiya sifatida ishlaydi. Masalan, #kitobxonlik, #ona_tilim, #education, #motivatsiya, #trend kabi hashtaglar matnni kengroq ijtimoiy diskursga ulaydi. Hashtag yordamida oddiy post umumiy mavzuga qo'shiladi, foydalanuvchi esa o'z matnini muayyan auditoriyaga yo'naltiradi. Boyd va Ellison ijtimoiy tarmoqlarni foydalanuvchilar profil yaratadigan, aloqalar ro'yxatini ko'rsatadigan va boshqa foydalanuvchilar tarmog'i bilan bog'lanadigan internet xizmatlari sifatida ta'riflaydi [3]. Ijtimoiy tarmoqlarda kommunikativ shakllarning yangilanishi muallif va auditoriya munosabatini ham o'zgartiradi. An'anaviy matnda muallif ko'pincha aniq, auditoriya esa nisbatan barqaror bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa bitta post turli auditoriyalar tomonidan o'qilishi mumkin: yaqin do'stlar, hamkasblar, oila a'zolari, mutaxassislar, notanish foydalanuvchilar yoki keng jamoatchilik. Shu sababli foydalanuvchi o'z nutqini "ko'p qatlamli auditoriya"ga moslashtirishga majbur bo'ladi. Ba'zan u rasmiy va norasmiy uslubni birlashtiradi, ba'zan o'z guruhiga tushunarli kinoya yoki ichki kodlardan foydalanadi, ba'zan esa ommaviy auditoriya uchun neytral va ehtiyotkor ifodani tanlaydi. Barton va Lee raqamli matnlar va amaliyotlarni o'rganishda onlayn muhitda matn, mualliflik, auditoriya va ijtimoiy amaliyotlar murakkablashishini ko'rsatadi [4].

Xulosa va munozara.

Ijtimoiy tarmoqlarda til me'yorlari va kommunikativ shakllarning sotsiolingvistik yangilanishi zamonaviy til taraqqiyotining tabiiy va murakkab jarayonidir. Raqamli kommunikatsiya yozma va og'zaki nutq chegaralarini yaqinlashtirdi, qisqartmalar, kod almashinuvi, emoji, hashtag, mem, audio va video kabi yangi ifoda vositalarini faollashtirdi. Bu jarayonlar adabiy til me'yorlarining mutlaq inkori emas, balki tilning yangi kommunikativ sharoitga moslashuvi sifatida talqin qilinishi lozim. Maqolada ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlar tili sotsiolingvistik jihatdan alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Unda til, jamiyat, texnologiya, identifikatsiya, auditoriya, multimodallik va kommunikativ strategiyalar o'zaro tutashadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoq matnlarini faqat xato yoki me'yordan chekinish sifatida emas, balki ma'lum vazifa bajaruvchi nutqiy amaliyot sifatida tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 304 p.
2. Androutsopoulos J. Introduction: Sociolinguistics and computer-mediated communication // Journal of Sociolinguistics. 2006. Vol. 10, No. 4. P. 419–438. DOI: 10.1111/j.1467-9841.2006.00286.x.
3. Boyd d.m., Ellison N.B. Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship // Journal of Computer-Mediated Communication. 2007. Vol. 13, No. 1. P. 210–230. DOI: 10.1111/j.1083-6101.2007.00393.x.
4. Barton D., Lee C. Language Online: Investigating Digital Texts and Practices. — London: New York: Routledge, 2013. 208 p.

Sherxon RASHIDOV,
 Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "RAD ETISH" NUTQIY AKTINING QIYOSIY-PRAGMATIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "rad etish" (refusal) nutqiy aktining lingvopragmatik va sotsiopsixologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Serlning bilvosita nutqiy aktlar nazariyasi, Brown va Levinsonning *xushmuomalalik* tamoyillari hamda Sh. Safarovning muloqot strategiyalari haqidagi fundamental qarashlariga tayanilgan. "O'tkan kunlar", "Ot kishnagan oqshom" va "Kimyogar" asarlaridagi "rad etish" vaziyatlari nafaqat lisoniy, balki madaniy-etik jihatdan ham keng qamrovli tahlil etilgan. Maqolada ingliz so'zlashuv nutqidagi ratsionallik va o'zbek muloqotidagi "andisha" fenomenlari o'rtasidagi tafovutlar jonli misollar va korpus statistikasi orqali asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *nutqiy akt, pragmatika, rad etish, andisha, lutf, COCA, BNC, xushmuomalalik strategiyasi, bilvosita nutq, sotsiolingvistika.*

Annotation: this article provides a comparative linguistic and pragmatic analysis of the refusal speech act in English and Uzbek. Based on J. Searle's theory of indirect speech acts, Brown and Levinson's politeness principles, and Sh. Safarov's views on communication strategies, the study analyzes excerpts from "Bygone Days", "The Night the Horses Neighed", and "The Alchemist". The study identifies cultural differences between English rational directness and Uzbek "Andisha" (modesty/delicacy) through everyday conversational idioms and literary discourse analysis.

Keywords: *speech act, pragmatics, refusal, andisha (modesty/delicacy), lutf (courtesy), COCA, BNC, politeness strategy, indirect speech, sociolinguistics.*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительно-прагматический анализ речевого акта отказа в английском и узбекском языках. На основе теории косвенных речевых актов Дж. Серля, принципов вежливости Брауна и Левинсона, а также концепций Ш. Сафарова о коммуникативных стратегиях, анализируются фрагменты из произведений «Минувшие дни», «Ночь, когда заржали кони» и «Алхимик». В работе обоснованы культурно-этические различия между английской рациональной прямоотой и узбекским феноменом «андиша» на основе аутентичных текстов и корпусных данных.

Ключевые слова: *речевой акт, прагматика, отказ, андиша (скромность/деликатность), лутф (любезность), COCA, BNC, стратегия вежливости, косвенная речь, социолингвистика.*

Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri muloqot jarayonini insoniy faoliyatning uzviy qismi sifatida, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq etishdir. Sh. Safarov "Pragmalingvistika" asarida ta'kidlaganidek, muloqot – bu shunchaki lisoniy birliklar almashinuvi emas, balki "so'zlovchi niyatining tinglovchi tomonidan to'g'ri idrok etilishi va kutilgan natijaga erishish jarayonidir¹". Ushbu jarayonda "rad etish" (refusal) nutqiy akti sotsiopragmatik jihatdan eng "nozik" nuqta hisoblanadi. "Rad etish" o'z mohiyatiga ko'ra "yuzga tahdid soluvchi akt" (Face Threatening Act) guruhiga kirib, suhbatdoshning ijtimoiy talabini inkor etish orqali muloqot muvozanatini buzish xavfini tug'diradi². Mazkur maqolada o'zbek muloqot

tizimidagi bilvositalik va ingliz tilidagi ratsional aniqlik strategiyalari qiyosiy aspektida, badiiy matnlar tahlili orqali ochib beriladi.

J. Serl nutqiy aktlar nazariyasida bilvosita (indirect) aktlarning o'rnini tahlil qilar ekan, so'zlovchi bir illokutiv akti amalga oshirish orqali boshqasini nazarda tutishini ko'rsatadi³. Rad etishda bu jarayon ko'pincha "savol" yoki "holat bayoni" shakliga o'ralgan bo'ladi. Masalan, "Bugun bo'shmisan?" degan savolga "Ishim ko'p edi" deb javob berish, mantiqan rad etishni anglatadi.

Brown va Levinson *xushmuomalalik* nazariyasiga ko'ra, *rad etish* strategiyalari ikki xil qutbga bo'linadi:

1. Negative Politeness: Suhbatdoshning erkinligini cheklamagan holda mas'uliyatni o'zidan soqit qilib rad etish (Ingliz madaniyati uchun xos).

1 Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2008. 77–98-b.

2 Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 61.

3 Searle J. R. Indirect Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1975. – P. 59-82.

2. Off-record (Indirectness): To'g'ridan to'g'ri rad etishdan qochib, shama yoki andisha orqali javob berish (O'zbek madaniyati uchun xos).

Sh. Safarov muloqot strategiyalarini iyerarxik tizim sifatida baholab, rad etishda suhbatdoshning niyatini chetlab o'tish (avoidance) va andisha orqali muloqotni boshqarish modellarini asoslab beradi⁴.

Badiiy diskursda rad etish aktining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda Tog'ay Murod prozasiga murojaat qilish o'ziga xos ilmiy natijalar beradi. Xususan, "Ot kishnagan oqshom" asaridagi Turobjon obrazining nutqiy portretini kuzatar ekanmiz, unda o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan "yo'q" deya olmaslik va rad javobini "lutf" pardasiga o'rash holatlariga duch kelamiz. Turobjonning kapitanning taklifiga munosabati sotsial iyerarxiya va "birodarlik" tushunchasi rad etish aktini bloklayotganini ko'rsatadi: "Birodarimiz uchun, dedi! Shu gap ko'nglimni oldi! ...yo'q demadim"⁵. Biroq asarda qahramon kelishni xohlamagan vaziyatlarda qo'llaydigan "sal tobim yo'q edi" iborasi sof pragmatik "bahona" (pre-text) funksiyasini bajaradi. O'zbek muloqot tizimida bu ibora har doim ham real fiziologik holatni aks ettirmaydi. U ko'proq "Rad javobini berishga majburman, lekin ko'nglingni og'ritmaslik uchun aybni o'zimga ag'daryapman" degan yashirin pragmatik ma'noni tashiydi. Sh. Safarovning "Muloqotni boshqarish" nazariyasiga ko'ra, Turobjon bu yerda suhbatdoshining "yuzini saqlab qolish" (face-saving) uchun o'z shaxsiy rejasidan voz kechadi yoki uni yumshoq inkor etadi. Bu o'zbek tilidagi *rad etish* aktining nafaqat lisoniy, balki kuchli emotsional-axloqiy yuklamaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "rad etish" akti ijtimoiy tabaqalanish va o'zaro ehtiromlar mezonlariga tayanadi. Otabek va Rahmat o'rtasidagi muloqotda rad etishning o'zbekona "lutf" modeli klassik ko'rinishda berilgan:

- Endi biznikiga qachon mehmon bo'lasiz, bek aka?
- Xudo xohlagan vaqtda bo'larmiz...⁶

Ushbu parcha o'zbek pragmatikasidagi "Hedging" (yumshatish) strategiyasining cho'qqisidir. Otabek "Bormayman" yoki "Vaqtim yo'q" deb keskin rad etmaydi. U javobgarlikni metafizik kuchga (Xudoga) yuklaydi. Bu orqali u suhbatdoshning taklifini inkor qilmagan holda, o'zining kelgusidagi majburiyatini lisoniy ravishda "ochiq" qoldiradi. Agar ushbu holat ingliz tilida "I will come when

God wills" deb o'girilsa, ingliz so'zlashuvchisi buni rad javobi emas, balki qat'iy va'da deb tushunishi mumkin. Bu esa pragmatik differentsiatsiyaning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan o'zbekona "andisha" va "lutf" kategoriyalari rad etish aktini "noaniqlik" pardasiga o'rasa, g'arb muloqot tizimida bu jarayon butunlay boshqacha pragmatik asosga – shaxsiy daxlsizlik (privacy) va vaqt ratsionalligiga tayanadi. Buni Paulo Coelho'ning "Kimyogar" asarida Santyago va savdogarning qizi o'rtasidagi ilk muloqot misolida ko'rishimiz mumkin. Qizning cho'ponning hayot tarzi haqidagi savollariga Santyagoning javoblari rad etishning *Avoidance* (chetlab o'tish/javobdan qochish) strategiyasini namoyon etadi:

– *Cho'ponlar qayerda o'qishni o'rganadilar? – deb so'radi qiz. – Hamma kabi, men ham maktabda o'qiganman, – deb javob berdi bola. – Agar o'qishni bilsangiz, nega unda cho'pon bo'lib yuribsiz? Bola bu savolga javob berishdan qochish (avoid) uchun mavzuni boshqa yoqqa burdi. U o'zining hayotiy falsafasini qiz tushunmasligini bilar edi?*"

Ushbu parcha o'zbekona andishadan tubdan farq qiladi. Agar Otabek suhbatdoshining ko'nglini olish uchun "Xudo xohlasa" deb lutf qilgan bo'lsa, Santyago bu yerda shunchaki o'zining ichki dunyosini va "shaxsiy hududini" himoya qilish uchun savolga aniq javob berishni rad etmoqda. Bu yerda motiv – andisha emas, balki shaxsiy avtonomiya (individual autonomy) hisoblanadi.

Ingliz so'zlashuv nutqidagi rad etish modellarini tahlil qilsak, ularning "Directness" (to'g'ridan to'g'rilik) tamoyiliga qanchalik sodiqligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, do'stona muloqotda "Can you come to the party tonight?" (*Bugun bazmga kelasizmi?*) degan taklifga nisbatan beriladigan "No, I've more important fish to fry" (*Yo'q, muhimroq yumushlarim bor*) kabi javoblar ingliz pragmatikasida mutlaqo tabiiy qabul qilinadi. O'zbek so'zlashuvchisi uchun bu qat'iy inkor "dag'allik lakunasi" bo'lib tuyulsa, inglizlar uchun o'zbekonadagi lutfiy noaniqlik – "noaniqlik lakunasi" sifatida baholanishi mumkin⁸.

COCA (Corpus of Contemporary American English) va BNC korpuslari tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida rad etishda "Unfortunately", "I'm afraid", "I'm booked up" kabi birikmalar rad javobining zarbasini kamaytirish uchun xizmat qilsa-da, asosiy sabab (Reason) har doim konkret bo'ladi.

O'zbek tilining milliy korpusida (uzCorpora) esa rad etish ko'pincha "Ma'zur tutasiz", "Nasib qilsa", "Ishlar

4 Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2008. B. 77– 98.

5 Murod T. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Sharq, 1994. B. 112.

6 Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. B. 5.

7 Coelho P. The Alchemist. – HarperCollins, 1993. – P. 16.

8 Vinay J.P., Darbelnet J. A Methodology for Translation. – John Benjamins, 1995. – P. 93-95.

chiqib qoldi” kabi umumiy va diplomatik frazalar orqali ifodalanadi. Inglizlarda rad etish “shaxsiy mas’uliyat” sifatida ko’rilsa, o’zbeklarda u “ko’ngilni og’ritmaslik san’ati” (Art of not hurting feelings) darajasiga ko’tarilgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan o’zbek va ingliz tillaridagi rad etish strategiyalarining asosiy pragmatik farqlari quyidagi qiyosiy jadvalda umumlashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ingliz va o’zbek tillarida rad etish nutqiy aktining qiyosiy tavsifi

Qiyosiy parametrlar	O’zbek muloqot modeli	Ingliz muloqot modeli
Asosiy pragmatik kategoriya	Andisha va lutf. Suhbatdoshning ko’nglini og’ritmaslik birinchi o’rinda turadi.	Ratsionallik va shaxsiy avtonomiya. Vaqtini tejash va aniqlik ustuvor sanaladi.
Xushmuomalalik strategiyasi	Off-record (bilvosita). Rad javobi shama va uzoq uzrlar orqali beriladi.	Negative Politeness. Suhbatdoshning erkinligini hurmat qilgan holda, mas’uliyatni o’zidan soqit qilish.
Rad etish usuli	Hedging (Yumshatish). Mas’uliyat uchinchi shaxsga yoki metafizik kuchlarga (masalan, “Xudo xohlasa”) yuklanadi.	Reasoning (Mantiqiy asos). Rad etishning sababi konkret va mantiqiy tarzda tushuntiriladi.
Badiiy diskursdagi aksi	“O’tkan kunlar”, “Ot kishnagan oqshom”. Ijtimoiy iyerarxiya va andishali inkor.	“Kimyogar”. Shaxsiy erkinlikni himoya qilish maqsadidagi “Avoidance” (chetlab o’tish).
Madaniy kontekst	Kollektivistik. Muloqotda “Biz” va sotsial munosabatlarni saqlash muhim.	Individualistik. Muloqotda “Men” va shaxsiy rejalarining ustuvorligi.
Nutqiy korpus natijalari (COCA/uzCorpora)	Modallik va diplomatik frazalar (“Ma’zur tutasiz”, “Nasib qilsa”) ustunligi.	Aniq sabablar va standart birikmalar (“I’m afraid”, “I’m booked up”) ustunligi.

O’zbek va ingliz tillaridagi rad etish nutqiy aktlarining qiyosiy tahlili shuni ko’rsatadiki, muloqot muvaffaqiyati nafaqat grammatik to’g’rilikka, balki pragmatik moslikka bog’liq. Tog’ay Murod va Abdulla Qodiriy asarlaridagi “andishali rad etish” modellari o’zbek xalqining kollektivistik

qadriyatlarini aks ettirsa, ingliz tilidagi to’g’ridan to’g’ri rad javoblari individualistik va ratsional dunyoqarashning mahsulidir. Sh. Safarov ta’kidlaganidek, lingvopragmatik kompetensiya – bu “yo’q” deyishni suhbatdoshning “yuzini” saqlagan holda amalga oshirish san’atidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O’zR FA “Fan” nashriyoti, 2008. 318-b.
2. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
3. Searle J. R. Indirect Speech Acts. // Syntax and Semantics, Vol. 3, Speech Acts, ed. by P. Cole and J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. Pp. 59–82.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O’zR FA “Fan” nashriyoti, 2008. B. 77–98.
5. Murod T. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Sharq, 1994. 212-b.
6. Qodiriy A. O’tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. 400-b.
7. Coelho P. The Alchemist. – HarperCollins, 1993. 197 p.
8. Vinay J.P., Darbelnet J. A Methodology for Translation. [Transl. by J.C. Sager and M.J. Hamel]. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. 316 p.

Nilufar MUHIDDINOVA,
Navoiy davlat universiteti
tayanch doktoranti

“IDEAL SHAXS” KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSIK-SEMANTIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida “ideal shaxs” konseptini ifodalovchi leksik-semantik birliklar tahlil qilingan. Bunda shaxsning jismoniy, ma'naviy sifatlariga beriladigan baho til birliklarida faqat axloqiy mezon emas, balki jamiyatning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy stereotiplari bilan ham bog'liq holda namoyon bo'ladi. Maqolada “ideal shaxs” konseptini ifodalovchi leksik birliklarni aniqlangan hamda ikki tildagi semantik farqlari asoslangan.

Kalit so'zlar: *ideal shaxs, konsept, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, yadro, periferiya madaniy stereotip.*

Аннотация: в данной статье анализируются лексико-семантические единицы, выражающие понятие «идеальный человек» в узбекском и английском языках. В данном случае оценка физических и духовных качеств человека является не только моральным критерием в языковых единицах, но и отражает систему ценностей общества, социально-политические и культурные стереотипы. В статье определены лексические единицы, выражающие понятие «идеальный человек», и обоснованы семантические различия в двух языках.

Ключевые слова: *идеальный человек, понятие, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, ядро, периферия, культурный стереотип.*

Annotation: this article analyzes lexical-semantic units expressing the concept of “ideal person” in Uzbek and English. In this case, the assessment of a person's physical and spiritual qualities is not only a moral criterion in linguistic units, but also reflects the value system of society, socio-political and cultural stereotypes. The article identifies lexical units expressing the concept of “ideal person” and substantiates semantic differences in the two languages.

Key words: *ideal person, concept, linguoculturology, cognitive linguistics, core, periphery, cultural stereotype.*

Kirish. O'zbek tilida ideal shaxsni ifodalovchi leksik birliklar, eng avvalo, axloqiy-ma'naviy semantik birliklar atrofida guruhlanadi va ifodalanadi. “Komil”, “barkamol”, “halol”, “vijdonli”, “insofli”, “diyonatli”, “odobli”, “oriyatli”, “andishali”, “sabrli” kabi birliklar shaxsning tashqi muvaffaqiyatidan ko'ra ichki sifatlarini birinchi o'ringa chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday fikrga kelish va xulosa chiqarish uchun asos kerak bo'ladi. Avvalo, bu olamning o'zbek lisoniy manzarasi va uning og'zaki va yozma manbalardagi aks etishi bilan ifodalanadi. Masalan, bu holat lug'aviy ta'riflarda ham ko'rinadi. “Komil” mukammallik va kamolot bilan, “barkamol” yetuklik bilan, “halol” esa xiyonatdan xolilik va mehnat bilan bog'lanadi¹. “Komil inson” birikmasi o'zbek ilmiy va ma'rifiy diskursida alohida mavqega ega. Bu birikmada shaxsning bilimli bo'lishi yetarli emas, unda odob, vijdon, ma'nan yetuklik, jamiyatga foyda keltirish va o'z nafsini boshqarish, andishali bo'lish, iymoni butunlik, bilimlilik kabi komponentlar ham nazarda tutiladi.

Shu sababli “komil”ni inglizcha “perfect” bilan to'liq tenglashtirish xato bo'ladi. “Perfect” nuqsonsizlikka yaqinlashsa, “komil” ko'proq kamolot jarayoni va ma'naviy yetuklikni bildiradi. “Barkamol” leksik birligi “ideal shaxs” konseptida uyg'unlik semasini kuchaytiradi. Ta'limiy korpusda

“barkamol” jismoniy va aqliy kamolot, yetuklik va mukammallik bilan izohlanadi. Demak, bu so'z o'zbek tilida bir yoqlama axloqiylikni emas, aql, jism, tarbiya va ma'naviy pishiqchilikning muvozanatini bildiradi. “Barkamol avlod” birikmasida ham shaxsiy yutuqdan ko'ra tarbiyaviy va ijtimoiy yutuq kuchliroq. Masalan, ushbu konseptning asosiy tushunchalaridan biri halollik bo'lsa, uning semantik ko'lamini keng. U moddiylikdan ma'naviy halollik sari semantik taraqqiyotga qarab ustunlik kasb etadi. Xususan, diniy tomondan ruxsat etilgan (halol mahsulot) ma'nosidan tashqari, mehnat bilan topilgan rizq, g'irromlikdan xolilik, bironi aldamaslik, to'g'ri ish tutish kabi ma'nolarni o'zida jamlaydi. Shu bois “halol odam” o'zbek tilida nafaqat “honest person”, balki “trustworthy, fair, clean-handed, hard-working person” kabi kengroq izohni talab qiladi. Bu kenglik ideal shaxs yadro komponentining madaniy ildizini ko'rsatadi².

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda analiz, sintez, chog'ishtirma, semantik, tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Odobli” so'zi o'zbek tilidagi ideal shaxs modelida kommunikativ xulq mezonini bildiradi. Odob salomlashish, so'z tanlash, o'rnini bilish, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmon bilan muomala, jamoat joyida o'zini tutish kabi ko'plab mikro-skriptlarni birlashtiradi. Ingliz tilida “polite”, “well-mannered”, “respectful” birliklari mos tushadi, ammo

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 5 jild. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008-y.

² <https://global.oup.com/academic/product/oxford-english-dictionary-online-9780195216813>

“odob”ning tarbiya, madaniyat va shaxsiy fazilatni birlashtiruvchi qatlami kengroq.

“Oriyatlilik” va “andishalilik” ideal shaxsning ijtimoiy yuzini belgilaydi. “Oriyat” lugʻaviy izohda or-nomus va izzati nafs bilan bogʻlanadi; “andisha” esa vaziyatni oʻylab ish tutish, chegarani bilish, boshqani noqulay ahvolga solmaslik kabi pragmatik fazilatlarni bildiradi. Ingliz tilida “honour”, “dignity”, “consideration”, “tact” kabi birliklar ayrim jihatlarni beradi, lekin oʻzbekcha birliklarning mahalla, oila va jamoa oldidagi yuz bilan bogʻlanishi alohida izohlanadi.

“Sabrli” birliklari oʻzbek ideal shaxs modelida hissiy barqarorlik va bardoshni ifodalaydi. Taʼlimiy korpusdagi “sabr” izohida kutish, qanoat qilish, oʻzini tiyish va musibatga chidash semalari bor.

Inglizcha “patient” koʻpincha kutish va asabiylashmaslik bilan bogʻlangan boʻlsa, oʻzbekcha “sabr” diniy-axloqiy, hayotiy va tarbiyaviy qatlamlarni ham qamrab oladi. Shu bois “sabrli inson”ni “patient person” deb tarjima qilish mumkin, ammo ayrim kontekstlarda maʼnaviy izoh zarur³.

Leksik-semantik tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilidagi ideal shaxs nomlari koʻpincha sifat + shaxs modelida keladi. “Halol odam”, “vijdonli kishi”, “oriyatli inson”, “odobli farzand” kabi birliklar bunga misol. Bu model bahoni bevosita shaxsga biriktiradi. Shuningdek, izofiy va birikmali shakllar ham faol qoʻllanadi. “Kamil inson”, “barkamol avlod”, “pok niyatli kishi”, “elparvar inson” kabi. Bunday birliklar ideal shaxsni individual sifatdan ijtimoiy vazifaga kengaytiradi.

“Odobli” va “andishali” birliklari ideal shaxsning muomala mezonini belgilaydi. “Odobli” ijtimoiy xulq meʼyoriga rioya qilishni bildirs, “andishali” vaziyatni, boshqaning kayfiyatini, ijtimoiy masofani va uyat chegarasini his qilishni anglatadi. Inglizcha “polite”, “well-mannered”, “tactful”, “considerate”, “discreet” birliklari mos zonalarini qoplaydi.

Oʻzbek tilida “ideal shaxs” konsepti bevosita *ideal shaxs*, *kamil inson*, *barkamol inson* kabi terminlashgan birikmalar bilan, bilvosita esa *yaxshi odam*, *halol inson*, *odobli kishi*, *vijdonli shaxs*, *oriyatli yigit*, *oqila ayol*, *mard inson*, *mehnatsevar odam*, *ilimli kishi* kabi keng nominativ qatlam bilan ifodalanadi. Bu birliklar umumiy ijobiy bahoga ega boʻlsa-da, ularning semantik

3 Qarang. Baker, M. In *Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2018.

markazlari turlicha. Ideal shaxs yuksak namuna semasini, kamil inson ruhiy-axloqiy kamolotni, barkamol inson uygʻun yetuklikni, halol inson axloqiy poklik va xiyonatdan xolilikni, odobli kishi muomala madaniyati va ijtimoiy meʼyorni, oriyatli shaxs esa shaʼn, nomus va masʼuliyatni bildiradi. Shu bois oʻzbek tilidagi konseptual maydonni bitta umumiy “yaxshi” semasiga tushirib boʻlmaydi, unda qadriyatlar ichki ierarxiyasi bor⁴.

Odobli va tarbiyali birliklari oʻzbek madaniyatida ideal shaxsning kommunikativ-ijtimoiy qirrasini ifodalaydi. Odobli odam oʻzini tutishni biladigan, kattaga hurmat koʻrsatadigan, joyiga qarab gapiradigan, boshqalarning koʻngliga ozor bermaydigan, ijtimoiy chegarani his qiladigan shaxsdir. Tarbiyali esa oilaviy va ijtimoiy tarbiya natijasida shakllangan xulq meʼyorini bildiradi.

“Ingliz tilida polite, well-mannered, respectful, courteous birliklari odobli soʻzining ayrim qirralarini bera oladi, lekin oʻzbekcha odob koʻpincha faqat mulozamat emas, balki axloqiy nazorat va jamoa oldidagi masʼuliyatni ham oʻz ichiga oladi. Odobning konseptual roli shundaki, u ichki fazilatni tashqi muomala orqali koʻrinadigan qiladi. Ideal shaxs faqat yaxshi niyatli emas, boshqalar bilan toʻgʻri muomala qiladigan shaxs ham boʻlishi kerak⁵.”

Xulosa. Oʻzbek tilida baholovchi sifatlar koʻpincha kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari bilan ishlatiladi. *Nihoyatda halol*, *juda odobli*, *chinakam mard*, *haqiqiy inson*, *asl odam*, *toʻla* maʼnodagi ziyoli kabi birliklar idealga yaqinlik darajasini oshiradi. “Asl odam” iborasi ayniqsa qiziq. U biologik insonni emas, maʼnaviy jihatdan chin insonni bildiradi. Ingliz tilida truly decent, genuinely honest, real gentleman, a person of integrity, a true role model kabi birliklar shunga oʻxshash gradatsiyani beradi. Bunday kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari konseptning prototipik darajasini koʻrsatadi. Oddiy ijobiy sifat bilan “haqiqiy ideal” orasida daraja farqi bor.

Oʻzbek tilida “ideal shaxs” konsepti maʼnaviy yetuklik, axloqiy poklik, odob, oriyat, sabr, mehnat va jamoaviy masʼuliyat bilan shakllanishini koʻrsatdi. Lugʻaviy birliklar konsept yadrosini belgilaydi, ibora va maqollar esa shu yadroga obraz, emotsional kuch va xalqona meʼyor qoʻshadi.

4 Rosch, E. Cognitive representations of semantic categories. *Journal of Experimental Psychology: General*, 1975, 104(3): 192–233

5 Wierzbicka, A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. – New York: Oxford University Press, 1997.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80 000 dan ortiq soʻz va soʻz birikmasi. 5 jild. – Toshkent: “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008-y.
2. <https://global.oup.com/academic/product/oxford-english-dictionary-online-9780195216813>
3. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 2018.
4. Rosch, E. Cognitive representations of semantic categories. *Journal of Experimental Psychology: General*, 1975, 104(3): 192–233
5. Wierzbicka, A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. – New York: Oxford University Press, 1997.

Lochinbek JUMANOV,
Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: lochinbek8828@gmail.com
UDK: 378.147:37.013.8:811.111-051



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar IMRAD (Kirish–Metodologiya–Natijalar–Muhokama) tuzilishida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiya tushunchasining zamonaviy talqinlari (Xutorskoy, Zimnyaya, Weinert, OECD DeSeCo, Yevropa Komissiyasi) o'rganilgan va ularning pedagogik liderlik kompetensiyalariga tatbiqi asoslangan. Muallif tomonidan oltita talab turi — kognitiv, kommunikativ, kreativ-innovatsion, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy-ma'naviy va metakognitiv talablar — ilk bor yaxlit tizim sifatida taqdim etilgan, ularning o'lchanadigan ko'rsatkichlari va rivojlantirish vositalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari (DTS 2022) va pedagogik liderlik kompetensiyalari o'rtasidagi integratsiya imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik liderlik, kompetensiya, talablar tizimi, ingliz tili o'qituvchisi, DTS 2022, ko'rsatkichlar, O'zbekiston.

Annotation: this article provides a theoretical analysis, structured according to the IMRAD format, of the requirements for developing pedagogical leadership competencies in future English language teachers based on the competency-based approach. Contemporary interpretations of the concept of competence (Khutorskoy, Zimnyaya, Weinert, OECD DeSeCo, European Commission) are examined and applied to pedagogical leadership. The author proposes, for the first time, a six-type requirements system with measurable indicators and development instruments. Integration opportunities between the proposed system and the Uzbekistan State Educational Standards (SES 2022) are identified and analysed.

Key words: competency-based approach, pedagogical leadership, competence, requirements system, English language teacher, SES 2022, indicators, Uzbekistan.

Аннотация: в статье представлен научно-теоретический анализ — структурированный в соответствии с форматом IMRAD (Введение — Методология — Результаты — Обсуждение) — требований к формированию компетенций педагогического лидерства у будущих учителей английского языка на основе компетентностного подхода. Рассматриваются современные трактовки понятия «компетенция» (А.В. Хуторской, И.А. Зимняя, Ф. Вайнерт, проект ОЭСР DeSeCo, Европейская комиссия) и обосновывается их применимость к компетенциям педагогического лидерства. Автор впервые представляет целостную систему, включающую шесть видов требований — когнитивные, коммуникативные, творческо-инновационные, организационно-управленческие, социально-духовные и метакогнитивные, — а также определяет их измеримые показатели и инструменты развития. Выявлены возможности интеграции компетенций педагогического лидерства с Государственными образовательными стандартами Республики Узбекистан (ГОС 2022).

Ключевые слова: компетентностный подход, педагогическое лидерство, компетенция, система требований, учитель английского языка, ГОС 2022, показатели, Узбекистан.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuv (competency-based approach) ta'lim maqsadlarini, jarayonini va natijalarini belgilashning asosiy metodologik tamoyiliga aylandi. Ushbu yondashuv "bilimli bo'lish" dan "qodir bo'lish" ga — ya'ni bilimlarni hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilishda faol, ijodiy va mas'uliyatli tarzda qo'llay olish kompetensiyasiga — o'tishni taqozo etadi. Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish sohasida esa bu yondashuv o'ziga xos va dolzarb tatbiqni talab qiladi: nima o'rgatish kerak emas, balki qanday kompetensiyaga ega

bo'lajak o'qituvchi yetishtirish kerak, degan savolga aniq va o'lchanadigan javob berish lozim.

Biroq O'zbekiston pedagogika fanida bu savol hali yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud oliy ta'lim dasturlari kompetensiyaviy yondashuvni e'lon qilsa-da, pedagogik liderlik kompetensiyalarining tarkibi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni o'lchash mezonlari va rivojlantirish vositalari ko'p hollarda aniq belgilanmagan holda qolmoqda. Bu esa nazariy asos va amaliyot o'rtasidagi bo'shliqni yanada kengaytirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, empirik ma'lumotlar to'plash emas, balki mavjud ilmiy manbalar va normativ hujjatlarni tizimli tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) ilmiy adabiyotlar tahlili — kompetensiya va pedagogik liderlik nazariyalariga oid 22 ta manba (jumladan Xutorskoy, Zimnyaya, Weinert, OECD DeSeCo, Yevropa Komissiyasi, Northouse, Spillane, Ghamrawi va boshqalarning xalqaro tadqiqotlari hamda Tolipov, Muslimov, Sayidahmedov, Sharipov, Yo'ldoshevning milliy pedagogika bo'yicha ishlari) qiyosiy o'rganildi; 2) qiyosiy-tipologik tahlil — turli ilmiy maktablarning "kompetensiya" tushunchasiga yondashuvlari o'zaro solishtirilib, umumiy va farqli belgilar aniqlandi; 3) kontent-tahlil — O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari (DTS 2022)ning matnli mazmuni pedagogik liderlik komponentlari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi; 4) tizimlashtirish va klassifikatsiya metodi — olingan natijalar asosida talablarning yaxlit tipologiyasi ishlab chiqildi.

Natijalar. "Kompetensiya" tushunchasi ta'lim faniga 1990-yillardan boshlab kirib kela boshlagan bo'lsa-da, uning ta'rifi hali yagona ilmiy konsensusga erishmagan. Ushbu tushuncha turli maktablar va yo'nalishlarda turlicha talqin etiladi, bu esa uni pedagogik liderlik sohasiga tatbiq

etishda qo'shimcha metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, rus pedagog-psixologi A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar birligi sifatida ta'riflaydi [1]. Uning yondashuvida kompetensiya statik emas, balki faoliyatga yo'naltirilgan, dinamik va shaxsiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. I.A. Zimnyaya esa kompetensiyani ichki, potensial psixologik yangilanma bo'lib, tajriba orqali shakllanadigan va real muammolarni hal qilishda namoyon bo'ladigan natija deb belgilaydi [2]. Ushbu ta'rif pedagogik liderlik kompetensiyalari faqat nazariy tayyorgarlik emas, balki amaliy tajriba orqali shakllanishi zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro nuqtayi nazardan F.E. Weinert kompetensiyalarni murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan kognitiv, motivatsion va ijtimoiy imkoniyatlar majmui sifatida ta'riflagan [3]. OECD DeSeCo loyihasi kompetensiya tushunchasini yanada kengaytirib, uni bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar sintezidan iborat yaxlit natija sifatida konseptuallashtirdi [4]. Yevropa Komissiyasining asosiy kompetensiyalar ramkasi (2007) esa kompetensiyalarni hayot bo'yi o'rganish, shaxsiy rivojlanish va fuqarolik mas'uliyati uchun zarur bo'lgan universal qobiliyatlar tizimi sifatida belgilab, ularning har biri uchun ko'rsatkichlar aniqladi [5].

Olim / manba	Kompetensiya ta'rifi	Asosiy belgilar	Pedagogik liderlikka tatbiqi
Xutorskoy (2003)	Shaxsning faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma va munosabatlar birligi	Faoliyatga yo'naltirilganlik; shaxsiy xususiyat	Pedagogik liderlik — faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan integrativ kompetensiya
Zimnyaya (2003)	Ichki, potensial psixologik neolazma bo'lib, tajriba asosida namoyon bo'luvchi natija	Psixologik asos; tajribaviy shakllanish	Liderlik kompetensiyalari faqat amaliy tajribada rivojlanadi
Weinert (2001)	Murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan kognitiv, motivatsion va ijtimoiy imkoniyatlar	Ko'p komponentlilik; muammoni hal etish	Liderlik kompetensiyasi kognitiv + motivatsion + ijtimoiy birligidir
OECD DeSeCo (2002)	Yaxlit natija: bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar sintezi	Yaxlitlik; natijaga yo'nalish	Pedagogik liderlik — yaxlit natija sifatida o'quvchi va muassasa rivojida namoyon bo'ladi
Ghamrawi va b. (2025)	O'qituvchi liderligini ta'minlovchi 7 ta domenlik kasbiy kompetensiyalar tizimi	Domenlilik; tizimlilik; empirik tasdiqlash	EFL o'qituvchisi liderlik kompetensiyalari alohida domenlar tizimi sifatida rivojlantirilishi lozim

1-jadval. «Kompetensiya» tushunchasining zamonaviy talqinlari va pedagogik liderlikka tatbiqi (muallif tahlili)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, turli maktablar "kompetensiya" tushunchasiga har xil yondashsa-da, ularda uchta umumiy belgi mavjud: birinchidan, kompetensiya — bu faoliyatda namoyon bo'ladigan, o'lchanadigan natija; ikkinchidan, u bilim bilan cheklanmay, motivatsion, ijtimoiy va qadriyatli komponentlarni ham o'z ichiga oladi; uchinchidan, u rivojlantirilishi mumkin bo'lgan, dinamik xususiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining DTS 2022

bo'lajak o'qituvchilarning umumkasbiy, sohaga yo'naltirilgan, ijtimoiy va raqamli kompetensiyalarini belgilaydi [6]. Tolipov (2017) kompetensiyaviy yondashuvning O'zbekiston ta'lim amaliyotiga tatbiqida eng muhim tamoyil — kompetensiyalarning faqat o'lchov vositasi sifatida emas, balki rivojlantirish jarayonining maqsad va yo'naltirgichi sifatida qo'llanilishi ekanligini ta'kidlaydi [7]. Muslimov (2018) kasbiy kompetentlikning shakllanishida amaliy tajribaning nazariy

bilimdan ustunligi va ularning uyg'unlashishi zarurligi haqidagi g'oyani milliy pedagogika kontekstida rivojlantirgan [8]. Northouse (2019) ta'kidlaganidek, liderlik kompetensiyalar asosida rivojlantirilganda u barqaror, o'tkazilishi mumkin bo'lgan va kontekstdan nisbatan mustaqil xususiyat kasb etadi [9].

Muhokama. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari (DTS 2022) tahlili pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar tizimini ushbu normativ hujjat bilan integratsiya qilishning muayyan imkoniyatlarini ko'rsatadi [6]. Biroq bu integratsiya hozircha to'liq amalga oshirilmagan: DTS 2022 pedagogik liderlik kompetensiyalarini alohida blok sifatida belgilamagan.

DTS 2022 va pedagogik liderlik talablari o'rtasida integratsiya imkoniyati mavjud — biroq uni amalga oshirish uchun bir nechta aniq qadamlar talab etiladi. Birinchi qadam: DTS ga pedagogik liderlik kompetensiyalari blokini alohida va aniq ko'rsatkichlar bilan kiritish. Ikkinchi qadam: oliy ta'lim muassasalarining ingliz tili yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlariga liderlik komponentini integratsiya qiladigan maxsus modul yoki kursni kiritish. Uchinchi qadam: pedagogik amaliyot tizimini qayta tashkil etib, unda talabalarga liderlik rollarini bajarishga imkon beruvchi tuzilmaviy sharoitlar yaratish.

Ushbu qadamlarni amalga oshirish faqat me'yoriy o'zgarishlarni emas, balki institutsional darajada ham madaniy, ham metodologik o'zgarishlarni taqozo etadi. Ghamrawi va boshqalar (2025) yaxlit liderlik tizimi shakllangan muassasalarda o'quvchi natijalari, o'qituvchi kasbiy qoniqishi va muassasa innovatsion faolligining bir vaqtda oshishini empirik jihatdan isbotlagan [11]. Bu natija

O'zbekiston uchun ham aniq yo'nalish ko'rsatadi: pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish — bu faqat individual o'qituvchining ishi emas, balki muassasa miqyosidagi tizimli investitsiyadir.

Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan bir qator jihatdan hamohang: Wieczorek va Lear (2025) taklif etgan yetti domenli liderlik amaliyoti modeli, xuddi mazkur tadqiqotdagi kabi, liderlikni yagona ko'nikma emas, balki o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida talqin qiladi [12]. Shu bilan birga, OECD TALIS 2024 natijalari o'qituvchi liderligini rivojlantirishda institutsional qo'llab-quvvatlash muhim omil ekanligini tasdiqlaydi [13], bu esa mazkur tadqiqotning DTS 2022 bilan integratsiya zarurligi haqidagi xulosasini mustahkamlaydi. Ayni paytda, ushbu tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan talablar tizimi hozircha faqat nazariy-tahliliy asosga ega bo'lib, uning amaliy samaradorligi tajriba-sinov sharoitida hali tekshirilmagan — bu keyingi tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishini belgilaydi.

Xulosa. Birinchi xulosa. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning eng mos metodologik asosi hisoblanadi, chunki u liderlik sifatlarini abstrakt tushuncha emas, balki o'lchanadigan, rivojlantiriladigan va baholanadigan faoliyat natijasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Ikkinchi xulosa. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar oltita o'zaro bog'liq tur — kognitiv, kommunikativ, kreativ-innovatsion, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy-ma'naviy va metakognitiv — sifatida tizimli tasniflanishi lozim. Har bir talabga mos o'lchanadigan ko'rsatkichlar va rivojlantirish vositalarining belgilanishi bu talablarni o'quv dasturlarida amaliy qo'llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xutorskoy A.V. Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. — 2003. — № 2. — S. 58–64.
2. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vyshee obrazovanie segodnya. — 2003. — № 5. — S. 34–42.
3. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification // Defining and Selecting Key Competencies / Ed. D.S. Rychen, L.H. Salganik. — Göttingen: Hogrefe, 2001. — P. 45–65.
4. OECD. Definition and Selection of Competencies (DeSeCo): Theoretical and Conceptual Foundations. — Paris: OECD, 2002. — 43 p.
5. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning: A European Reference Framework. — Luxembourg: Publications Office of the EU, 2007. — 12 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-sentyabrdagi 513-sonli «Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori. — Toshkent, 2022.
7. Tolipov O'Q. Pedagogika: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. — 480 b.
8. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. — 210 b.
9. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. — 8th ed. — Los Angeles: SAGE Publications, 2019. — 600 p.
10. Spillane J.P. Distributed Leadership. — San Francisco: Jossey-Bass, 2006. — 136 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. — Toshkent, 2022.

Агата ОСИПОВА,

PhD, доцент кафедры русской литературы
и методики обучения Узбекского государственного
университета мировых языков
agata10@mail.ru

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ФОЛЬКЛОРУ КИТАЙСКИХ СТУДЕНТОВ

Аннотация: статья посвящена проблеме преподавания русского фольклора китайским студентам, изучающим русский язык и русскую культуру. Актуальность исследования обусловлена необходимостью формирования у иностранных учащихся не только знаний о жанровой системе русского фольклора, но и способности понимать национально-культурную специфику фольклорных текстов. Русский фольклор содержит значительное количество реалий, символов, образов, фразеологизмов, историко-культурных и этнографических сведений, которые могут быть недостаточно понятны китайским студентам вследствие существенных различий между русской и китайской культурными традициями. В статье рассматриваются основные трудности восприятия фольклорных произведений: лингвистические, культурологические, символические, коммуникативные. Предлагается система методических приёмов, основанная на сочетании лингвокультурологического, коммуникативного, сравнительно-сопоставительного и деятельностного подходов.

Ключевые слова: русский фольклор, китайские студенты, русский язык как иностранный, методика преподавания, лингвокультурология, межкультурная коммуникация, народная культура, фольклорный текст.

Annotatsiya: maqola rus tilini va rus madaniyatini o'rganayotgan xitoylik talabalarga rus folklorini o'qitish muammosiga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi xorijiy talabalarda nafaqat rus folklorining janrlar tizimi haqida bilimlarni, balki folklor matnlarining milliy-madaniy o'ziga xosligini anglash qobiliyatini ham shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Rus folklori tarkibida ko'plab realiyalar, ramzlar, obrazlar, frazeologizmlar, tarixiy-madaniy va etnografik ma'lumotlar mavjud bo'lib, rus va xitoy madaniy an'analari o'rtasidagi sezilarli farqlar tufayli ular xitoylik talabalar uchun yetarli darajada tushunarli bo'lmisligi mumkin. Maqolada folklor asarlarini idrok etishdagi asosiy qiyinchiliklar — lingvistik, madaniyatshunoslik, ramziy va kommunikativ qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Lingvomadaniy, kommunikativ, qiyosiy-chog'ishtirma va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarni uyg'unlashtirishga asoslangan metodik usullar tizimi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: rus folklori, xitoylik talabalar, rus tili chet tili sifatida, o'qitish metodikasi, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, xalq madaniyati, folklor matni.

Annotation: the article addresses the problem of teaching Russian folklore to Chinese students studying the Russian language and Russian culture. The relevance of the study is determined by the need to develop among foreign learners not only knowledge of the genre system of Russian folklore but also the ability to understand the national and cultural specificity of folklore texts. Russian folklore contains a considerable number of culture-specific realia, symbols, images, phraseological units, and historical, cultural, and ethnographic information, which may be insufficiently comprehensible to Chinese students due to significant differences between Russian and Chinese cultural traditions. The article examines the main difficulties involved in the perception of folklore works, including linguistic, cultural, symbolic, and communicative difficulties. A system of methodological techniques based on the combination of linguocultural, communicative, comparative-contrastive, and activity-based approaches is proposed.

Key words: Russian folklore, Chinese students, Russian as a foreign language, teaching methodology, linguocultural studies, intercultural communication, folk culture, folklore text.

Введение. В современной системе преподавания русского языка как иностранного всё большее значение приобретает обращение к национальной культуре. Знание грамматической системы и лексического состава языка не обеспечивает полноценного владения иностранным языком, если учащийся не способен интерпретировать культурные значения языковых единиц и текстов. Особенно важное место в этом отношении занимает фольклор, который представляет собой один из наиболее древних и устойчивых способов выражения национального мировосприятия. Русский фольклор является важнейшей частью национальной культуры. В народных сказках, былинах, песнях, пословицах, поговорках, загадках и других жанрах отражены представления русского народа о добре и зле, семье, труде, природе, судьбе, справедливости, героизме, человеческих отношениях.

Для китайских студентов изучение русского фольклора представляет особую сложность. Это связано не только с языковыми трудностями, но и с различием культурных кодов. Многие образы, символы и модели поведения, естественные для носителя русского языка, требуют специального комментария для иностранного учащегося. Например, такие образы, как избушка на курьих ножках, Иван-дурак, Баба-яга, Кощей Бессмертный, тридевятое царство, красная девица, не могут быть полностью поняты исключительно на основе словарного значения. Они являются элементами более широкой русской культурной системы. Следовательно, задача преподавателя состоит не только в том, чтобы объяснить содержание фольклорного произведения, но и в том, чтобы раскрыть его культурную семантику. Для этого постараемся определить эффективные методы преподавания русского фольклора китайским студентам и предложить систему практических приёмов, направленных на формирование у них языковой и межкультурной компетенции.

Основная часть. Фольклор обладает значительным образовательным потенциалом, поскольку объединяет языковую, историческую, культурную и эстетическую информацию. В отличие от специально созданного учебного текста, фольклорное произведение содержит большое количество культурно маркированных

элементов. Именно поэтому его использование в преподавании русского языка позволяет одновременно решать несколько задач: расширять словарный запас студентов, формировать навыки чтения и аудирования, развивать устную речь, знакомить с русской национальной культурой, формировать представления о традициях русского народа и другие.

Фольклорный текст следует рассматривать как своеобразный «культурный код». Например, русская народная сказка «Колобок» содержит не только повествование о персонаже, который убегает от своих преследователей. В ней представлены характерные для русского фольклора модели повторения (кумуляция), композиционной организации, формулы начала и завершения повествования, речевые клише. Аналогично сказка «Репка» может использоваться для изучения лексики по темам «семья», «родственные отношения», «труд», а также для формирования грамматических навыков. Таким образом, фольклорный материал обладает интегративным характером: один текст может использоваться одновременно для обучения языку и знакомства с культурой. Однако, при усвоении русского фольклора китайскими студентами возникает ряд существенных трудностей, которые можно разделить на четыре основные группы:

1. Лингвистические трудности (к ним относятся незнакомая лексика, устаревшие слова, диалектизмы, фразеологизмы, уменьшительно-ласкательные формы, сложные синтаксические конструкции и т.д.). Например, в былинах встречаются слова: богатырь, витязь, дружина, князь, терем, воевода, стольный град. Для современного русского студента часть этих слов может быть понятна интуитивно, тогда как китайскому учащемуся требуется специальный комментарий.

2. Культурологические трудности (студенту необходимо объяснять значения предметов и явлений традиционной культуры: печь, изба, баня, самовар, рушник, сарафан, кокошник, ярмарка, Масленица).

3. Символические трудности (определённые образы имеют устойчивое культурное значение. Например: лес – пространство неизвестности и

испытания, дорога – путь героя, берёза – один из устойчивых образов русской культуры и др.).

4. Коммуникативные трудности (студент может понять отдельные слова, но не понять ситуацию общения. Например, пословица «Не имей сто рублей, а имей сто друзей» требует не только знания лексики, но и понимания культурной установки, связанной с ценностью человеческих отношений и взаимопомощи).

Преодоление указанных трудностей китайскими студентами при изучении русского фольклора должно осуществляться комплексно: от снятия лексических трудностей – к объяснению культурных реалий, от понимания реалий – к интерпретации символических значений и далее – к осмыслению коммуникативной ситуации. Эффективность такого подхода повышается при использовании визуализации, контекстуального комментирования русской и китайской культур, проблемных вопросов и интерактивных заданий. Также одним из наиболее эффективных методов обучения китайских студентов русскому фольклору является сопоставление русского и китайского фольклора. Сравнение позволяет снять ощущение абсолютной чуждости изучаемого материала. Важно показать студенту, что русская и китайская культуры имеют общие универсальные мотивы, хотя способы их художественного выражения различаются. Например, в обеих традициях существуют народные сказки, легенды, мифологические персонажи, пословицы и т.д. Преподаватель может предложить студентам сопоставить русскую и китайскую сказку по образам героев, испытаниям, финалу и т.п., что, на наш взгляд, позволяет студенту обнаружить универсальные структуры и одновременно увидеть национальную специфику.

Заключение. Преподавание русского фольклора китайским студентам представляет собой сложную, но перспективную область

методики русского языка как иностранного. Фольклорный материал обладает значительным потенциалом для формирования языковой, коммуникативной и межкультурной компетенции, однако его использование требует учёта специфики китайской аудитории. Основная трудность заключается в том, что иностранный студент воспринимает фольклорный текст одновременно на нескольких уровнях: языковом, сюжетном, культурном и символическом. Если преподаватель ограничивается объяснением лексики и содержания, значительная часть национально-культурной информации остаётся недоступной учащемуся. Поэтому наиболее эффективной представляется комплексная методика, основанная на сочетании лингвокультурологического, коммуникативного, сравнительно-сопоставительного, визуального подходов. Особенно важным для китайских студентов является сопоставление русского и китайского фольклора. Такое сопоставление позволяет одновременно выявить универсальные элементы народной культуры и показать своеобразие национальных традиций. Сравнительный анализ сказок, пословиц, песен и праздников способствует формированию способности воспринимать другую культуру не как совокупность разрозненных фактов, а как целостную систему ценностей и образов.

Таким образом, преподавание русского фольклора китайским студентам должно быть ориентировано не только на передачу знаний о народной культуре, но и на формирование способности понимать, интерпретировать и использовать культурно маркированную информацию в процессе межкультурной коммуникации. Именно такой подход позволяет превратить фольклор в эффективный инструмент изучения русского языка и русской национальной картины мира.

Charos ISLOMOVA,

Teacher English language and teaching

Navoi Innovations University

PHD student Navoi State University

Email: charosislomova0712@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0001-9691-0628>



COMPARATIVE ANALYSIS OF GRADONYMIC RELATIONS IN UZBEK AND ENGLISH ADJECTIVAL PHRASES

Annotation: this article presents a comparative-typological analysis of gradonymic relations within adjectival phrases in Uzbek and English. It reveals the structural differences between the analytic degree category of English and the agglutinative suffix -roq, intensifiers, and reduplication in Uzbek. The findings are relevant for translation studies and foreign-language teaching practice.

Keywords: *gradonymy, gradonymic relations, adjectival phrase, degree category, comparative typology, English language, Uzbek language, intensifiers, reduplication, syntactic unit.*

Аннотация: в статье проводится сопоставительно-типологический анализ градуонимических отношений в адъективных словосочетаниях узбекского и английского языков. Раскрываются структурные различия между аналитической категорией степени в английском языке и агглютинативным суффиксом -roq, интенсификаторами и редупликацией в узбекском языке. Результаты исследования имеют значение для переводоведения и практики преподавания иностранного языка.

Ключевые слова: *градуонимия, градуонимические отношения, адъективное словосочетание, категория степени, сопоставительная типология, английский язык, узбекский язык, интенсификаторы, редупликация, синтаксическая единица.*

Annotatsiya: maqolada o'zbek va ingliz tillari sifat so'z birikmalaridagi graduonimik munosabatlar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Ingliz tilining analitik daraja kategoriyasi bilan o'zbek tilining agglutinativ -roq qo'shimchasi, kuchaytiruvchi so'zlar va reduplikatsiya usuli o'rtasidagi struktur farqlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik va chet tili o'qitish amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *graduonimiya, graduonimik munosabatlar, sifat so'z birikmasi, daraja kategoriyasi, qiyosiy tipologiya, ingliz tili, o'zbek tili, kuchaytiruvchilar, reduplikatsiya, sintaktik birlik.*

INTRODUCTION

Among the semantic relations that structure a language's lexicon and grammar — synonymy, antonymy, hyponymy — gradation occupies a special place because it is realized not only lexically but also, and often primarily, syntactically. A gradonymic relation can be defined as the relation holding between two or more units, most often adjectives or adjectival phrases, that denote different degrees of one and the same gradable property. Unlike synonyms, gradonyms are not interchangeable without a change of meaning; unlike antonyms, they do not oppose two poles but occupy successive points on a single scale (Alimova & Rasulov, 2022, pp. 163–168). The theoretical foundation of gradability goes back to Sapir's (1944) classic study of

grading and to Bolinger's (1972) monograph on degree words, both establishing that gradation is realized through dedicated grammatical positions, not merely lexical items.

The adjectival phrase (AdjP) is the primary syntactic unit in which gradonymic relations are grammatically encoded, since it is here that degree words, comparative morphology, and intensifying modifiers combine with the head adjective. This article narrows the broader dissertation problem of gradonymic relations across syntactic units of Uzbek and English to this one domain, aiming to (1) identify the formal means each language uses to encode gradonymic relations within the AdjP, (2) establish how these means differ typologically, and (3) draw

conclusions for translation and for teaching English gradation to Uzbek-speaking learners.

TOPICALITY OF THE THEME AND THE CURRENT STATE OF THE PROBLEM

The topicality of contrastive English-Uzbek research has grown considerably in connection with Uzbekistan's education reforms, including the 2012 presidential decree (PQ-1875) on foreign-language teaching, which increased the practical demand for typologically grounded descriptions of English-Uzbek structural correspondences. The category of degrees of comparison is well described separately in each tradition: Kaushanskaya et al. (2008) and Rayevska (2009, p. 72) present the English positive-comparative-superlative paradigm, Iriskulov (2006, pp. 21-23) separates grammatical from lexical gradation, and Maksumov (2016, pp. 102-110) treats degree modifiers as a functional subclass of adverbs, while Alimova and Rasulov (2022, pp. 163-168) give the most systematic account of Uzbek comparison and intensification.

Despite this descriptive base, gradonymy as an explicit category of semantic-syntactic relations — distinct from synonymy and antonymy — remains under-theorized in English-Uzbek contrastive grammar at the level of the adjectival phrase. Related contrastive work (Islomova, 2025) confirms that structural mismatches between the two languages generate transfer errors but does not treat gradation as a discrete typological problem, which defines the topicality of the present study.

RESEARCH METHODOLOGY

The study applies a qualitative, contrastive-typological method following the procedure outlined by Alimova and Rasulov (2022). Adjectival phrases expressing graded quality were collected from English and Uzbek reference grammars (Iriskulov, 2006; Kaushanskaya et al., 2008; Rayevska, 2009; Maksumov, 2016; Alimova & Rasulov, 2022) and dictionaries, covering four semantic fields: dimension, colour, temperature, and evaluation. Each unit was classified by (a) the syntactic position of the gradation marker, (b) whether it is bound or free, and (c) the number of degree-steps conventionally marked within one AdjP. For each field a gradonymic chain was built independently for English and Uzbek and the two chains were then compared for formal parallelism, inventory size, and language-specific mechanisms lacking a counterpart in the other language.

ANALYSIS OF THE RESULTS OBTAINED

1. Grammatical gradation

English marks comparison morphologically for short adjectives (small – smaller – smallest) and analytically for longer ones (beautiful – more beautiful – most beautiful) (Kaushanskaya et al., 2008). Uzbek marks the comparative with the single suffix *-roq* regardless of the adjective's weight (*kichik* – *kichikroq*) and the superlative analytically with *eng* (*eng kichik*). The table illustrates a parallel chain:

Daraja bosqichi	English	O'zbek
Neutral / positive	small	kichik
Diminished	rather small	birmuncha kichik
Comparative	smaller	kichikroq
Superlative	(the) smallest	eng kichik
Heightened	very / extremely small	juda / behad kichik
Expressive	— (tiny, minuscule)	mitti-kichkina

2. Lexical gradation (intensifiers)

Both languages order an open class of degree adverbs along a fixed intensity cline (Maksumov, 2016, pp. 102-110), occupying the specifier position of the AdjP in both cases:

English intensifier cline	Uzbek intensifier cline
slightly	birmuncha
fairly	ancha
rather	ancha-muncha
quite	juda
very	nihoyatda
extremely	behad
absolutely	mutlaqo

3. Reduplication — an Uzbek-specific device

Uzbek possesses a productive strategy unavailable to English: reduplication of the adjective's initial syllable with a linking consonant — katta → kap-katta, yashil → yam-yashil, yangi → yap-yangi — functioning as an emphatic gradonym equivalent to English huge, brilliant green. English lacks this morphological device, so the effect is rendered periphrastically, a recurrent source of translation loss.

4. Syntactic locus and implications

Both languages converge on the same AdjP architecture (Modifier* + Adjective + Suffix) but diverge in the size of the modifier inventory, since Uzbek additionally includes the reduplicative strategy. Uzbek learners of English tend to under-use English degree adverbs, transferring the compactness of -roq, or over-use intensifiers to compensate for reduplication they cannot transfer directly, paralleling L1-transfer findings elsewhere in English-Uzbek contrastive grammar (Islomova, 2025). For translators, the reduplicative gradonym proved the most translation-resistant unit in this analysis.

CONCLUSION

Gradonymic relations in adjectival phrases are organized around the same two structural positions in Uzbek and English — a proposed intensifier slot and a suffixal degree slot — supporting gradonymy as a typologically comparable category across analytic and agglutinative languages. At the same time, English gradation relies mainly on a graded set of degree adverbs and a length-conditioned suffixal/analytic split, while Uzbek combines the uniform suffix -roq, the marker eng, a rich intensifier paradigm, and a distinctive reduplicative strategy absent from English. These findings support the broader dissertation claim that gradonymic relations, while typologically universal in principle, are realized through language-specific syntactic mechanisms of direct value for translation studies and for teaching English adjectival gradation to Uzbek-speaking learners; further stages of the research will extend this procedure to the verb phrase and the simple sentence.

REFERENCES

1. Iriskulov A.T. Theoretical Grammar of English. — T., 2006. — P. 21-23.
2. Kaushanskaya V.L. et al. Grammar of the English Language. — M.: Iris Press, 2008. — 197 p.
3. Rayevska N.M. Modern English Grammar. — Bishkek: Institute of Strategic Information Technologies in Education, 2009. — P. 72.
4. Alimova M.X., Rasulov Z.I. Comparative Typology of the English and Uzbek Languages. Coursebook. — Bukhara: Durdona, 2022. — P. 163-168.
5. Maksumov A.G. English Grammar: Theory and Usage. — T.: Cho'lpon Publishing House, 2016. — P. 102-110.
6. Islomova Ch.B. The Impact of Early Second Language Learning on the Native Language: A Comparative Study of English and Uzbek // Modern Scientific Research International Scientific Journal, Vol. 3, Issue 8, 2025. — P. 38-43.
7. Lyons J. Semantics. Vol. 2. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
8. Cruse D.A. Lexical Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
9. Sapir E. Grading: A Study in Semantics // Philosophy of Science, Vol. 11, No. 2, 1944. — P. 93-116.
10. Bolinger D. Degree Words. — The Hague: Mouton, 1972.

The background is a light blue surface with various educational items. At the top left is a yellow ruler. At the top center is an orange with two green leaves. At the top right is a blue spiral notebook. On the left side is a pink book with a white label. On the right side is a rolled-up white diploma tied with a blue ribbon. At the bottom center is an open book with a yellow cover, and a globe of the Earth is placed on its pages. At the bottom left is a green pencil, and at the bottom right is a red pencil. Small white and colored dots are scattered across the background.

PEDAGOGIKA

Dildora SOLIXO'JAYEVA,
Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

INKLYUZIV TA'LIM VA NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALAR: OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK

Annotatsiya: ushbu maqola nogironligi bo'lgan talabalar uchun INKLYUZIV ta'lim muhitini yaratishning ahamiyatini ko'rsatadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy integratsiya va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada xorijiy tajribalar, amaliy misollar va tavsiya etilgan o'zgarishlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: *INKLYUZIV ta'lim, nogironlik, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, hamkorlik, ijtimoiy integratsiya, assistiv texnologiyalar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается важность создания инклюзивной образовательной среды для студентов с ограниченными возможностями. Сотрудничество между семьей, сообществом и образовательными учреждениями играет ключевую роль в социальной интеграции и повышении качества образования для таких студентов. В статье представлены зарубежные примеры, практические аспекты и рекомендации по необходимым изменениям. Исследование предлагает новые подходы к развитию образовательной системы для студентов с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, инвалидность, семья, сообщество, образовательные учреждения, сотрудничество, социальная интеграция, ассистивные технологии.*

Annotation: this article highlights the importance of creating an inclusive educational environment for students with disabilities. Collaboration among families, communities, and educational institutions plays a crucial role in the social integration and enhancement of educational quality for these students. The article presents foreign experiences, practical examples, and recommended changes. The research offers new approaches for developing the educational system for students with disabilities.

Key words: *inclusive education, disability, family, community, educational institutions, collaboration, social integration, assistive technologies.*

Ta'lim muassasalari nogironligi bo'lgan talabalarni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash va ularning o'qish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalari INKLYUZIV ta'lim yondashuvini qo'llash orqali nogironligi bo'lgan talabalarni jalb etishlari kerak. Bu, o'z navbatida, barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar nogironligi bo'lgan talabalar bilan ishlash uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Ta'lim muassasalari assistiv texnologiyalarni joriy etish orqali nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayonini osonlashtirishi mumkin. Bu texnologiyalar o'qitishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, nogironligi bo'lgan talabalar uchun muhimdir, chunki bu ularga ijtimoiy integratsiya va

rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ushbu hamkorlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishi kerak:

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida ma'lumot almashish muhimdir. Ota-onalar, o'qituvchilar va mahalla a'zolari nogironligi bo'lgan talabalar haqida bir-birlariga ma'lumot berish orqali ularning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari birgalikda tadbirlar o'tkazish orqali nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bunday tadbirlar ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi va talabalar o'rtasida do'stlikni rivojlantiradi.

Dunyo bo'ylab nogironligi bo'lgan talabalar soni 1 milliarddan ortiq. Ularning ta'limga kirishi, ijtimoiy faoliyati va kelajakdagi muvaffaqiyatlari ko'pincha ularning atrofidagi muhitga bog'liq. Shuning uchun, INKLYUZIV ta'lim tizimini rivojlantirish, jamiyatning har bir a'zosining mas'uliyatidir.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalarning 90% dan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi va ko'p hollarda ta'limdan mahrum bo'ladi. Ushbu maqola nogironligi bo'lgan talabalar uchun INKLYUZIV ta'lim muhitini yaratishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik.

Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nogironligi bo'lgan talabalar uchun muhimdir. Oila bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, ularning ehtiyojlarini tushunishi va qo'llab-quvvatlashi kerak. Ota-onalar bilan ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish, masalan, muntazam uchrashuvlar, ota-onalar yig'ilishlari va ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtirokini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Oila nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'limga qiziqishni oshirishda yordam berishi mumkin. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida ishtirok etishlarini rag'batlantirish orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradilar. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshiradi.

Oila psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Nogironligi bo'lgan talabalar ko'pincha o'zlarini izolyatsiya qilingan his qilishlari mumkin. Oila a'zolari ularning his-tuyg'ularini tushunish va ularga yordam berish orqali ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydilar.

Mahalla ijtimoiy muhitni shakllantiradi va nogironligi bo'lgan talabalar uchun qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma yaratadi. Mahalla vakillari, ota-onalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalar nogironligi bo'lgan talabalarni jamiyatga integratsiyalashishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalla nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Mahalla jamoasi nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda faol ishtirok etishi kerak.

Mahallalarda nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy dasturlar va tadbirlar tashkil etish, ularni jamiyatga integratsiyalashishda yordam beradi.

Misol uchun, "Ijtimoiy integratsiya" dasturi doirasida, nogironligi bo'lgan talabalar uchun sport tadbirlari va madaniy faoliyatlar o'tkaziladi.

Mahalla nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy faollikni oshirishda yordam berishi mumkin. Mahalla tadbirlari va faoliyatlari nogironligi bo'lgan talabalarni jalb etish va ularni jamiyatga integratsiya qilish uchun yaxshi imkoniyatdir.

Mahalla nogironligi bo'lgan talabalar uchun zarur resurslar va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Mahalliy tashkilotlar va ijtimoiy xizmatlar nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda yordam ko'rsatishi mumkin.

Xorijda, masalan, Kanada va Norvegiyada INKLYUZIV ta'lim tizimlari muvaffaqiyatli ishlayotqda. Bu mamlakatlarda oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilgan. Oila va mahalla vakillari ta'lim jarayoniga jalb etilgan, bu esa nogironligi bo'lgan talabalar uchun qo'shimcha yordam va resurslar taqdim etadi.

Mamlakatlar o'rtasidagi farqlar.

Norvegiyada mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida yirik loyihalar amalga oshiriladi, bu esa nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, ko'pincha resurslarning yetishmasligi va ta'lim tizimining zaifligi sababli, nogironligi bo'lgan talabalar uchun imkoniyatlar cheklangan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nogironligi bo'lgan talabalar uchun intellektual kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlikni kuchaytirish uchun ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar talab etiladi.

Tavsiya etilgan o'zgarishlar:

1. Ota-onalar va mahalla vakillarining ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirish: maktablar ota-onalarga ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishi kerak.

2. O'qituvchilarni tayyorlash: o'qituvchilar nogironligi bo'lgan talabalar bilan ishlash uchun kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida INKLYUZIV ta'lim bo'yicha maxsus modullar kiritilishi zarur.

3. Assistiv texnologiyalarni joriy etish: ta'lim muassasalari assistiv texnologiyalarni joriy etish

orqali nogironligi bo'lgan talabalar uchun o'qitishni osonlashtirishi mumkin. Masalan, maxsus dasturlar, audio va video materiallar yordamida ta'lim jarayonini boyitish mumkin.

INKLYUZIV ta'limning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri nogironligi bo'lgan talabalar uchun nafaqat ta'lim, balki ish bilan ta'minlash va ijtimoiy integratsiyaga ham yordam beradi. Ta'lim olish imkoniyatlari kengayganda, nogironligi bo'lgan talabalar jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nogironligi bo'lgan talabalar uchun INKLYUZIV ta'lim muhitini yaratishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday hamkorliklar nogironligi bo'lgan talabalar uchun intellektual kompetentlikni rivojlantirishda ijobiy natijalar beradi. Kelajakda, ushbu sohada yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish va amaliyotlarni rivojlantirish zarur.

INKLYUZIV ta'lim nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayonini boyitadi va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, assistiv texnologiyalar va o'qituvchilarni tayyorlash orqali INKLYUZIV ta'limni rivojlantirish mumkin. Ushbu yondashuv nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faollikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

INKLYUZIV ta'limning kelajagi haqida fikrlar. Yana qanday tadqiqotlar o'tkazilishi kerakligini ko'rsatish. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali nogironligi bo'lgan talabalar uchun yanada yaxshi sharoitlar yaratish mumkin.

Oila, ta'lim muassasalari va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun qo'shimcha tavsiyalar. Jamiyatda nogironligi bo'lgan talabalar uchun ijtimoiy dasturlar va tadbirlarni kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhimdir.

Nogironligi bo'lgan talabalar uchun ta'lim jarayoni oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik orqali yanada samarali bo'ladi. Ushbu hamkorlik nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlar nogironligi bo'lgan talabalar uchun yanada qulay ta'lim muhitini yaratadi.

Ota-onalar va jamiyatning INKLYUZIV ta'lim jarayonida ishtiroki muhimdir. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, ularning ehtiyojlarini tushunishi va qo'llab-quvvatlashi kerak. Jamiyat esa nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy dasturlar va tadbirlar tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ainscow, M. (2005). Developing Inclusive Education Systems: The Role of School Leadership.
2. Hornby, G. (2014). Inclusive Special Education: Evidence-Based Practices for Children with Special Needs and Disabilities.
3. UNESCO. (2009). Policy Guidelines on Inclusion in Education.
4. Nind, M. L., et al. (2015). Inclusive Education: A Global Perspective.
5. Slee, R. (2011). The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education.
6. BMT (2020). Disability and the Sustainable Development Goals.

Madina GANIXANOVA,
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti



MUHANDISLIK TA'LIMI YO'NALISHIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MULTIMODAL VA INTERFAOL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada muhandislik ta'limi yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida multimodal (matn, tasvir, audio, video, animatsiya) va interfaol materiallardan foydalanishning pedagogik salohiyati tahlil qilinadi. Xorijiy tadqiqotlar asosida bunday materiallarning talabalar motivatsiyasi, kasbiy leksika o'zlashtirishi va kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri yoritiladi hamda mahalliy amaliyotga tatbiq etish yo'llari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *multimodal materiallar, interfaol o'qitish, muhandislik ta'limi, English for Specific Purposes (ESP), kasbiy kommunikativ kompetensiya, talabalar motivatsiyasi, raqamli ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация: в статье анализируется педагогический потенциал использования мультимодальных (текст, изображение, аудио, видео, анимация) и интерактивных материалов при обучении английскому языку студентов инженерных направлений. На основе зарубежных исследований освещается влияние таких материалов на мотивацию студентов, усвоение профессиональной лексики и развитие коммуникативной компетенции, а также предлагаются рекомендации по их применению в местной практике.

Ключевые слова: *мультимодальные материалы; интерактивное обучение; инженерное образование; English for Specific Purposes (ESP); профессиональная коммуникативная компетенция; мотивация студентов; цифровые образовательные технологии.*

Annotation: this article analyzes the pedagogical potential of multimodal (text, image, audio, video, animation) and interactive materials in teaching English to engineering students. Drawing on international research, it examines the impact of such materials on student motivation, professional vocabulary acquisition, and communicative competence, and offers recommendations for their application in local practice.

Key words: *multimodal materials; interactive teaching; engineering education; English for Specific Purposes (ESP); professional communicative competence; student motivation; digital educational technologies.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhandislik yo'nalishi talabalarini xorijiy tilga o'qitish nafaqat umumiy kommunikativ ko'nikmalarni, balki kasbiy-texnik matnlar bilan ishlash, texnik hujjatlarni tushunish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Bunday ehtiyoj — ESP (English for Specific Purposes) yondashuvining markazida turadi, bu yerda o'quv jarayoni talabning aniq kasbiy maqsadlariga bog'liq holda loyihalanadi [1: 19].

An'anaviy matn markazlashgan o'qitish usullari muhandislik talabalarining texnik-vizual fikrlash uslubiga har doim ham mos kelavermaydi. Muhandislik talabalari ko'pincha chizmalar, sxemalar, diagrammalar va vizual namoyishlar orqali fikrlashga

moyil bo'ladi, shu sababli faqat matnga asoslangan til o'qitish materiallari ularning bilim olish ehtiyojini to'liq qondirmasligi mumkin [2: 1581]. Shu bois so'nggi yillarda xalqaro amaliyotda multimodal — ya'ni matn, tasvir, audio, video va animatsiya kabi bir nechta semiotik kanalni birlashtirgan — hamda interfaol (interactive) materiallardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — muhandislik ta'limi yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda multimodal va interfaol materiallardan foydalanishning pedagogik asoslarini, xorijiy tadqiqotlarda qayd etilgan natijalarini tahlil qilish hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida bu yondashuvni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning

vazifalari quyidagilardan iborat: 1) multimodal ta'lim tushunchasining nazariy asoslarini yoritish; 2) muhandislik ESP kontekstida multimodal va interfaol materiallarning samaradorligini tasdiqlovchi xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish; 3) mahalliy amaliy kuzatuvlar asosida tavsiyalar shakllantirish.

Asosiy qism. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili (literature review) usuli qo'llanildi: 2019–2025-yillar oralig'ida chop etilgan, ESP va muhandislik ta'limi kontekstida multimodal/interfaol materiallar mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy nashrlar (Scopus, Google Scholar, ScienceDirect bazalari) tanlab olindi va tizimli tahlil qilindi. Shuningdek, muallifning oliy ta'lim muassasasida ingliz tili o'qituvchisi sifatidagi kuzatuvlari umumlashtirildi.

Multimodal ta'limning nazariy asoslari. Multimodal pedagogika g'oyasi insonning ishchi xotirasi bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi axborot birliklarini qayta ishlashga qodirligini isbotlovchi Kognitiv Yuklama Nazariyasi (Cognitive Load Theory)ga tayanadi [3: 257]. Ushbu nazariyaga ko'ra, axborot bir nechta kanal (masalan, vizual va audio) orqali uzatilganda, ishchi xotiraning ikkala kanali samarali ishga tushiriladi, natijada axborotni qayta ishlash va uzoq muddatli xotiraga o'tkazish samaradorligi oshadi. Shu bois multimodal materiallar nafaqat qiziqarli taqdimot vositasi, balki kognitiv jihatdan asoslangan pedagogik vosita hisoblanadi.

ESP nazariyasida kursning mazmuni talabaning aniq kasbiy va o'quv ehtiyojlariga (needs analysis) asoslanishi lozimligi ta'kidlanadi, bunda present situation analysis, target situation analysis va learning situation analysis uch bosqichi muhim o'rin tutadi [4: 125]. Muhandislik talabalari uchun "target needs" — texnik hujjatlarni o'qish, ishlab chiqarish jarayonlarini tushuntirish, jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, bu esa faqat matn asosidagi materiallar bilan emas, balki vizual-texnik kontent (chizma, sxema, video-namoyish) bilan boyitilgan materiallar orqali samaraliroq shakllantirilishi mumkin.

Muhandislik ESP kontekstida multimodal materiallarning samaradorligi. Kiev politexnika instituti (Ukraina) muhandislik fakulteti talabalari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda multimodal resurslarning ESP darslarida talabalar motivatsiyasiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, multimodal resurslarning maqsadli integratsiyasi

talabalarining axborotni idrok etish va qayta ishlash samaradorligini oshiradi hamda ularning multimodal kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi [5: 65]. Mualliflar, xususan, texnik yo'nalish talabalari uchun multimodal yondashuvning nafaqat til o'rganish, balki kasbiy identifikatsiya jarayonida ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Boshqa bir tadqiqotda texnik ingliz tili kursida multimodallikning muhandislik talabalari uchun "harakatlantiruvchi kuch" (driving force) vazifasini bajarishi ko'rsatilgan — vizual va og'zaki kanallarning uyg'unlashuvi talabalarining texnik tushunchalarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishiga yordam bergan [2: 1585].

2024-yilda chop etilgan tizimli sharh (systematic review), 2013–2024-yillar oralig'idagi 34 ta tadqiqotni tahlil qilib, oliy ta'limda multimodal pedagogikaning qo'llanilishi umumiy o'quv natijalariga, xususan, so'z boyligi, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan [6]. Shu bilan birga, mualliflar multimodal materiallarni tanlashda o'quv maqsadiga mos kelishi va ortiqcha kognitiv yuklamaning oldini olish zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

Qozog'istonlik ESP talabalari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda raqamli autentik materiallarning (video, infografika, veb-manbalar) darslarga integratsiyasi talabalarining til kompetensiyasi va faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [7]. Xuddi shunday, aralash ta'lim (blended learning) yondashuvi asosida tashkil etilgan ESP kurslarida talabalarining o'zlashtirish darajasi an'anaviy guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan ($p < 0,001$) [8: 100].

Amaliyotdagi muammolar va imkoniyatlar. Shu bilan birga, xalqaro tizimli sharhlar ESP kurslarini joriy etishda bir qator to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi: o'qituvchilarning texnik vositalardan foydalanish malakasi yetishmasligi, mos multimodal materiallarning kamligi va institutsional infratuzilma cheklavlari shular jumlasidandir [9: 1353]. Xususan, texnik yo'nalish talabalari orasida o'tkazilgan bir so'rovda rasmiy syllabusda speaking komponenti mavjud bo'lsa-da, amaliyotda bu ko'nikma ko'pincha e'tibordan chetda qolishi qayd etilgan — buning sababi sifatida o'qituvchilarning yozma ko'nikmalarga (imtihon talablari sababli) ko'proq e'tibor qaratishi ko'rsatilgan [10: 12]. Multimodal va interfaol materiallar — xususan, video asosidagi og'zaki

topshiriqlar va simulyatsiyalar — aynan shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi mumkin.

Muallifning o'zi ishlagan oliy ta'lim muassasasidagi kuzatuvlari ham xalqaro tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi: texnik yo'nalish talabalari an'anaviy matn asosidagi darslarga nisbatan chizma, sxema va qisqa video-namoyishlar bilan boyitilgan darslarda faolroq ishtirok etishadi, ayniqsa guruh loyihalari va taqdimot topshiriqlarida bu farq yaqqol seziladi (muallifning kuzatuv tajribasi, umumlashtirilgan).

Amaliy tavsiyalar. Yuqoridagi tahlil asosida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida muhandislik yo'nalishi talabalari uchun ingliz tili kursini takomillashtirishda quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: birinchidan, kasbiy mavzular bo'yicha qisqa video-materiallar, infografika va texnik sxemalarni darslarga tizimli integratsiya qilish; ikkinchidan, talabalarining og'zaki (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish uchun taqdimot va simulyatsiya asosidagi topshiriqlarga alohida vaqt ajratish; uchinchidan, o'qituvchilarning raqamli va multimodal materiallar bilan ishlash malakasini oshirish maqsadida uslubiy

seminarlar tashkil etish; to'rtinchidan, mavjud darsliklarni mahalliy texnik yo'nalishlarga (masalan, qurilish, geodeziya, muhandislik) moslashtirilgan multimodal qo'shimcha materiallar bilan boyitish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, multimodal va interfaol materiallardan foydalanish muhandislik ta'limi yo'nalishida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy jihatdan asoslangan va amaliyotda tasdiqlangan yo'nalishi hisoblanadi. Kognitiv yuklama nazariyasi va ESP metodologiyasi bu yondashuvning nazariy zaminini tashkil etadi, xorijiy tadqiqotlar esa uning talabalar motivatsiyasi, kasbiy leksika o'zlashtirishi va kommunikativ kompetensiyasiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish o'qituvchilar malakasini oshirish, mos materiallar bazasini yaratish va institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Kelgusi tadqiqotlarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida multimodal ESP materiallarining o'quv natijalariga ta'sirini o'lchovchi empirik tadqiqotlar o'tkazish dolzarb yo'nalish sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 183 p.
2. Pinar A.G. Multimodality — The Driving Force for Engineering Undergraduates in a Course of Technical English // Universal Journal of Educational Research. 2019. — Vol. 7, No. 7. P. 1580–1589.
3. Sweller J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning // Cognitive Science. 1988. — Vol. 12, No. 2. P. 257–285.
4. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. 301 p.
5. Fedorenko S., Kravchenko T. Multimodal Resources and Students' Motivation in English for Specific Purposes // Arab World English Journal (AWEJ). 2023. — Vol. 14, No. 1. P. 59–70.
6. Rahmanu I.W.E.D., Molnár G. Multimodal Immersion in English Language Learning in Higher Education: A Systematic Review // Heliyon. 2024. — Vol. 10, No. 19. — Article e38357.
7. Gabdullina Z., Yelubayeva P., Nemtchinova E., Kunakova K., Kulzhanbekova G. Integrating Digital Authentic Materials in ESP Classrooms: Effects on Kazakh Students' Language Proficiency and Student Engagement // Forum for Linguistic Studies. 2024.
8. Aleb S., Labed Z. The Effect of Implementing the Blended Teaching Approach in ESP Courses on Students' Achievement and Attitudes // International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology (IJEDICT). 2021. — Vol. 17, No. 4. P. 93–104.
9. Indrapuri R.S.A., Mahdum, Azhar F., Erni. Challenges and Strategies in Implementing English for Specific Purposes Learning in Higher Education: A Systematic Literature Review (2018–2023) // International Journal of Innovative Research and Scientific Studies. 2025. — Vol. 8, No. 6. P. 1348–1357.
10. Venkateswara U., John D. A Survey of the Speaking Components of an ESP Course: The Students' Mindset // MEXTESOL Journal. 2021. — Vol. 45, No. 1. P. 1–19.

Gulira'no NOSIROVA,
Farg'ona shahar 4-maktab o'qituvchisi
gulihonnosirova21@gmail.com

BILINGVAL MUHITDA TIL O'ZLASHTIRISHGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV VA UNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bilingval muhitda bolalarning til o'zlashtirish jarayoni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bilingvizm sharoitida bolaning ikki tilni idrok etishi, qayta ishlashi, eslab qolishi va amaliy nutqda qo'llashi bilan bog'liq psixologik hamda lingvistik jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, ikki tillilikning bola tafakkuri, xotirasi, diqqat-e'tibori, nutqiy faolligi va kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada bilingval bolalarning til o'zlashtirishini samarali tashkil etish uchun kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan, individual va differensial yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Bilingval ta'lim jarayonida ona tili va ikkinchi til o'rtasidagi o'zaro ta'sirni to'g'ri tashkil etish, til aralashuvining tabiiy hodisa ekanini hisobga olish hamda bolaning individual psixolingvistik xususiyatlariga mos ta'lim metodlarini tanlash muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: *bilingvizm, bilingval muhit, til o'zlashtirish, psixolingvistika, nutq, tafakkur, kommunikativ kompetensiya, til aralashuvi, til interferensiyasi, maktabgacha ta'lim, ikki tillilik.*

Annotation: this article analyzes the process of language acquisition in children within a bilingual environment from a psycholinguistic perspective. The psychological and linguistic processes associated with a child's perception, processing, memorization, and use of two languages in practical speech under conditions of bilingualism are highlighted. It also examines the impact of bilingualism on a child's thinking, memory, attention, speech activity, and communicative competence. The article reveals the pedagogical possibilities of communicative, activity-oriented, individual, and differential approaches for the effective organization of language acquisition in bilingual children. In the process of bilingual education, the importance of correctly organizing the interaction between the mother tongue and the second language, taking into account that language interference is a natural phenomenon, and choosing educational methods that correspond to the individual psycholinguistic characteristics of the child is substantiated.

Key words: *bilingualism, bilingual environment, language acquisition, psycholinguistics, speech, thinking, communicative competence, language interference, language interference, preschool education, bilingualism.*

Аннотация: в данной статье с психолингвистической точки зрения анализируется процесс усвоения языка детьми в билингвальной среде. В условиях билингвизма освещены психологические и лингвистические процессы, связанные с восприятием, обработкой, запоминанием и использованием ребенком двух языков в практической речи. Также рассматривается влияние двуязычия на мышление, память, внимание, речевую активность и коммуникативную компетенцию ребенка. В статье раскрываются педагогические возможности коммуникативного, деятельностно-ориентированного, индивидуального и дифференцированного подходов для эффективной организации усвоения языка билингвальными детьми. Обоснована важность правильной организации взаимодействия между родным и вторым языками в процессе билингвального образования, учета того, что языковое вмешательство является естественным явлением, а также выбора методов обучения, соответствующих индивидуальным психолингвистическим особенностям ребенка.

Ключевые слова: *билингвизм, билингвальная среда, овладение языком, психолингвистика, речь, мышление, коммуникативная компетенция, языковая интерференция, языковая интерференция, дошкольное образование, билингвизм.*

Kirish. Bugungi globallashuv va xalqaro kommunikatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ikki va undan ortiq tillarni bilish hamda ulardan samarali foydalanish shaxsning muhim kompetensiyalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ko'p millatli va ko'p tilli jamiyatlarda bolalarning bir vaqtning o'zida ikki til ta'sirida ulg'ayishi tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda bolaning tilni

qanday o'zlashtirishi, ikki til o'rtasida qanday munosabat shakllanishi va mazkur jarayonda psixologik omillarning qanday rol o'ynashi muhim ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Bilingval muhit deganda bolaning kundalik hayotida ikki tilning muntazam ravishda qo'llanilishi tushuniladi. Bunda tillardan biri oilada, ikkinchisi esa ta'lim muassasasida

yoki ijtimoiy muhitda faol ishlatilishi mumkin. Ayrim hollarda esa bola ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari va pedagoglari bilan turli tillarda muloqot qiladi. Natijada bolaning til tajribasi bir tilli muhitdagi bolalarnikidan sezilarli darajada farq qiladi.

Til o'zlashtirish faqat lug'at boyligini egallash yoki grammatik qoidalarni yodlashdan iborat emas. U eshitish, idrok etish, xotirada saqlash, qayta ishlash, ma'no hosil qilish, gap tuzish va kommunikativ vaziyatga mos ravishda nutqiy vositalarni tanlash kabi murakkab psixolingvistik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli bilingval bolalarning til rivojlanishini o'rganishda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda psixologik va pedagogik omillarni ham hisobga olish zarur.

Bilingvizm tushunchasi va uning psixolingvistik mohiyati. Bilingvizm yoki ikki tillilik shaxsning ikki tildan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Biroq bilingvizmi faqat ikki tilni mukammal bilish sifatida tushunish to'g'ri emas. Bilingval shaxs tillarning har birini turli darajada va turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llashi mumkin. Masalan, bola bir tilda kundalik muloqotda faol bo'lsa, ikkinchi tildan ko'proq ta'limiy yoki rasmiy vaziyatlarda foydalanishi mumkin.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan bilingvizm ikki tilning inson ongida qanday tashkil etilishi va nutq jarayonida qanday faollashishi bilan bog'liq. Bola biror fikrni ifodalash jarayonida kerakli so'z, grammatik shakl va talaffuz variantini tanlaydi. Ikki tilli bolaning nutqiy faoliyatida esa bu jarayon ikki xil til tizimi bilan bog'liq holda kechadi.

Bola ikki tilni o'zlashtirish jarayonida ularni bir-biridan butunlay ajratilgan tizimlar sifatida emas, balki o'zaro ta'sir qiluvchi lingvistik tajriba sifatida qabul qiladi. Shu sababli bilingval bolalar nutqida ayrim hollarda bir tildagi so'z yoki grammatik modelning ikkinchi tilga ko'chishi kuzatilishi mumkin. Bunday holat til aralashuvi yoki interferensiya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Til aralashuvi har doim ham bolaning tilni yaxshi o'zlashtirmayotganidan dalolat bermaydi. Aksincha, u bolaning mavjud til resurslaridan foydalanayotganini ko'rsatishi mumkin. Pedagog bunday holatni xato sifatida keskin baholashdan ko'ra, bolaning qaysi til vositalaridan qanday vaziyatda foydalanayotganini tahlil qilishi maqsadga muvofiq.

Bilingval muhitda til o'zlashtirishning psixologik omillari. Bola tilni o'zlashtirish jarayonida bir qator psixologik mexanizmlardan foydalanadi. Ular orasida diqqat, xotira, idrok, tafakkur, taqlid qilish, motivatsiya va kommunikativ ehtiyoj alohida ahamiyatga ega.

Avvalo, **eshitish va nutqiy idrok** til o'zlashtirishning dastlabki bosqichlaridan biridir. Bola atrofidagi kattalar va tengdoshlari nutqini eshitish orqali tovushlar, so'zlar, gaplarning tuzilishi va ma'nolarini asta-sekin farqlay

boshlaydi. Bilingval muhitda esa bola ikki xil fonetik va grammatik tizimni kuzatadi. Shuning uchun uning eshitish orqali til birliklarini farqlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira ham til o'zlashtirishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Bola yangi so'zlarni, iboralarni va grammatik shakllarni eslab qoladi va keyinchalik ularni nutqda qayta qo'llaydi. Bilingval bola ikki tildagi birliklarni o'zlashtirgani sababli uning lug'aviy tajribasi ikki til bo'yicha shakllanadi. Bunda so'zning ma'nosi, talaffuzi va qo'llanish vaziyati bilan bog'liq assotsiatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Diqqat bolaning kerakli til birliklariga e'tibor qaratishini ta'minlaydi. Masalan, pedagog yangi so'zni tushuntirayotganda uning talaffuzi, ma'nosi va gapdagi qo'llanishiga bolaning e'tiborini yo'naltiradi. Ikki tilli muhitda bolaning qaysi vaziyatda qaysi tildan foydalanish kerakligini anglashida ham diqqat va vaziyatni tahlil qilish qobiliyati muhimdir.

Tafakkur va til o'zaro chambarchas bog'liq. Bola yangi tushunchalarni o'zlashtirar ekan, ularni ma'lum til birliklari orqali ifodalaydi. Ikki tilli muhitda bir tushuncha ikki xil til vositasida ifodalanishi mumkin. Bu esa bolaning predmet va hodisalarni turli lingvistik vositalar yordamida nomlash imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, **motivatsiya** bilingval ta'limning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Bola tilni real kommunikativ ehtiyoj asosida o'rgansa, uning o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Shu sababli ta'lim jarayonida faqat mexanik takrorlashga emas, balki o'yin, suhbat, muammoli vaziyat va amaliy faoliyatga asoslangan topshiriqlarga keng o'rin berish zarur.

Bilingval bolalarda nutqiy rivojlanish xususiyatlari. Bilingval bolalarning nutqiy rivojlanishi individual xususiyatlarga ega. Har bir bolaning ikki til bilan ilk bor qachon tanishgani, tillardan qaysi biri oilada ko'proq ishlatilishi, ta'lim tili, ota-onaning nutqiy modeli va kommunikativ muhit kabi omillar til o'zlashtirish sur'atiga ta'sir qiladi.

Bola ikki tilni bir vaqtning o'zida o'zlashtirayotgan bo'lsa, ayrim bosqichlarda uning lug'at boyligi tillar o'rtasida taqsimlangan bo'lishi mumkin. Masalan, bola uy-ro'zg'or buyumlarini bir tilda, ta'limga oid tushunchalarni esa boshqa tilda yaxshiroq bilishi mumkin. Shuning uchun bilingval bolaning til kompetensiyasini faqat bitta til doirasidagi so'z boyligi asosida baholash to'liq natija bermasligi mumkin.

Bilingval bolalarda **kod almashinuvi** ham uchraydi. Kod almashinuvi suhbat jarayonida bir tildan ikkinchi tilga o'tish yoki bitta gap tarkibida ikki til birliklaridan foydalanishdir. Mazkur hodisa ko'pincha kommunikativ vaziyat, suhbatdosh, mavzu yoki bolaning ma'lum bir so'zni qaysi tilda tezroq eslay olishi bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda kod almashinuvi va til aralashuvini bolaning kamchiligi sifatida baholash bolaning kommunikativ faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, pedagog bolaning mavjud til tajribasidan yangi tilni o'zlashtirish uchun tayanch sifatida foydalanishi kerak.

Bilingval ta'limning pedagogik asoslari. Bilingval ta'limni tashkil etishda, avvalo, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim davrida til o'zlashtirish tabiiy, faol va kommunikativ jarayon sifatida tashkil qilinishi kerak.

Birinchi muhim tamoyil – **kommunikativlik tamoyili**. Bola tilni real muloqot jarayonida qo'llash orqali samaraliroq o'zlashtiradi. Shuning uchun mashg'ulotlarda savol-javob, suhbat, rolli o'yinlar, juftlik va guruhli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi tamoyil – **faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv**. Bola faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Rasm asosida hikoya tuzish, predmetlarni tavsiflash, o'yinchoqlar bilan harakatlarni ifodalash, vaziyatli dialoglar tashkil etish bolaning til birliklarini amaliy faoliyatda qo'llashga imkon beradi.

Uchinchi tamoyil – **individual yondashuv**. Bilingval bolalarning til tajribasi bir xil bo'lmaydi. Ayrim bolalar birinchi tilni yaxshi bilib, ikkinchi tilni endigina o'rganayotgan bo'lishi mumkin. Boshqa bolalarda esa ikki til bo'yicha nisbatan muvozanatli kompetensiya shakllangan bo'ladi. Shu sababli barcha bolalarga bir xil talab qo'yish o'rniga ularning boshlang'ich til darajasini hisobga olish lozim.

To'rtinchi tamoyil – **ko'rgazmalilik**. Rasm, predmet, harakat, audio va video materiallardan foydalanish yangi so'zlarning ma'nosini tushunishni osonlashtiradi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun vizual va harakatli faoliyat til o'zlashtirishni tabiiylashtiradi.

Beshinchi tamoyil – **takrorlash va kontekstda qo'llash**. Yangi til birligi faqat bir marta tushuntirilishi bilan o'zlashtirilmaydi. Bola uni turli vaziyatlarda qayta-qayta eshitishi va mustaqil qo'llashi kerak. Masalan, yangi so'z avval rasm orqali tanishtirilib, keyinchalik o'yin, dialog va kichik hikoya tarkibida qo'llanishi mumkin.

Psixolingvistik yondashuv asosida samarali metodlar. Bilingval bolalar bilan ishlashda psixolingvistik yondashuvga asoslangan bir qator metodlardan foydalanish mumkin.

Assotsiativ metod orqali yangi so'zlar bola uchun tanish bo'lgan predmet, harakat yoki obraz bilan bog'lanadi. Masalan, yangi so'zning rasmi ko'rsatiladi, so'z talaffuz qilinadi va bola uni harakat bilan bog'laydi. Bu usul so'zning xotirada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Kontekstual metod yangi so'z yoki grammatik birlikni alohida emas, balki mazmunli gap va vaziyat ichida o'rgatishni nazarda tutadi. Bunda bola til birligining nafaqat shaklini, balki uning qachon va qanday qo'llanishini ham o'zlashtiradi.

O'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bilingval bolalar uchun ayniqsa samaralidir. "Kim bu?", "Nima yo'qoldi?", "Rasmni tasvirla", "Do'konda", "Mehmon kutamiz" kabi rolli va didaktik o'yinlar orqali bola tabiiy kommunikativ vaziyatga kiradi.

Dialogik metod bolaning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagog bolaning yoshiga mos savollar beradi, bola javob qaytaradi va asta-sekin mustaqil savol berishga o'rgatiladi. Shu tariqa passiv lug'at faol lug'atga aylantiriladi.

Hikoya tuzish metodi ham muhim vosita hisoblanadi. Bola ketma-ket rasmlar asosida voqeani tasvirlaydi, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalaydi va grammatik jihatdan bog'langan nutq tuzishga harakat qiladi. Bu usul lug'at, grammatika, tafakkur va kommunikativ kompetensiyaning birgalikda rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogning bilingval ta'limdagi roli. Bilingval ta'lim samaradorligida pedagogning nutqiy modeli alohida ahamiyatga ega. Pedagog so'zlarni aniq talaffuz qilishi, sodd va tushunarli gaplardan foydalanishi, yangi til birliklarini tabiiy kontekstda takrorlashi lozim.

Pedagog bolaning xatolariga munosabat bildirishda ham ehtiyotkor bo'lishi kerak. Har bir xatoni darhol to'xtatib tuzatish bolaning nutqiy tashabbusini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun kommunikativ mashg'ulotlarda mazmuniy muloqotni saqlab qolish, zarur hollarda esa bolaning gapini to'g'ri shaklda takrorlash orqali model berish maqsadga muvofiq.

Masalan, bola grammatik jihatdan noto'g'ri gap tuzsa, pedagog uni keskin tanqid qilmasdan, to'g'ri variantni tabiiy tarzda takrorlashi mumkin. Bunday yondashuv bola uchun ijobiy psixologik muhitni yaratadi va to'g'ri nutqiy modelni o'zlashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, pedagog ota-onalar bilan hamkorlik qilishi kerak. Oila bilingval bolaning til rivojlanishida muhim muhit hisoblanadi. Ota-onalarga bolaning ikkala tilidagi nutqiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kitob o'qish, suhbatlashish va kundalik faoliyatda yangi so'zlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish mumkin.

Bilingval bolalarni diagnostika qilish masalalari. Bilingval bolalarning til rivojlanishini baholashda bir qator muhim jihatlarni hisobga olish kerak. Faqat bitta til bo'yicha test o'tkazish bolaning umumiy lingvistik salohiyatini to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Diagnostika jarayonida bolaning **lug'at boyligi, fonetik rivojlanishi, grammatik tuzilmalardan foydalanishi, bog'langan nutqi, eshitib tushinishi, savollarga javob berishi va mustaqil fikr bildirish** baholanishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, bolaning ikkala tilidagi natijalarni kompleks tahlil qilish zarur. Bir tilda kuchli, ikkinchi tilda nisbatan sust natija ko'rsatishi bilingval bolaning umumiy

nutqiy rivojlanishi pastligini anglatmasligi mumkin. Shu sababli diagnostika jarayonida tilning qo'llanish chastotasi, bolaning til bilan tanishish vaqti hamda oilaviy va ta'limiy muhit kabi omillar ham e'tiborga olinishi kerak. Psixolingvistik diagnostikaning muhim jihatlaridan biri bolaning tilni faqat bilishi emas, balki undan **qanday foydalanishini** aniqlashdir. Shu maqsadda tabiiy muloqot, rasm asosida hikoya, predmetni tavsiflash, dialog va vaziyatli topshiriqlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Bilingval muhitda til o'zlashtirishni takomillashtirish yo'llari. Bilingval ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq:

1. Bolaning ikkala til bilan muntazam va mazmunli muloqot qilish imkoniyatini ta'minlash.
2. Til o'rgatishda bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish.
3. Kommunikativ va o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish.
4. Yangi so'zlarni real predmet, rasm, harakat va vaziyatlar bilan bog'lash.
5. Bolaning til aralashtirish holatlariga tabiiy hodisa sifatida yondashish.
6. Bolaning xatolarini tuzatishda ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi usullardan foydalanish.
7. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish.
8. Bilingval bolalarning til rivojlanishini muntazam diagnostika qilib borish.
9. Har bir bolaning individual til profilini hisobga olish.
10. Bolaning ikki tildagi kommunikativ faolligini rag'batlantirish.

Mazkur shartlar bolaning til o'zlashtirish jarayonini tabiiy, izchil va psixologik jihatdan qulay tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bilingval muhitda til o'zlashtirish murakkab va ko'p qirrali psixolingvistik jarayon bo'lib, unda til, tafakkur, xotira, diqqat, idrok, motivatsiya va kommunikativ faoliyat o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ikki tilli bolaning til rivojlanishini faqat lingvistik bilimlar doirasida baholash yetarli emas. Bunda bolaning psixologik xususiyatlari, til tajribasi, oilaviy muhit va kommunikativ ehtiyojlari ham hisobga olinishi lozim. Psixolingvistik yondashuv bilingval bolaning tilni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va amaliy nutqda qo'llashini tushunishga yordam beradi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bolaning ikki til bo'yicha kommunikativ kompetensiyasini izchil rivojlantirish imkonini beradi. Bilingval ta'limda eng muhim vazifalardan biri bolaning mavjud til tajribasini cheklash emas, balki undan yangi tilni o'zlashtirish uchun samarali resurs sifatida foydalanishdir. Kommunikativ muhit, o'yin, dialog, hikoya tuzish, ko'rgazmalilik va faoliyatga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish til o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bilingval bolalarni diagnostika qilishda ularning har ikki tildagi imkoniyatlarini kompleks baholash zarur. Individual yondashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash va oila bilan hamkorlik bolaning til rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Demak, bilingval muhitda til o'zlashtirishni psixolingvistik va pedagogik jihatdan uyg'un tashkil etish bolalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning kommunikativ, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vyotsky L. S. *Thought and Language*. – Cambridge: MIT Press, 1986.
2. Cummins J. *Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire*. – Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
3. Grosjean F. *Bilingual: Life and Reality*. – Harvard University Press, 2010.
4. Baker C. *Foundations of Bilingual Education and Bilingualism*. – Multilingual Matters, 2011.
5. Bialystok E. *Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition*. – Cambridge University Press, 2001.
6. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge University Press, 2010.
7. Леонтьев А. А. *Основы психолингвистики*. – Москва: Смысл, 2005.
8. Жинкин Н. И. *Механизмы речи*. – Москва: Наука, 1958.
9. Выготский Л. С. *Психология развития ребёнка*. – Москва: Эксмо, 2004.
10. Шаховский В. И. *Лингвистическая теория эмоций*. – Москва: Гнозис, 2008.

Vasila MAMADAYUPOVA,
TDYU, Xorijiy tillar sho'bas, dotsent v.b.
v.mamadayupova@mail.ru



OLIV TA'LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING ANALITIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning analitik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va muammoli ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. VUCA sharoitida analitik tafakkurning mutaxassis kompetensiyasi sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Analitik ko'nikmalarining komponentlari, muammoli vaziyatlarning imkoniyatlari hamda ularning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: analitik ko'nikmalar, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, pedagogik texnologiya, kognitiv faoliyat, metodika.

Аннотация: в статье проанализированы теоретико-методологические основы развития аналитических навыков студентов высшего образования и дидактические возможности проблемного обучения. Раскрыта значимость аналитического мышления как ключевой компетенции специалиста в условиях VUCA-мира. Уточнены содержание и компоненты аналитических навыков, систематизированы методические подходы и обоснована роль проблемного обучения в развитии аналитического и критического мышления студентов.

Ключевые слова: аналитические навыки, проблемное обучение, проблемная ситуация, критическое мышление, высшее образование, педагогическая технология, когнитивная деятельность, методика

Annotation: this article examines the theoretical and methodological foundations of developing students' analytical skills in higher education and the didactic potential of problem-based learning. The importance of analytical thinking as a key professional competency in the modern VUCA world is highlighted. The study clarifies the content and components of analytical skills, systematizes methodological approaches, and substantiates the role of problem-based learning in developing students' analytical and critical thinking.

Key words: analytical skills, problem-based learning, problem situation, critical thinking, higher education, pedagogical technology, cognitive activity, methodology.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar rivoji va mehnat bozoridagi yuqori raqobat sharoitida mutaxassisning muvaffaqiyati endilikda faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni tahlil qilish, yangi vaziyatlarga moslashtirish va nostandart yechimlar ishlab chiqish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimida talabalarning analitik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylanmoqda.

VUCA-olami (volatility, uncertainty, complexity, ambiguity) deb ataluvchi zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonda axborotning tezkor o'zgarishi mutaxassisdan yuqori darajadagi analitik tafakkur, tanqidiy mushohada va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini talab etadi. Bunday sharoitda an'anaviy reproduktiv ta'lim modeli talabalarni real kasbiy faoliyatga to'liq tayyorlay olmaydi. Shu sababli ta'lim jarayoniga muammoli ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash zarurati yuzaga kelmoqda.

Muammoli ta'lim talabani kognitiv faolligini oshirishga, uni mustaqil tahliliy faoliyatga jalb etishga hamda bilimlarni amaliy

vaziyatlarda qo'llashga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiya hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar mavjud bilimlari va yangi axborot o'rtasidagi ziddiyatni anglaydi, muqobil yechimlarni izlaydi va mantiqiy xulosalar chiqaradi. Bu esa analitik fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Analitik ko'nikmalar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, axborotni saralash va tizimlashtirish, mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarish kabi intellektual faoliyat elementlarini qamrab oladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim tizimida ushbu ko'nikmalarni shakllantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi muammoli vaziyatlar asosida talabalarning analitik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda samarali pedagogik metodlarni tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik modellash tirish metodlaridan foydalanildi. Analitik ko'nikmalar muammosi bo'yicha L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, V.V. Davidov, M.I.

Shuningdek, muammoli ta'lim talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Chunki muammoli vaziyatlarni hal etish ko'pincha guruhviy munozaralar va hamkorlikdagi faoliyat asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimida analitik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun turli pedagogik metodlardan foydalaniladi. Ularning samaradorligi talabalarni faol intellektual faoliyatga jalb etish darajasi bilan belgilanadi.

Og'zaki metodlar.

Muammoli ma'ruza, ilmiy munozara va suhbat metodlari talabalarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Ayniqsa, analitik munozara metodi talabalarining argumentatsiya qilish va qarama-qarshi fikrlarni qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ko'rgazmali metodlar

Diagrammalar, sxemalar, modellar va vizual materiallardan foydalanish talabalarining axborotni tizimli idrok etishiga yordam beradi. Vizual modellashtirish murakkab nazariy tushunchalarni tushunishni yengillashtiradi.

Amaliy metodlar

Amaliy topshiriqlar, laboratoriya ishlari, loyihalar va keys-stadilar analitik ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bunday topshiriqlar talabalardan muammoni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi zamonaviy ta'limning muhim strategik vositasidir. Ushbu texnologiya axborotni tahlil qilish, muqobil nuqtayi nazarlarni qiyoslash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashga ega talabalar:

- axborotni tanqidiy baholaydi;
 - yashirin bog'liqliklarni aniqlaydi;
 - dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradi;
 - muammolarga kreativ yondashadi.
- **Muammoli ta'lim texnologiyasining pedagogik samaradorligi**

Muammoli ta'lim texnologiyasi talabalarining analitik tafakkurini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Chunki mazkur texnologiya talabani passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Muammoli ta'limning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- talabaning kognitiv faolligi oshadi;
- mustaqil fikrlash shakllanadi;
- axborotni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi;
- nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyasi shakllanadi;

- refleksiya va o'zini baholash mexanizmlari rivojlanadi.

Shuningdek, muammoli ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chunki real kasbiy faoliyat ko'pincha murakkab va ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilishni talab etadi.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlarga asoslangan darslar talabalarining darsdagi ishtirokini faollashtiradi, ularning ilmiy qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarining analitik ko'nikmalarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. VUCA-olami sharoitida mutaxassisdan nafaqat nazariy bilim, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, nostandart vaziyatlarda ratsional qaror qabul qilish va muammolarni kreativ hal etish kompetensiyalari talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim texnologiyasi analitik ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar talabalarining kognitiv faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularni tahliliy faoliyatga jalb etadi.



Analitik ko'nikmalar aksiologik, kognitiv va operatsion komponentlarning integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi pedagogik metodlarning to'g'ri tanlanishi hamda muammoli vaziyatlarining tizimli qo'llanilishiga bog'liq.

Shuningdek, reproduktiv metodlardan qisman-qidiruv va tadqiqotchilik metodlariga o'tish talabalarining kognitiv mustaqilligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi.


Kelgusida oliy ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, fanlararo integratsiyalashgan muammoli topshiriqlar tizimini yaratish hamda analitik ko'nikmalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – M., 1989-yil. 1-jild 377-378-betlar
2. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М., 2009. С.146
3. Kochkarova M. K. Bilish jarayoniga qiziqishni shakllantirish usullari to'g'risida // maktabda kimyo. 2002. №7. P. 25.
4. Davidov V.V. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. – Moskva, 1996.
5. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg, 2002.
6. Maxmutov M.I. Muammoli o'qitish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1975.
7. Matyushkin A.M. Muammoli vaziyatlar psixologiyasi. – Moskva, 1972.
8. Dyui J. Demokratiya va ta'lim. – New York, 1916.
9. Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva, 2004.
10. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Moskva, 1980.



KICHIK TADQIQOT



Zulfizar BABANAZAROVA,
Filolog, O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA QOFIYANING O'ZAK TARKIBIGA KO'RA TURLARINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" dostonida mumtoz qofiya turlarining qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zak tarkibi, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas, raviy, cho'ziq unlilar, qisqa unlilar.

Аннотация: в данной статье рассматривается применение классических видов рифмы в поэме Алишер Навои «Хайрат-ул аброр».

Ключевые слова: структура корня, муджаррад, мурдаф, мукаййад, муассас, равий, долгие гласные, краткие гласные.

Annotation: this article discusses the usage of classical rhyme types in Alisher Navoiy's epic poem "Hayrat-ul abror".

Key words: root structure, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas, rawi, long vowels, short vowels.

Lirik asardagi har bir qofiya turi ijodkorning fikrini ifoda etishga xizmat qiladi. Qofiya yaqqol ko'zga tashlanuvchi she'riy unsur bo'lib, bayt oxirida keluvchi ohangdosh so'zdir. Qofiyada shoirning asosiy fikri ifodalanadi. Qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar tuzilishiga qarab qofiyaning turlari kelib chiqadi. Asarda ifodalangan ruhiyat va kayfiyatni yuzaga keltirishda ham qofiya turlari alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham har bir ijodkorning qaysi qofiya turidan samarali foydalanishini o'rganish muhimdir. Xususan, Navoiy aynan qaysi qofiya turlaridan samaraliroq foydalanganini aniqlash maqsadida uning "Xamsa" asarining poydevori bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostoni qofiya tizimini ko'rib o'tamiz.

Dostondagi har bir baytni alohida o'rganib, qaysi qofiya turlari qo'llanilganligini ketma-ketlikda berib o'tamiz:

Mujarradi muqayyad -1 (raviyi cho'ziq unli)

1. Mujarradi muqayyad -2 (raviyi undosh)
2. Mujarradi mutlaq -vasl
3. Mujarradi mutlaq -xuruj
4. Mujarradi mutlaq -mazid
5. Mujarradi mutlaq -noira
6. Ridfi asliy muqayyad
7. Ridfi asliy mutlaq -vasl
8. Ridfi asliy mutlaq -xuruj
9. Ridfi asliy mutlaq -mazid
10. Ridfi asliy mutlaq -noira

11. Ridfi zoyid muqayyad
12. Ridfi zoyid mutlaq -vasl
13. Ridfi zoyid mutlaq -xuruj
14. Ridfi zoyid mutlaq -mazid
15. Ridfi zoyid mutlaq -noira
16. Qaydli muqayyad
17. Qaydli mutlaq -vasl
18. Qaydli mutlaq -xuruj
19. Qaydli mutlaq -mazid
20. Qaydli mutlaq -noira
21. Ta'sisli muqayyad
22. Ta'sisli mutlaq -vasl
23. Ta'sisli mutlaq -xuruj
24. Ta'sisli mutlaq -mazid (HA 121).

Qofiya misralar oxirida keluvchi qo'shimcha, so'z yoki so'z birikmalarining o'zaro ohangdoshligidan hosil bo'ladi. Qofiya misralarning oxirida yoki radifdan oldin keladi:

Ey karaming ollida ko'hi **gunoh**,

Yelga uchib o'ylaki bir parri **koh**.

Bo'lsa ne maqsudg'a **mayli** aning,

Haqdin o'lub barcha **tufayli** aning.(HA)

Mumtoz Sharq she'riyatida ilmi qofiya deb atalgan fan mavjud bo'lganki, unda qofiyaning xususiyatlari, tuzilishiga ko'ra turlari, o'zak tarkibiga ko'ra turlari kabilar o'rganilgan. Ma'lumki, qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra to'rt turi bor: *mujarrad*, *murdaf*, *muqayyad*, *muassas*. Ushbu qofiya turlarining aynan "o'zak tarkibiga ko'ra" deb

nomlanishi qofiya bo'lib kelayotgan so'z tarkibidagi raviy harfi bilan bog'liq. Chunki qofiyaning asosini aynan raviy harfi tashkil etadi. Raviy harfi qofiya bo'lib kelayotgan so'zning aynan o'zagidagi eng oxirgi undosh yoki cho'ziq *o*, *o'*, *u* unlilaridan biri bo'lishi mumkin.

Ko'ngli aning maxzani asrori ishq,

Nutqi aning abri guharbori ishq. (HA)

Baytda ishq so'zi radif, *asrori* – *guharbori* so'zlari qofiya bo'lib kelmoqda. Bu so'zlarning raviy harfi – *r* undoshi.

Eslatib o'tamiz: *i*, *a*, *e* qisqa undoshlari raviy bo'la olmaydi. Agar qofiya bo'lib kelayotgan so'zlarning o'zagi yoki asosi qisqa unlilarning birortasi bilan tugayotgan bo'lsa, u holda qisqa unlidan oldin joylashgan undosh harf raviy sifatida olinadi va qofiya turi ham shunga qarab belgilanadi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostonida to'rtala qofiya turini ham uchratish mumkin. Shu asosiy to'rt tur yordamida hosil bo'lgan qofiya turlari ham talaygina. Bular orasida dostonida eng ko'p uchraydigani murdaf qofiya ekanligi e'tiborga molik. "Xamsa"dagi boshqa dostonlarda qofiyaning mujarrad turi ustunlik qiladi. Fikrimizning isboti sifatida qofiya bo'yicha tadqiqotchilarning statistikasini keltirib o'tamiz. Xususan, "Layli va Majnun" dostonida mujarrad qofiya – 46%, murdaf qofiya – 39%, muqayyad qofiya – 8%, muassas qofiya – 6% qo'llanilgan. Bizning kichik tadqiqotimiz natijasida esa "Hayrat ul-abror" dostonida biroz boshqacha holat yuzaga keldi. "Hayrat ul-abror" dostoni 63 bob, 3988 bayt, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Dostonida qo'llanilgan qofiya turlarini o'rganishimiz asnosida, jadvaldagi holat yuzaga keldi.

T/r	Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra turlari	qo'llanilish soni	% hisobida
1	Murdaf	1834 bayt	46%
2	Mujarrad	1594 bayt	40%
3	Muqayyad	360 bayt	9%
4	Muassas	200 bayt	5%

Murdaf qofiya – qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfi qofiya deb ham ataladi. Murdaf qofiyada raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri keladi. Murdaf qofiya ikki xil bo'ladi. Birinchisi, *ridfi asliy* qofiya. Ridfi asliy qofiyada raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri keladi va aynan shu cho'ziq unli ridfi asliy deb ataladi. Bayt misolida ko'rib o'tamiz:

Soqiy, olib kel qadahu qilma **noz**,

Ko'rki, ne mushtoqdur ahli **niyoz**. (HA)

Murdaf qofiyaning ridfi asliy turida bayt qofiyalaridagi hijolar cho'ziq hijo bo'ladi.

Bir kecha zulmatqa olib **koinot**

Mehr nihon o'ylaki aynul **hayot**. (HA)

Murdaf qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra **muqayyad** va **mutlaq** ko'rinishlariga ega bo'ladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan baytda *koinot-hayot* so'zlari o'zaro qofiya bo'lib kelmoqda. Har ikkala so'zda cho'ziq "o" unlisidan so'ng "t" harfi raviy bo'lib kelgan va qofiya bo'lib kelayotgan so'zlar raviy harfi bilan yakunlangan. Agar qofiya raviy harfi bilan yakunlansa, ya'ni, raviydan so'ng harflar qo'llanilmasa, bunday qofiya **muqayyad** qofiya deb nomlanadi. Agar raviy

harfidan keyin yana harflar qo'llanilsa, bunday qofiya **mutlaq** qofiya deyiladi.

Sham' yorutub uy ichiyu **toshini**. (HA)

Ev iyasi ko'prak uzub **boshini**. (HA)

Mutlaq qofiyaga to'xtalish bilan bir qatorda qofiya ilmiga doir bir qoidani eslab o'tish joiz. Qofiyadoshlik asosan, so'zning o'zak qismida hosil qilinadi (vazn talabiga ko'ra yoki qofiyadoshlik talabidan ba'zi hollarda so'zning o'zagi va boshqa misradagi so'zning qo'shimchasi o'rtasida; ikkala baytning qofiya bo'lib kelayotgan so'zlari qo'shimchalari o'rtasida ham qofiyadoshlikni yuzaga keltirish mumkin). Biz keltirgan baytda *toshini-boshini* so'zlari qofiya bo'lib kelmoqda. *Toshini-boshini* qofiyasida raviy harfi "sh" bo'lib, undan so'ng "i", "n", "i" harflari ketma-ket kelgan. Raviydan keyin qo'llanilgan harflar joylashish o'rniga ko'ra har biri o'z nomiga ega. Buni biz keyingi bobda nomma-nom keltirib, har bir qofiya harfining izohini berib o'tamiz. Raviydan keyin joylashgan "i" harfi **vasl** deb nomlanadi. Vasldan keyin joylashgan "n" harfi **xuruj** deb ataladi. Xurujdan so'ng joylashgan "i" harfi esa **mazid** deyiladi. Agar maziddan keyin ham harf bor bo'lsa, u **noyira** deb ataladi. Demak, ushbu baytni biz shaxsiy mulohazalarimizdan kelib

chiqqan holda *ridfi asliyi mutlaqi mazid* deb nomlab turishimiz mumkin.

Murdaf qofiyaning yana bir turi *ridfi zoyid* qofiya deb nomlanadi. Bunda qofiya bo'lib kelayotgan so'zning raviy harfi undosh bo'lib, undan oldin yana bir undosh va undan ham oldin cho'ziq unlilardan biri joylashadi. Ya'ni cho'ziq unli va qator undosh keladi. Agar formula ko'rinishida tushuntiradigan bo'lsak, taxminan quyidagicha bo'ladi: **con+v+con+con**. Bayt misolida ridfi zoyid qofiyaning ko'rib o'tamiz.

Xayri rusul bo'lmog'i Tengriga **xost**

Harne risolatki qilib borcha **rost**. (HA)

Murdaf qofiyaning ridfi zoyid turidan hosil bo'luvchi qofiyalarda oxirgi bo'g'in o'ta cho'ziq hiyo deb nomlanadi. Bu hodisalar qofiyaning vazn bilan munosabatini ko'rsatib turadi. Fikrimizni mufassalroq tushuntiradigan bo'lsak, qofiya qo'llash orqali vaznga ta'sir o'tkazish mumkin. Yoki aksincha holat, vazn talabidan qofiya tanlash ham mumkin.

Mujarrad qofiya. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlarini ko'rib chiqishda davom etamiz. Mujarrad qofiya istilohi arabchadan olingan bo'lib, "yakka, yolg'iz, tanho" degan ma'nolarni bildiradi. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiyaning asosiy ikki ko'rinishi mavjud. Birinchisi, raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'ladi va undan oldin undosh harf keladi. Formulaga solib ko'rib o'tsak, **con+v** ko'rinishida bo'ladi.

Ikki jahoning'a tilarsen **fazo** –

Hosil et ushbu ikkisidin **rizo**. (HA)

Ushbu baytlarda raviy harfi cho'ziq **o** unlisi bilan ifodalangan va undan oldin undosh harf kelgan. Agar qofiya bo'lib kelayotgan so'zning oxirgi harfi qisqa unli bilan yakunlansa, bunday qofiya ham mujarrad qofiya turiga kiradi. Chunki qofiya talabiga ko'ra qisqa unli raviy bo'lib kela olmasligi bizga ma'lum.

Bir chaman ichra tuzubon xilvate,

Gulrux ila qildi ayon suhbate (HA)

baytida **e** harfi qofiya bo'lib kelayotgan so'zning oxirida kelgan bo'lsa-da, raviy harfi bo'la olmaydi. Shuning uchun undan oldin kelgan **t** undoshi raviy harfi bo'ladi.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin tavjih – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Agar bu qofiya turini ham formulada ifodalasak, **con+v+con** ko'rinishida bo'ladi.

Kimniki bedoding etibdur **asir**,

Bo'l anga adl ilgi bila dast**gir**. (HA)

"Hayrat ul-abror" dostonida murdaf qofiyaning so'ng eng ko'p qo'llanilgan qofiya turi mujarrad qofiya bo'lib, buning asosiy sababi sifatida mujarrad qofiya yordamida yuzaga kelgan uzviylik va ohangning uyg'unligini aytish mumkin. Albatta, asarda har to'rtala qofiya turi ham aralash holda kelgan. Buning natijasida asarda ulug'vorlik va yaxlitlik ta'minlangan.

Mujarrad qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra muqayyad va mutlaq ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida mujarrad qofiyaning bir necha turi keng qo'llanilgan. Mujarrad qofiyaning muqayyad turida qofiya bo'lib kelayotgan so'z raviy bilan yakunlanadi. Uning ikki ko'rinishi mavjud: birinchi ko'rinishida raviy cho'ziq unlidan iborat bo'ladi va unda shu cho'ziq unlidan keyin boshqa biror harf ishtirok etmaydi

Me'dani xoliliq ila qil to'lo,

Necha xalo anda safodin malo; (HA)

ikkinchi ko'rinishi raviyi undosh bo'lgan mujarrad qofiyaning so'ng hech qanday harf bo'lmaydi:

Kim bu sifat savmki topti raq**am**,

Bo'lg'ay izofat necha ish anda ham. (HA)

Mujarrad qofiyaning raviydan so'ng harflar kelishiga ko'ra turlariga misollar ko'rib chiqamiz.

Vaslli mujarrad qofiya:

Necha samar sochmoq esa shox **ishi**,

Ko'prak otar tosh anga tergan **kishi**. (HA)

Xurujli mujarrad qofiya:

Subh kibi xalq yuziga **kulub**,

Charx kibi el boshig'a **evrulub**. (HA)

Mazidli mujarrad qofiya:

Necha tikon yanglig' etib **tezlik**,

Tong yelidin boshiga **gulrezlik**. (HA)

Noyirali mujarrad qofiya:

Lek bu iqbolning **o'trusida**,

Bo'yla biyik martaba **qarshusida**.

Muassas qofiya. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi yana bir turi muassas qofiya bo'lib, bu qofiya ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq "o" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq "o" unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh daxil deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb ataladi¹.

¹ Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: "TAMADDUN", 2018.

Muassas qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra muqayyad va mutlaq ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida muassas qofiyaning ko'p turlari qo'llanilgan. Masalan, ta'sisli muqayyad qofiya. Bunda raviydan oldin bir harakatli bir undosh, undan oldin esa cho'ziq "o" unlisi, ya'ni ta'sis keladigan qofiya.

Ko'rguzibon loba **malohat** uza,

Lobasi tuz sepsa **jarohat** uza.

Raviy harfidan so'ng harflarning ishtirokiga ko'ra ta'sisli qofiyaning bir necha mutlaq turlari dostonida qo'llangan.

Ta'sisli mutlaq – vasl

Oni dog'i qilma saxo **doxili**,

Kim kishini tomiامي **komili**.

Baytda *doxili* – *komili* so'zlari o'zaro qofiylanib kelgan. Raviy harfi "l" va undan so'ng kelgan "i" unlisi vasl.

Ta'sisli mutlaq – xuruj

Bo'lmadi bas noqisu **komilda** farq,

Topmag'ay el olimu **johilda** farq.

Baytda *komilda* – *johilda* so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan va raviy harfi "l" undoshi. Raviydan so'ng joylashgan "d" undoshi vasl, vasldan so'ng joylashgan "a" unlisi xuruj.

Ta'sisli mutlaq – mazid

Aytmakim, to'mai **qobildur** ul,

Boshdin ayoq zahri **halohildur** ul.

Baytda kelgan "ul" so'zi radif, radifdan oldin joylashgan *qobildur*– *halohildur* so'zlari qofiya. Har ikkala qofiya bo'lib kelayotgan so'zlardagi "l" undoshi raviy. Raviydan keyin ketma-ketlikda joylashgan "d" undoshi vasl, "u" unlisi xuruj, "r" undoshi esa mazid.

Muqayyad qofiya. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra turi to'rtta bo'lib, oxirgi ko'rib o'tadigan qofiya turi muqayyad qofiyadir. "Arab tilida "bog'langan", "kishanlangan" kabi ma'nolarni bildiruvchi qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi bu turi **qaydli** qofiya deb ham nomlanadi. Ma'lumki, "qayd" so'zi

arab tilida "kishan" degan ma'noni bildiradi. Bunday qofiya turida o'zak tarkibida qisqa unidan so'ng qator undosh keladi. Shuni esda saqlash kerakki, qator undoshdan oldin faqat qisqa unli kelishi shart, agar cho'ziq unilardan birortasi kelsa, demak bunday qofiya murdof qofiyaning ridfi zoyid turiga kiradi. Qaydli qofiyada qisqa unli *hazv*, raviydan oldin turgan undosh *qayd* deb ataladi"².

La'li mayi aqlni **mast** aylasa,

Mast nekim, **bodaparast** aylasa.

Ushbu baytda *mast* – *bodaparast* so'zlari o'zaro qofiyadoshlikni hosil qilgan. Qofiya bo'lib kelgan har ikkala so'zda "t" undoshi raviy, undan oldin turgan "s" undoshi esa qayddir. Qayddan oldin joylashgan qisqa "a" unlisi *hazv* hisoblanadi.

Qaydli qofiyaning ham raviydan so'ng qo'shimcha harflar kelish yoki kelmasligiga ko'ra muqayyad va mutlaq turlari bor. Biz yuqorida ko'rib o'tgan bayt qaydli muqayyad qofiya edi. "Hayrat ul-abror"da muqayyad qofiyaning ham bir necha turidan unumli foydalanilgan.

Qaydli mutlaq – vasl:

Shart bukim, yetsa **gazande** sanga,

Solsa falak hilasi **bande** sanga. (HA 150)

Qaydli mutlaq – xuruj:

Mehr eliga **javrmu** erdi ekin?

Qoida bu **tavrmu** erdi ekin?

Qaydli mutlaq – mazid:

Charx kibi yetsa **zabardastliq**,

Yer quyisida tilamak **pastliq**. (HA 117)

Muqayyad qofiya dostonida murdof qofiya va mujarrad qofiya kabi ko'p qo'llanilmagan bo'lsa-da, shoirning badiiy maqsadini amalga oshirishda qo'llagan qofiyalar ohangining go'zal bo'lishini ta'minlagan. Shuni e'tiborga olish lozimki, "Hayrat ul-abror" dostonida muqayyad qofiya murdof qofiyaning ridfi zoyid turidan ko'ra ko'proq qo'llanilgan.

2 Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: "TAMADDUN", 2018.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2006.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
3. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. – T., 1979.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq NMIU, 2016.
5. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2011.
6. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: "TAMADDUN", 2018.

Sevinch ZIYOTOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri
sevinchziyotova69@gmail.com +998971992595*

“BIRINCHI MUALLIM” QISSASIDA AYOL OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada qissadagi ayollar obrazlarining badiiy funksiyasi va talqin rakursi tadqiq etilgan. Xususan, Altinay Sulaymanova obrazi misolida xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyi, ularning huquqlarini cheklovchi eski urf-odatlar hamda qahramonning ma'rifatga intilishi orqali shaxs sifatida shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Xotin-qizlar taqdiri orqali davrning dolzarb ijtimoiy muammolari ochib berilgan ushbu asarda shaxs erki va yengilmas inson ruhiyati ustoz hamda shogird munosabatlari talqinida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, badiiy talqin, ma'rifat, erkinlik, ijtimoiy tengsizlik.*

Аннотация: в данной статье исследуются художественная функция и ракурс интерпретации женских образов в повести. В частности, на примере образа Алтынай Сулеймановой анализируются социальный статус женщин, ограничивающие их права патриархальные обычаи, а также процесс становления героини как личности через ее стремление к просвещению. В произведении, раскрывающем актуальные социальные проблемы эпохи сквозь призму судьбы женщин, свобода личности и непоколебимый человеческий дух исследуются в контексте взаимоотношений учителя и ученика.

Ключевые слова: *женский образ, художественная интерпретация, просвещение, свобода, социальное неравенство.*

Annotation: this article examines the artistic function and perspective of interpretation of female characters in the novella. Specifically, using the character of Altynay Suleimanova as an example, it analyzes the social status of women, backward traditions that restrict their rights, and the process of her development as an individual through her pursuit of enlightenment. By revealing the pressing social problems of the era through the fate of women, the work explores personal freedom and the unconquerable human spirit within the context of mentor-student relationships.

Key words: *female character, artistic interpretation, enlightenment, freedom, social inequality.*

Dunyodagi eng hurmatli kasblardan biri – muallimlik. Bu asar qahramoni yozuvchi yaponiyalik kitobxonga yozgan maktubida aytganidek, Duyshen – tarixiy shaxs. Muallif bunday insonlar inqilob yillarida ozmuncha bo'lmaganini aytadi. Duyshen – prototip. “...Nazarimda, o'zbek adabiyotining zabardast namoyandasi, ulkan dramaturg Hamza Hakimzodani bunday odamlarning eng mashhur vakili, deb aytsak bo'ladi”, – deya yozadi Ch.Aytmatov. Muallif kitobi iliq kutib olinganligidan quvonadi. Uning huzuriga ko'pchilik birinchi muallimlarini so'zlab berishga borganida, ular bilan uchrashib, Duyshen kabi ustozlar hozir ham hayot ekani, shu ishtiyoqda yashayotganlariga guvoh bo'ladi. Yarim asrdan ortiqroq umrini ijodkor asarlarini tarjima qilish barobarida uni tadqiq etish va talqin qilishga bag'ishlagan adabiyotshunos, tarjimon Asil Rashidov shunday deydi: “Yozuvchi aytganidek, har qanday asar ham hayot haqiqati asosida yozilishi ma'lum. Agar quruq fantaziyaga suyanib, real hayotdan ajralib qolsa, asar estetik qimmatini yo'qotadi. Demak, muallif boshqa barcha asarlari singari “Birinchi muallim” qissasini ham hayotiy voqea zaminida yaratdi”.

Yozuvchining o'zi ham “Birinchi muallim” asari haqida so'z yuritib, shunday yozgan edi: “Adabiy tajriba degan

narsa bir qolipga solib olib tikaveradigan etikdo'zning kasbi emas. Tajribada ko'ryapmizki, har bir yangi asarni yoza boshlaganingda o'zingda hech qanday tajriba yo'qdek his qilasan. Darvoqe, har bir yangi asar hayotni yangicha talqin etishni, yangicha uslub, yangicha shakl, yangicha badiiy tashbehlarni talab etadi”. “Jamila” qissasining o'zidayoq Sharq-u G'arbda birdek mashhur bo'lgan ijodkor keyingi “Alvol durrali noziknihonim” (“Sarvqomat dilbarim”), “Birinchi muallim”, “Alvido, Gulsari”, “Somon yo'li”, ayniqsa, “Oq kema” qissalari uning haqiqiy iste'dod egasi ekanini ko'rsatdi. Asarlari Sharqda ko'ra G'arb davlatlarida ko'proq o'qildi, tahlil qilindi.

Qushbu qissa xronikali syujet orqali yaratilgan va unda retrospeksiya usulidan unumli foydalanilgan. Shakl va ma'no butunligi yaxlit asar. Voqealar rassomning bolaligi kechgan ovul xotiralaridan boshlanib, negadir u uchun qadrdon bo'lgan teraklar va shu atrofda joylashgan “Duyshen maktabi” bilan bog'lanadi. Ko'nglidagi, hanuzgacha chizolmagan rasmi – tugun. Dastlab, rassom bola tilidan so'ngra xatni o'qish davomida Oltinoy tilidan hikoya qilingan asar kulminatsiyasi Oltinoy Sulaymonovanning ovuldagi maktab ochilishiga kelishi bilan belgilanadi.

Bosh qahramonlardan biri Oltinoy Sulaymonova bo'lib, yozuvchi bu ismni tanlashida ramziylik bor. Oltin qimmatbaho, qar qanday sharoitda ham aslini yo'qotmaydigan, o'zgarishlarga chidamli metall. U biroz vaqt e'tibordan chetda qolishi mumkin, munosabat o'zgarishi mumkin, ammo qadri pasaymaydi. Oltinoy ham yaxshi-yomon kunida o'zligini yo'qotmadi. Unga halol, mehribon, jonkuyar ustoz Duyshen sinib qolmaslikni, ortga qaytmaslikni, ilm-ma'rifat bilan o'z yo'lini, so'zini namoyon etish imkoni borligini ko'rsatdi. U qalb oromini kasbidan topgan ustoz. Garchi chala savodi bilan o'quvchilarga bilim berishni boshlagan bo'lsa-da, boshlagan nurli yo'l oqibatida ko'plab shogirdlari, jumladan, Oltinoy ham nomini oqlab chiqdi. Asar konfliktlarga boy: Satimqul, dugonalari, kelinoyi, tulki po'stinli kishi – jamiyat Duyshen va Oltinoyga qarshi bo'lishadi. Muallim jadidlar singari taraqqiyotga, ilm-ma'rifatga undovchi yo'l boshchi, jonkuyar, mard, bir so'zli, samimiy va qalbi pok inson. Oltinoyning olima bo'lib yetishishiga u sababchi.

Asar boshlanishi muallifning boshqa asarlari singari tabiat tasviri, bolalik xotiralarining qayta gavdalanishi bilan boshlanadi: ovulning ajoyib tabiati, temiryo'l yoqasida joylashgani, "qandaydir xosiyatli, qandaydir sir saqlab turgan shu qo'sh teraklar"ning ohanrabo misoli o'ziga tortishi va faqat nomigina tanish Duyshenning maktabi. Ovulga kelishi bilanoq qo'sh teraklarni ko'rishga oshiqadigan obraz ularni shunday ta'rifalaydi: "Ovulimizda nima ko'p – daraxt ko'p. Biroq shu qo'sh terak boshqacha – qachon qaramang, kun-u tun shoxlari chayqalib, yaproqlari titrab, turfa ohang taratadi. Gohida ular kimnidir qo'rsab, sog'inch o'tida yonib, sukut saqlab, bir zumda jimib qolganday, gohida to'satdan butun tanasi bilan chayqalib, bir-biridan madad olayotganday guvullashadi. Shitob bilan bostirib kelayotgan bulut va yomg'ir aralash kuchli shamol esa shoxlarini egib, yaproqlarini uzib tashlaganda teraklar o'chakishganday tebranib, battar guvullaydi". Muallif teraklarning o'tmishi, ular nega qo'sh terak ekaniga ishora qiladi. Ular boshqa daraxtlar qatorida emas, alohida katta tepalikda joylashganligi, bir-biridan kuch olishi, yomg'irli shamolga battar guvullab qarshi chiqishi Oltinoy va Dyushenga berilgan ta'riflar desak, adashmagan bo'lamiz. Dyushenning chekka bir ovulga yolg'iz o'zi kelib, maktab ochishi, Oltinoyni o'qishga ko'ndirishi, himoya qilishi – ovul ahli qarshi chiqib, to'g'ri yo'lni tanlashi uning isyonidir. Oltinoy ham bunga javoban o'zini ilmsizlikdan chiqarib, qabohat manzilidan ketib, yangi hayot boshlaydi. Biroq uning qalbi Dyushen o'tqazgan ikki terak kabi edi... Sirli teraklarning noma'lum tarixi ovulda jamoa mehnati bilan qurilgan yangi maktabning ochilish marosimida ma'lum bo'ladi. Dyushen haqida eshitib, oromini yo'qotgan olima qo'sh teraklarini tomosha qilib turganda, rassom bola hozir kuzligi sabab yaproqlarini to'kayotganini, bahorda

ular boshqacha bo'lishini aytadi. U esa shunday deydi: "Ha, shunday, olamda har bir mavjudotning bahori-yu kuzi bor". E'tibor beraylik, qissa yoz faslida boshlansada, muallif uchrashuv motivini kuz faslida tasvirlaydi. Oltinoyning so'zlari esa sababini tushuntiradi. Ular umrning kuzi – keksalikda ko'rishishlariga bir bahya qoladi. Ular xayrlashishganda esa ayni yoz edi. Tabiat tasviri, yil fasllari qahramon ruhiyatiga monand tasvirlanishi ijodkor uslubiga xos jihatlardan biridir.

Adib asarlarida erkak qahramonlar ko'p, biroq ayol obrazi ham salmoqli o'rin egallaydi. Ularda real hayotda mavjud ayollar portreti bilan parallel ravishda chin ma'nodagi ayol timsolidan foydalanadi. Yozuvchi o'zi yaratgan ayol siymosini axloqiy-falsafiy jihatlar, go'zallik, mehr-muhabbat, mardlik, ezgu niyatlar, pokizalik hamda milliylik bilan sayqallaydi.

Ayollar ruhiyati kelinoyi, Oltinoy, buvi, Qoraqiz eja (kundosh), Sayqal kampir, dugonalar obrazlarida ochib beriladi. Oilada mehr ko'rmagani sababli Dyushenning so'zlariga quvonib, bir kunlik mehnatini qo'rqmay maktabga tashlab ketishi Oltinoyning bolalarcha samimiy, jo'shqin tuyg'ularini ifoda eta olgan. Tezaklarni tashlab keta olgan dovyurak qizcha salbiy obraz – kelinoyisining kamsitish va xo'rlashlariga ko'nikib qolgan: "E-e-e, isqirt, hayvon! Maktabda o'ynash topganmisan, maktabing bilan qo'shmozor bo'lgur! Yaramas, yetimcha, yetti kulcha! Bo'ri bolasi it bo'lmas, deydi. Odamlarning bolasi uyga tashisa, sen bo'lsang uydan chetga tashiysan. Yana maktab haqida so'z ochib ko'r-chi, oyog'ingni sindirib, maktab qanaqaligini senga ko'rsatib qo'yaman..." Shirin so'zni deyarli eshitmaydigan qizaloq kaltaklar og'rig'idan emas, endi maktabga qo'ymay qo'yishidan qo'rqib yig'laydi. Muqaddas dinimizda Payg'ambarimizning: "Yetim boqqan va uning kafilini olgan kishi Jannatda men bilan yonma-yon bo'ladi", – deb, ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini ko'rsatganlaridan anglash mumkinki, uning nolasi-yu faryodini tinglaguvchi Zot bor. "Yetimning haqidan qo'rq" degan so'zlar ham insonlarni ko'zini ochish, insofga chaqirish maqsadida aytiladi. Ammo qalb ko'zlari so'qir, na din, na odamgarchilikdan xabardor kelinoyi Oltinoyni o'ziga qul deb biladi. Uning farzandlari haqida so'z bormaganidan onalik baxtidan bebahra, bag'ritosh ayol ekanligi ayon. Yig'lab turgan chog'ida mushugi uni erkalatishi ba'zan hayvonlar insonlardan chandon darajada afzal va ustunroq ekanligini aytganday: "Mushugim esa har gal yig'laganimni sezib turganday, darhol tizzamga kelib o'tirib olardi". Dyushen maktabga olib ketishga kelganida ham, erining javobisiz "o'z qonunlari" bilan hukm chiqarayotganida tog'asi ham ehtimol, umrida bir bor yaxshilik qiladi. Ro'zg'orning kattasi o'zi ekanini aytib, xohlasa olib ketishi yo pishirib yeyishi mumkinligini aytadi.

Kelinoyi va Sayqal kampir obrazlari orqali Oltinoy xarakteri, shaxsiyati – portreti kengroq ochib beriladi. Yangasining soxta yuzi va asil ko‘rinishi uni tezroq uzatish – yo‘qotish dardiga tushib qolishida ochiladi: “Qizim, qozonda ovqating turibdi, sovimasdan yeya qol”. Yuzlari qizarib bo‘rtib kegan, to‘nkani eslatadigan, qozondek tulki telpakli kishi oldida qilingan bu mulozamat uning ustida savdo qilishayotgani uchun edi. Tog‘asi ham ajoyib: namatning bir chetida notanish kishilar bilan aroq ichib, beshbarmoq yeb o‘tiribdi. Loqayd, bemehr tog‘a sag‘ir jiyani razil insonni ravo ko‘radi. Uni otga o‘ng‘arib olib ketishayotganida “mehribon” yanga otliqlar bilan birga yugurgancha: “Qalay, muddaongga yetdingmi! Itdek haydab chiqarayotirman sen yaramasni. Qilmish – qidirmish deydlar, qilmishingga yarasha bo‘ldi. Ishongan mualliming ham sob bo‘ldi...” – deydi. Xayriyat, Oltinoy yangasini so‘nggi ko‘rishi shu bo‘ldi. Qilmishi qadar ichi qora, ta‘rifiga so‘z ojiz bu ayolga so‘nggi so‘zi insof emas, la‘nat bo‘ldi: “Ming la‘nat, senday toshbag‘ir yangaga! Ilohim, umr bo‘yi oqqan ko‘zyoshlarim-u to‘kilgan qonlarimning uvoli tutsin seni!.. Bu kecha o‘n besh yoshimda meni zo‘rlab, badnom qildilar. Bu baloga giriftor etgan yirtqichning bolalaridan ham yosh ekanman...” Voqeaning ta‘sirli nuqtalari o‘quvchiga ilmsizlikning turlicha ko‘rinishlarini, axloqsiz kishilarning qiyofalarini, Oltinoy kabi taslim bo‘lmasdan olg‘a intilishni, kishilarga qilingan ozgina yaxshilik jamiyatga ortig‘i bilan qaytishini tushuntirmay qolmaydi.

Qahramon va muhit konflikti yetim bolaligini kelinoyisi tomonidan “qizil yuzli” kishiga “tortiq” qilinishida kuzatiladi. Shu sabab u bir kunda ulg‘ayishga majbur bo‘ladi. Ayollarning eski an‘anaga ko‘ra insoniy huquqlardan mahrum etilishi, bilimsizlik, tubanlik qoralanadi. Jism va qalb erkinligida yashash erkaklar qatori ayollarning ham huquqi ekan, nega unga kurashilmaydi?! Albatta, qo‘llab-quvvatlaydigan, yordam beradigan insonlar topilsa, ular matonati bilan jamiyatda o‘z o‘rinlarini topa olishi, ulardan hatto Akademiklar chiqishi ajablanarli hodisa bo‘lmasligi mumkin. Muallifning shu o‘rinda Oltinoy nutqidan o‘z so‘zlarini aytadi: “To‘qol – ikkinchi xotin! Eh, oting o‘chgur bu so‘zni jinimdan battar yomon ko‘raman! Uni kim, qaysi zamonda o‘ylab topgan ekan-a?! Ham jismi, ham qalbi menchalik qullikka giriftor etilgan odam zoti bormikin bu olamda? Tur, g‘aflatdan, baxti qaro, g‘ofil bandalar, insoniy haq-huquqlardan mahrum etilgan jafokash ayollar. Zulmat dunyosini larzaga keltir! Buni men, orangizdan ushbu taqdirni so‘nggi bor hatlab o‘tayotgan ayol aytyapti!” Yomonlik ko‘rgan bo‘lishiga qaramay bu “baxt”ni boshqalarga tilamaydi. Mazluma ayol taqdirini hech kimga ravo ko‘rmay, so‘nggi jabrdiyda o‘zi bo‘lishini xohlashi kitobxonni unga yana-da yaqinlashtiradi. Lekin Dyushen tomonidan ozod qilingach, oltindek aql-zakovati, go‘zal axloqi uning isyonini ilm bilan qondiradi. Buni tengdoshlari

kabi taqdiriga ko‘nish yo‘lini tanlamay, o‘qishga intilgani va maqsadi yo‘lida taslim bo‘lmaganida ko‘rishimiz mumkin. Oltinoy obrazi ayol latofatiga burkanganligi sabab emotsional ta‘siri ortib borgan. Chunki u uchun kurashgan Dyushenni, o‘z ustozini, yaxshi ko‘rib qolganiga iqror bo‘lishi, bularni eslab so‘zlashida uni ayblashga jur‘at etib bo‘lmaydigandek. Aslida ham sevgi ko‘ngil ishi emasmi?! So‘zlarida qalbi orom topgan insonni sevish mumkin-ku. Negaki Oltinoy kimningdir baxtini tortib olmadi, yaqinlari yuziga oyoq bosmadi, shunchaki aqli va yuragi tanlagan insonni ojiza bir ayol bo‘lib, qalbdan sassiz sevdidi xolos. U shunday sabrli va irodaliki, nafrat va muhabbatini bola qalbida birdek saqlaydi – har ikkisi ham o‘z egasiga yetib bormaydi. Nafratidan uzoqlashib, muhabbatiga o‘qish orqali malham qo‘yadi. Umuman olganda, Oltinoy – sevgisi bir olam, hayotning turfa sinovlariga bardoshli, intiluvchan, irodali, qalbi va ruhi pok qahramon. U ma‘naviy va axloqiy go‘zal, nozik tabiatli, o‘zligini tanigan ezgulik timsolidir.

Yana bir alohida, “yopiq” qahramonligi bilan ajralib turadigan obraz – Qoraqiz eja. U ilk bor “o‘choq boshida badqovoq, qora yuzi unniqib, cho‘p-ustixon bo‘lib ketgan bir kekxa ayol” sifatida ta‘riflanadi. “...Qora xotin bo‘lsa, hatto o‘rnidan qo‘zg‘almadi, lom-mim deb ham og‘iz ochmadi. Balki, u soqovdir? Uning sovib qolgan kulni eslatuvchi nursiz ko‘zlari, kaltak yegan itning dumi qisiq keladi, deganlaridek, hali kichkinaligidanoq nokas kishilarning hadeb urib-haydayverganlaridan bezib qolgan va bunga asta-sekin ko‘nikib qolgan itning termulib turishini eslatadi”. Portreti orqali uning ahvoli haqida tassavvur qilish qiyin emas. Ko‘zlari nursiz, yashashdan ma‘nosi yo‘q, qo‘llari dag‘al tayoqdek, diydasi qotib ketgan; sovuq va qayg‘uli qarashlari ifodalagan dahshatli manzara tufayli Oltinoy o‘zini qabrda yotgandek his qildi. “Qizil yuzli kishi” – eri “qoracho‘ri” deb ataydi. Demak, u baxti qora, o‘rni yo‘q, qadrsiz bir ayol. Turmush o‘rtog‘i uchun cho‘ri xolos. Oltinoy bu ayolning holatini ko‘rib, daxshatga tushadi. Hech narsaning unga qizig‘i va ahmiyati yo‘q, hissiz munosabatlari taqdirga taslim bo‘lganligini bildirardi. Qochish uchun yog‘och qoziq bilan o‘tov ostini kovlayotganini ko‘rsa-da, zig‘ircha e‘tibor bermaydi. Balki, bu ishlarning natijasiz ekanligini bilardi: “U o‘zini dunyo ishlaridan mutlaqo xoli, olamni suv bossa, to‘pig‘idan kelmaydigan hissiz bir kimsadek tutardi.” Qizil yuzli kishini mirshablar olib ketishida u qobig‘ini yorib chiqadi: umr bo‘yi ro‘shnollik ko‘rmagani, yosh umrini xazonga aylantirganligi uchun uni qarg‘ab, yig‘laydi. Shu choqqacha tayinli so‘z og‘zidan chiqmagan bu ayol to‘fonga qarshi chiqolmasligini bilan somon kabi jimgina erkini topshirib qo‘yganligini anglash mumkin. Jamiyatdagi ana shunday axloqdan yiroq, noinsof, vijdotsiz – inson nomiga nomunosib kishilar sabab qanchalab ayollar taqdiri shu tarzda xazon bo‘layotgani Qoraqiz eja obrazida ochib berilgan. Agar Dyushen bo‘lmaganida ularning safi

yana bittaga ko'payardi. Hayotimizga shunday Dyushenlar har vaqt va har zamonda lozimligi, ojiza va zaifa ayollarni xo'rlash emas, himoyalash va qadrlash kelajakka katta sarmoya kiritish bilan barobardir. Zero, erkak o'qisa, bir kishi – ayol o'qisa, jamiyat ilmi bo'ladi. U farzandlariga to'g'ri tarbiya berishi, atrofdagilar bilan odob doirasida muloqot qilishi oqibatida ijobiy kayfiyat ulashishi, go'zal odob-axloqi orqali ko'p falokatlarining oldini olishi, mushkul vaziyatlarga yechim berishi mumkin. Ayol ruhiyatining aksi kayfiyatining barqaror emasligi, uning bu o'zgaruvchanligi atrofdagilarga, ayniqsa, bolalarga sezilarli ta'sir qilishi bilan ham xarakterlanadi. Xulosa qilib aytganda, ayolning ichki va tashqi go'zalligi oila faravonligida muhim ahamiyatga ega.

Adibning ko'plab asarlarida ulug'lanadigan mehnatsevarlik "Somon yo'li" qissasidagi To'lg'onoy, Aliman, Qosim, Suvonqul, Jaynoq; "Bo'tako'z"da Aldey, Qalipa, Kamol; "Sarvqomat dilbarim"da Alibek, Boytemir, Ilyos; "Oq kema"da Bo'key xola, Mo'min chaqqon; "Alvido, Gulsari"da Tanaboy va Gulsari kabi Oltinoy obrazida ham bor. Chingiz Aytmatov mehnat insonni ulug'lashi, u orqali kishilar bir-biriga yaxshilik ulashishlarini bot-bot uqtiradi. Oltinoy ham yangasining yumushlaridan tashqari qish kelgan mahal ustoziga bolalarni soydan maktabga o'tkazib qo'yishga yordamlashardi. Biror marotaba madad berishdan qaytmaydi va yaxshilik qilishga intiladi hatto oyoqlari ko'karib, hushidan ketar darajaga yetgunicha. Maktabi dastlab kolxozlashtirish payti bir boydan qolgan otxona bo'lgani uchun ustoz tomonidan biroz epaga keltirilgandi, xolos. U yaxshilik qilar ekan, boshqalardan ham beixtiyor shuni kutadi, hech bo'lmaganda ozor bermasliklarini. Maktab uchun o'tin, pech u yoqda tursin soydan o'tishga birorta taxta olib kelishmagan ovuldoshlari Duyshenni hukumatdan moyonasini olib, bolalar bilan vaqtichog'lik qilib yurgan kelgindi deya qaraydi: "...ocharchilik yillari ovuldan ketib, bir muddat temiryo'lda ishlab yurib, nihoyat, don-daraksiz bo'lib ketgan o'sha Toshtanbekning o'gli Duyshen ekan". Nima bo'lganda ham u savodsiz avlodni ziyoli bo'lishi uchun jon kuydirib, mehnat qilayotgan mard inson edi. Avom xalq ota-bobolari ham o'qimishli bo'lmagani va ularni ketmoni boqib kelayotganiga mamnun, hayotdan boshqa narsa kutishmaydi. Ovul ahlining bu nutqi bilan yozuvchi eskicha qarashlar xalqning qon-qoniga singib ketganini, bunday illatlarga qarshi ekanini ko'rsatgan. (Xuddi

"Sarvqomat dilbarim"dagi Asalning uzoq qarindoshiga uzatish an'anasi kabi.) Xat-savodli bo'lish faqat hukumat boshliqlariga emas, har bir kishiga foydali va zarur ekanligi; ota-bobolari kitob ko'rmaganlardan ham o'qimishli, ziyoli insonlari chiqishi mumkinligi Oltinoy va Duyshen misolida olib chiqilgan. Qozoq ma'rifatparvari Abay Qo'nonboyev singari xalqining bilimli bo'lishini istashi mavjud jaholatni ko'rsatishi bilan mohirona ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, asardagi obrazlarning barchasida oz bo'lsa-da, muallif qarashi, qalbi, fikrlashi, kechinmalari yashiringan bo'ladi. Ammo bosh qahramonga yuklatilgan eng asosiy vazifalardan biri – mo'ljalga olingan nishonni urish. Asar g'oyasi – mag'zini ochib berish, eng muhim, dildagi murojaat va hayqiriqlarni yetkazishdan iborat. Muallif bu vazifalarni To'lg'onoy, Oltinoy, Ilyos, Kamollar orqali amalga oshiradi. Masalan, rassom bola. Ta'sirlangan voqea asosida rasm chizishga botina olmayotgan rassom bola tuyg'u va kechinmalarini baham ko'radi. Qanday surat? Qanday voqea? Nega chiza olmadi? kabi savollarning tug'ilishi tabiiy. Shu o'rinda muallif "men"i hikoya qiluvchi qahramonga ko'chgani seziladi: "Hali tugallanmagan narsa haqida hatto yaqin do'stinga ham eldan burun so'z ochishni xush ko'rmayman... beshikdagi go'dakning kim bo'lib voyaga yetishini oldindan aytish mushkul bir ish bo'lganidek, yozib tugallanmagan asar haqida ham biror narsa deyish qiyin". Odil Yoqubov "Adib va chin inson" maqolasida yozadiki, ayni zamonda u: "Hozir qanday asar yozypsiz?" degan savolni ko'p xushlayvermaydi. "Ha, endi, bir narsani qoralayapman. Noumid shayton, balki bir nima chiqib qolar", – deya kulib qo'ya qoladi. Shuningdek, qissa so'ngida ham obraz muallif nomidan so'zlayotgandek bo'ladi: "Men bu gaplarni o'zimga aytyapaman. Allanimalar haqida o'zimga-o'zim ko'p gapiraman-u, hamma vaqt ham ularning uddasidan chiqavermayman. Mana, hozir ham chizilgan suratim qanaqa chiqishi menga dargumon. Ammo bir narsaga ishonchim komilki, u ham bo'lsa – muttasil izlanish..." Qolaversa, Duyshendagi kamtarlik, xalqparvarlik, ta'na va minnatlarsiz yaxshilik qilish, Oltinoydagi samimiylik ijodkorga qadrdon bo'lgan tuyg'u va hissiyotlardir. Ta'sirlangan real voqea yoki tarixiy asosga tayangan holda uni qayta badiiy sintez qilish, kompozitsiyasi, mavzu hamda g'oyasini aniqlash, voqealar rivojining tadrijiy takomili, qay yo'sinda ifodalash muallif induvidualligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rashidov A. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. Monografiya. – T.: "O'qituvchi", 2008.
2. "Sovetskaya Kirgizya" gazetasi, 23-iyun, 1964-yil.
3. Aytmatov Ch. Birinchi muallim. Qissa va hikoya. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.
4. Nashrga tayyorlovchi Meliboyev A. Ikki elning aziz farzandi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2023.

Kumush ABDURAZAQOVA,
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

“JALOLIDDIN MANGUBERDI” ROMANIDA BOSH QAHRAMON OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: maqolada Mahmud Nazarovning “Jaloliddin Manguberdi” romanidagi bosh qahramon xarakterining o'ziga xosligi, shakllanishi va badiiy talqiniga e'tibor qaratiladi. Qahramonning bolalikdagi fe'l-atvori, ilm va e'tiqodga munosabati, xayolot dunyosi, Najmiddin Kubro bilan aloqalari hamda mo'g'ullarga qarshi kurashdagi sarkardalik qiyofasi tahlil qilinib, muallifning xolisona yondashuvi baholanadi. Tarixiy faktlar asosidagi badiiy talqin obrazning o'ziga xosligini belgilashi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Nazarov, tug'ma g'urur, tarixiy roman, xolisona yondashuv, badiiy talqin, tarixiy manba, epik tasvir.*

Аннотация: в статье рассматриваются своеобразие, формирование и художественная интерпретация характера главного героя в романе Махмуда Назарова “Джалолитдин Мангуберди”. Анализируются особенности характера героя в детстве, его отношение к знаниям и вере, мир его воображения, взаимоотношения с Наджмиддином Кубро, а также образ полководца в борьбе против монгольского нашествия; оценивается объективный подход автора. Выявляется своеобразие художественной интерпретации образа, основанной на исторических фактах.

Ключевые слова: *Джалолитдин Мангуберди, Махмуд Назаров, врождённая гордость, исторический роман, объективный подход, художественная интерпретация, исторический источник, эпическое изображение.*

Annotation: the article examines the distinctive features, formation, and artistic interpretation of the main character's personality in Mahmud Nazarov's novel *Jaloliddin Manguberdi*. It analyzes the hero's childhood character, his attitude towards knowledge and faith, his imaginative world, his relationship with Najmiddin Kubro, and his image as a military commander in the struggle against the Mongol invasion, while also assessing the author's objective approach. The distinctive nature of the character's artistic interpretation based on historical facts is highlighted.

Key words: *Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Nazarov, innate pride, historical novel, objective approach, artistic interpretation, historical source, epic depiction.*

Jahon adabiyotida Jaloliddin Manguberdi obrazini gavdalantirgan ko'pdan ko'p adabiy asarlar yozilgan, unga bag'ishlab tadqiqotlar yaratilgan. Butun turkiy xalqlar xotirasidan mardlik, jasorat, vatanparvarlik timsoli sifatida mustahkam o'rin egallagan Jaloliddin Manguberdi haqida o'zbek adabiyotida yozilgan asarlar ham talaygina. Jumladan, M.Shayxzoda, A.Suyun, M.Nazarov, B.Abdug'afur va E.Samandar kabi turli avlod vakillari yozgan asarlarda Jaloliddin Manguberdi obrazi vatan ozodligi uchun kurashuvchi mard, jasur xalq qahramoni sifatida tasvirlangan. Shu o'rinda ilk marotaba chuqur tahlilga tortilayotgan Mahmud Nazarovning “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy romaniga to'xtalib o'tish joiz hisoblanadi. Mazkur roman ikki kitobdan iborat bo'lib, unda Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori Jaloliddin Manguberding hayoti, bolaligi, harb va din ilmidan saboq olgan davri, mo'g'ullar istilosiga qarshi olib borgan mardonavor kurashi hamda qahramon shaxsiyati badiiy talqin etiladi. Ayrim asar mualliflaridan farqli o'laroq roman muallifi turli tarixiy manbalarga tayangan holda qahramon siymosini epik ko'lamda kengroq tasvirlaydi. Insoniy iztiroblar va ruhiy kechinmalarni bir-biriga uyg'un holda bayon etadi.

Romanda Jaloliddinning bolalik davri aks etgan o'rinlarda uning boshqa bolalarga nisbatan yaqqol farqlanib turuvchi xarakterlariga, jumladan, shahzodalarga xos “tug'ma g'urur”ga ega ekaniga guvoh bo'lamiz. Vazifalarni bajara olmayotgani uchun ustoz Faxriddin Roziy va buvisi tomonidan qattiq tahqirlangan, haqoratlangan shahzoda o'z haqqini talab qiladi,

natijada buvisining buyrug'iga ko'ra qaznoqqa tashlanadi. Voqeaning asl mohiyatini anglagan sulton Alovuddin Muhammad o'g'lini himoya qilib onasiga shunday deydi: “... To'g'ri, biz kattalarga itoatda bo'lishni talab etish zarur deb hisoblaysiz. Biroq Jaloliddin mening suyakli zurriyodim, unda shahzodalarga xos tug'ma g'urur bor! Uning o'ziga bo'ladigan hurmat-e'tiborni talab qilishga haqqi bor. O'g'limga nisbatan “kaltaklash” kerak, “zumrasha” degan manfiy so'zlarni ishlatib, qo'lidan qisib ushlab uni qaznoqqa ravona qilish va eng muhimi, o'glimni yomonotliq qilib ko'rsatishi jazoga loyiq!”[1:64]

Yuqoridagi tasvir orqali yana bir holat kitobxon ko'z o'ngida oydinlashadi, ya'ni Malikayi Zamon hisoblangan Turkon Xotun Jaloliddin Manguberдини bolalik chog'idanoq suymas, Oychechak o'z qavmidan emasligi sababli uning farzandini ham valiahd deb hisoblamas edi. Muallifning o'tkir qalami keyingi ziddiyat va parokandaliklar qanday sodir bo'lishi mumkinligini mana shunday kichik detallar orqali mahorat bilan ochib bergan. Afsuski, Jaloliddinning ham oqlab bo'lmaydigan ba'zi yomon xislatlari mavjud edi. Ijodkor qahramonini faqat ijobiy bo'yoqlar bilan bezatmasdan, uning nuqsonlarini ham ro'yi-rost tasvirlaydi. Shu jihati bilan Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasiidagi ideal shahzodadan farqlanishi yaqqol sezilib turadi. Muallif Jaloliddinni u qadar ideallashtirib yubormaydi, tarixiy haqiqatning badiiy talqinida ham xolisona va neytral munosabatda bo'ladi. “Jaloliddin Manguberdi” roman-dilogiyasining bolalik qismi yoritilgan

boblarida Jaloliddin faqat olqishlarga loyiq “namunali” va “a’lochi” bola sifatida tasvirlanmaydi. U diniy bilimlardan dars beruvchi ustozining vazifalarini vaqtida bajarmas, savollariga esa oldi-qochdi javoblar berib qoniqarsiz baholar olardi. Ustozining esa hurmatini doim ham joyiga qo’ymas, uning jig’iga teguvchi qiliqlar bilan sabrini sinardi. Diniy ilmlarni chuqur o’rganishingiz kerak degan savolga esa javobi bitta: *“Men endi kichkina bola emasman! Berilgan diniy ilmlardan o’zimga keragini o’zlashtirib oldim. Endi ortiqcha diniy ilm to’plab masjidga imom bo’lmayman. Men jang san’atini, harb ilmini chuqurroq o’rganishim lozim”*. [1:63]. Uning bolalikdagi bu jihatlarini muallif umumlashtirgan holda shunday baholaydi: “Ha, Jaloliddin bilan hazrat o’rtasida katta jarlik paydo bo’ldi. Bu jarlikning paydo bo’lishi, Jaloliddin fe’l-atvoridagi takabburlik, o’qituvchisining hurmatini joyiga qo’ya olmaganligidan edi. Jaloliddinda tug’ma o’jarlik, takabburlik, o’zboshimcha harakatlar mavjud edi. Buni Jaloliddinning o’zi ham bilar, bilsa ham hech uni yo’qota olmasdi. Bu takabburlik va o’zining bilganidan qolmaslik kasali, uni keyinchalik butun umr qiynadi. Jang maydonida ham uni ko’p xatoliklarga yetakladi”. Muallifning qahramonga bunday yondashuvi ayrim tadqiqotchilar, xususan, F.Kenjayeov tomonidan salbiy baholanib, muallifni tarixiy haqiqatlarni yaxshi o’rganmaganlikda ayblaydi. Biroq tarixda ham, mazkur asarda ham Jaloliddin Manguberdining ilk diniy ustози Majididdin Bag’dodiy deb ko’rsatiladi, balki mazkur holat qaysidir ma’noda ilk ustoziga bog’lanib qolishlik, sadoqatlik va chuqur muhabbatining ifodasi sifatida baholanishi va qabul qilinishi kerakdir. Qolaversa, bu kabi mayda detallar Jaloliddin Manguberdining kelgusida qilgan buyuk ishlariga soya sololmaydi.

Mahmud Nazarov “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy romanini faqat bir manbaga tayanib emas, turli tarixchilarning asarlariga murojaat qilgan holda mukammal badiiy ijod namunasi sifatida maydonga keltiradi. Xususan, yuqorida Jaloliddin Manguberdi xarakter-xususiyatlarini ochib beruvchi ma’lumotlarni uning zamondoshlari bo’lgan arab tarixchilari Ibn Vosil va Ibn al-Asir alohida ta’kidlab ketganini aytib o’tadi. Biroq bu tarixchilarning mulohazalarida biroz g’alizlik borligi haqida tadqiqotchi F.Kenjayeov “Istiqlol davri o’zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida ta’kidlab o’tadi: “Shuni ham ta’kidlash kerakki, Jaloliddin haqida faqat ijobiy ta’riflar emas, o’zgacha fikrlar ham uchraydi. Ayni shunday fikrlardan biri muarrix Ibn al-Asir tomonidan keltirilgan: “Jaloliddin juda johil odam bo’lib, o’z davlatini yomon boshqardi. Barcha qo’shni hukmdorlar bilan dushmanlik munosabatlarida bo’ldi, ularning mulklariga doimo ko’z olaytirdi. Shuning uchun ham zarur paytda hech kim unga yordam qo’lini cho’zmadi, barcha uni tashlab ketdi”. [2:399]. Ibn al-Asirning ta’rifida g’alizlik bor, chunki u keyinchalik Alouddin Muhammadni ham salbiy baholaydi, lekin undan avvalroq, ya’ni xorazmshohlar Bog’dodga harbiy yurish qilmasdan oldingi vaqtda Alouddin Muhammadni maqtaydi”. [3:37].

Aytish joizki, muallif oldindan bilish, karomat qilish kabi detallardan foydalangan holda roman voqealarini boshidan yakuniga qadar mantiqiy izchillikda bir-biriga ustalik bilan

bog’lay olgan. Natijada kitobxonda tom ma’noda “kelajakni ko’ra olish” hissi uyg’onishi, shubhasiz. Shu o’rinda Jaloliddin Manguberdining bu asardagi yana bir o’ziga xos jihatiga to’xtalib o’tish o’rinli hisoblanadi. Hali bola chog’idayoq oldiga katta maqsadlar qo’yib unga yetisha olishiga ham ishonchi komil bo’lgan yosh Jaloliddin hamma bolalardek oddiy hodisalardan hayratlanmagan. U hamisha aqlbovar qilmas voqealarga intilib yashagan. Asardagi qahramonning bu xususiyati keyinchalik shahzodaning buyuk ishlarga qo’l urishiga (ishora) sifatida tasvirlangan: *“...Bir gal u o’ta mo’rt bo’lgan katta yong’oq daraxtiga chiqib, enagalarining yuragini yordi*. [1:11].

– *“Axir nega bundoq qilasiz shahzodam, bu daraxt sal narsaga sinib ketishi mumkin*.

– *Men doim balandlikka ko’tarilishni yaxshi ko’raman, deb o’zini kulgiga solardi”* [1:64], yoki bolani boshqa ishlar bilan chalg’itish maqsadida aytilgan ertaklardan qoniqmay, turli savollar berib: *“Menga hayratda qoldiradigan qiziq voqealarga yoqadi”* [1:64], deb enagalarining cho’pchaklariga quloq tutmay qo’yadi.

Yuqoridagi parcha orqali Jaloliddin Manguberdining ikki holati: bolaligi va yigitlik davri bir-biriga naqadar mos va uyg’un holatda tasvir etilganiga guvoh bo’ldik va o’z-o’zidan “Bola boshidan, aql yoshdan” degan naql bejiz aytilmagani his qildik. Zero, muallifning epik tasvir mahorati bu yerda garchi tarixiy haqiqatdan yiroq hodisalarni aks ettirgan bo’lsa-da, ijodkor fantaziyasi yordamida Jaloliddin Manguberdini kitobxon qalbiga mustahkam muhrlay olishni uddalagan. Bundan tashqari, Jaloliddinning tug’ilishi va unga ism qo’yish marosimlarida bobosi Takash sulton va Najmiddin Kubro xulofalaridan sanalgan Faxriddin Roziyning Jaloliddin haqidagi karomatlar kelgusida o’z isbotini topadi. Qur’on oyatlari bu go’dakning ismi Jaloliddin bo’lishini ko’rsatishi va “Ta’qdirnoma” kitobi sahifalari chaqaloq ismining taqdirini belgilab berishi kabi tasvirlar mahorat bilan chizilgan: *“...Keyingi sura oyatlarini pichirlab o’qiyotgan shayx: “Bu go’dak kelajakda buyuk hukmdor bo’lib, po’lat shamshiri bilan Mavorounnahr va Xuroson muzofotlarini egallaydi. Ushbu ilohiy kuch ko’magida u musulmon dunyosidagi jamiki mo’minlarga panohbonlik qilur”, – deb karomat qildi”*. [1:10]. Buni qarangki, haqiqatan ham keyingi bo’limlarda Xorazmshohlar davlati tanazzulga yuz tutgan bir paytda Jaloliddin taslim bo’lishni xayoliga ham keltirmasdan butun musulmon olamini mo’g’ullar bosqinidan asrab qolish yo’lida jonbozlik ko’rsatadi.

“Jaloliddin Mangubedi” romanida, ayniqsa, “Ta’qibning kuchayishi”, “Hind diyoridagi to’qnashuvlar” va “G’azna” kabi boblarida Jaloliddin Manguberdi vatanparvar, mard va jasur sulton sifatida namoyon bo’ladi. Ta’qibning kuchayishi bobida *“Bir boshga bir o’lim!”* [1:64], deya qo’shinini ruhiy jangovarlikka chaqirgan bo’lsa, “G’azna” bobida o’n ming mo’g’ul qo’shini qurshovidan omon chiqib shaxsan Chingizxonning e’tirofiga sazavor bo’ladi. Xuddi shu o’rinda muallifning tarixiy faktlarga xolisona yondoshganini ko’rishimiz mumkin. Chunki Abulg’oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida ham Chingizxon tilidan Jaloliddin

Manguberdi qaratib *“Otadin o’g’il tug’sa shundoq bo’lg’usi”* [6:137], degan jumlar keltirilgan. Jaloliddin jangovarligi, mardligi va jasoratlari bir qancha asarlarning umumiy nuqtasini tashkil etgan. Garchi talqinlar turlicha bo’lsa-da, Maqsud Shayxzodaning *“Jaloliddin Manguberdi”* dramasi keyingi asarlarning syujet oqimi uchun asos vazifasini bajarib kelgan. Xususan, Baxtiyor Abdug’afur, Mahmud Nazarov va Shahodat Ulug’ asarlarida Jaloliddin Manguberdi janglar, urushlar qurshovidagi mardonavor sarkarda va sulton o’laroq gavdalandiriladi. Biroq, Mahmud Nazarov qalamiga mansub *“Jaloliddin Manguberdi”* tarixiy romanining farqli jihati shundaki, unda Jaloliddin nafaqat jangavor hayoti, balki bolaligi, xayolot dunyosi, ilm-u urfon o’rganish davri va hatto Kubroviylik tariqati yetakchisi Najmiddin Kubro bilan bo’lgan samimiy munosabatlari ham batafsil bayon etilgan.

“Gurganjda kechgan bolalik” bobida yosh Jaloliddin Manguberdi yodidan chiqib qolgan bitta gunohi uchun tavba qilgani Najmiddin Kubro xonaqohiga hech kimga bildirmasdan tong saharlab borish tasviri yoki hayotiy burchlarining ro’yxatini tuzib borishi, To’maris haqidagi va *“Shohnoma”* asaridan olgan ibratlari qahramonning shaxsiyatini ochishga xizmat qilgan. Shu kabi jihatlari bilan *“Jaloliddin Manguberdi”* romani boshqa asarlardan alohida ajralib turadi. *“Gurganjda kechgan bolalik”* bobida Jaloliddin shu qadar xayolot dunyosiga boy qilib gavdalandirilganki, Kubro xonaqohidan tavba qilib chiqqan bolakay Najmiddin Kubroning o’zi haqidagi samimiy fikrlarini ham taxmin qilib turadi: *“Shahzoda negadir: “Hazrat umrim bino bo’lib bunday qalbi pok, ixlosli bolani uchratmagan edim, yoshlar orasida bundaqasi kam bo’lsa kerak, deb o’ylayotgan bo’lsa kerak”, – degan xayolga bordi”*. [1:52]. Birgina shu fikr uning naqadar beg’ubor olami borligidan, din peshvosiga ixlosi baland shaxs ekanidan dalolat beradi. Ayni vaqtda o’qirman yuzida yengil kulgu paydo qilib, shodlik hislarini uyg’otadi. Ma’lumki, diniy e’tiqodi mustahkam farzandgina, bu yo’lda har qanday mashaqqatga dosh bera oladi. Jaloliddin ana shunday shaxs bo’lib yetishadi. Muallif shahzodaning shu qirrasini ochib berar ekan, aslida, o’zining epik tasvir mahorati naqadar yuksak ekanini ham isbotlagan deyishimiz mumkin.

Adabiyotshunos Q.Yo’ldoshev o’zining *“Adabiyotshunoslik metodologiyasi”* nomli kitobida germevntika, ya’ni talqin masalasida quyidagicha mulohazalarini keltirib o’tadi: *“Jahon adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi badiiy asar matnini tushunish, tushuntirish va talqin qilishda muayyan*

prinsiplarga amal qiladi. Germevntika asosida ish ko’rilganda matn mohiyati soxtalashtirilib, qandaydir o’tkinchi mafkuraviy manfaatlarga qurbon qilinmaydi. Badiiy asarni har kim o’zicha, o’z dunyoqarashiga mos bilimi va hayotiy tajribasi darajasida tushunadi, his etadi. Asarda yo’q narsa izlanmaydi, bor narsa berkitilmaydi. Lozim o’rinda butun diqqat-e’tibor muallif shaxsiyatiga yoki asar yaratilgan tarixiy shart-sharoitga yoxud muayyan qahramon dunyosiga qaratiladi”. [4:64]. Darhaqiqat, yozuvchining Jaloliddin Manguberdi obrazi haqidagi talqinlari bilan tanishar ekanmiz, uning tarixiy manbalarga xolisona va o’z navbatida takrorlanmas voqealarga boy tarzda aks ettirganiga amin bo’lib boramiz. Misol tariqasida, Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning *“Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengburni”* tarixiy kitobidagi Irgiz jangi tafsiloti bilan tanishib o’tsak: *“Ikkala qo’shin ham yuzma-yuz bo’lib saf tortdilar. Dushixonning o’zi sulton qo’shinining chap qanotiga hujumga o’tdi, bu qanotni boshdan-oyoq yakson etdi. Lashkarlarni tartibsizlik bilan turli tarafga qochishga majbur qildi. Agar qo’shinning o’ng qanoti la’natilarning chap qanoti ustiga hujum uyushtirmaganda va ahvolni o’nglamaganda sulton lashkarlarining mag’lub bo’lishiga oz qolgandi”*. [5:29]. Kushluxonni mag’lub etgan mo’g’ul qo’shinlari vakillari bilan sulton Alovuddin Muhammad o’rtasidagi muloqotlarda va bu yerda Xorazmshoh va mo’g’ul lashkarlari bilan bo’lib o’tgan ilk jangda Rashiddin va Juvaynning yozishicha, Jaloliddin Manguberdi ham ishtirok etgan”. [5:302]. Bu tasvir va shunga o’xshash bir necha tarixiy faktlar Jaloliddin obrazining badiiy talqini uchun ishonchli manba sifatida xizmat qilgan. An-Nasaviy Jaloliddin zamondoshi va shaxsiy munshiyi bo’lgani sababli uning ta’riflari tarixiy faktlarning ishonchliliigi va badiiy ifodalilik jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlilga tortilgan mazkur roman qahramoni Jaloliddin Manguberdi bu va boshqa tarixiy manbalarning badiiy jamlanmasi, yaxlit qiyofasi sifatida maydonga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Nazarov Jaloliddin Manguberdi obrazini tarixiy shaxsning tayyor timsoli sifatida emas, xarakteri bolalikdan shakllangan murakkab shaxs sifatida talqin qiladi. Tarixiy haqiqatni xolis baholaydi. Jaloliddin siymosidagi g’urur, o’jarlik, e’tiqod, yuksak maqsad va jasorat kabi xislatlarni o’zaro bog’lab uning betakror qiyofasini yaratadi. Romanda tarixiy fakt va badiiy tasavvur uyg’unligi obrazni jonli, ishonarli va o’ziga xos darajada gavdalandirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov M. Jaloliddin Manguberdi. 1-kitob. – Toshkent: Ochin nashriyoti, 2024. 415-b.
2. Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta’rix. (Полный свод истории). – 399 c.
3. Kenjayev F. Istiqlol davri o’zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari: filol. fan. b-cha falsafa d-tri (PhD)... diss. – Toshkent, 2025.153-b.
4. Iyldoshev Q. Adabiyotshunoslik metodologiyasi: Magistrantlar uchun yuqov-uslubiy majmu’a (ishchi dastur). – Toshkent: ToshDTAU, 2023.79-6.
5. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni. Kamol Matyayubov tarj / –Toshkent: O’zbekiston, 2009.384-b.
6. Abulg’ozi Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho’lpon, 1992.537-b.

Zarina AXTAMOVA,
 BuxDU magistri
zarinaaxtamova3@gmail.com

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA NAFS VA INSONIY IRODA TALQINI

Annotatsiya: maqolada Jamol Kamol she'riyatida nafs va insoniy iroda masalasi, insonning o'z istaklarini boshqarishi hamda aql va nafs o'rtasidagi kurash tahlil qilingan. Shoirning ma'naviy-axloqiy va falsafiy qarashlari badiiy obrazlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jamol Kamol, o'zbek she'riyati, lirika, nafs, insoniy iroda, aql, ruhiyat, ma'naviy kamolot, shaxs erkinligi, tasavvuf, irfon, falsafiy tafakkur, poetika, badiiy obraz, tazod, metafora, inson va nafs ziddiyati.

Аннотация: в статье анализируется проблема соотношения нафса и человеческой воли в поэзии Джамола Камола, рассматриваются способность человека контролировать свои желания и борьба между разумом и нафсом. Духовно-нравственные и философские взгляды поэта раскрываются посредством художественных образов.

Ключевые слова: Джамол Камол, узбекская поэзия, лирика, нафс, человеческая воля, разум, духовный мир, духовное совершенствование, свобода личности, суфизм, ирфан, философское мышление, поэтика, художественный образ, антитеза, метафора, противостояние человека и нафса.

Annotation: the article analyzes the issue of the relationship between the self and human will in Jamol Kamol's poetry, focusing on a person's ability to control their desires and the struggle between reason and the self. The poet's moral, spiritual, and philosophical views are explored through artistic imagery.

Key words: Jamol Kamol, Uzbek poetry, lyric poetry, nafs, human will, reason, spiritual world, spiritual perfection, individual freedom, Sufism, irfan, philosophical thought, poetics, artistic imagery, antithesis, metaphor, the conflict between human and nafs.

Jamol Kamol she'riyati o'zining jozibadorligi, serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. "Shoir she'riyati, eng avvalo, ruhiy qashshoqlikka qarshi bo'lgan she'riyatdir. Uzoq yillar adabiyotda hukmron bo'lgan ruhoniyatsizlikka g'ayri, bir necha o'n yilliklar davom etgan she'r-u nasrning insoniylikdan yiroq va hissiz shiorbozlikka mahkum etilganini rad etgan, havosiz muhitda havoni sog'ingan, yuraklarni havo bilan to'yintirmoq istagan she'riyatdir. Shoirning har bir she'ri harakatsiz jamiyatga ruh bermoqni istagan tafakkurdan, yuksak maqomli ilhomdan tug'ilgan"¹, deb ta'rif bergan edi Xurshid Davron.

Darhaqiqat, Jamol Kamol ijodi o'zbek she'riyatining poetik va lug'aviy imkoniyatlarini kengaytirgan, mumtoz va zamonaviy she'r shakllarini sintez qilgan shakliy va mazmuniy yuksalish namunasidir. Shoir ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning she'rlarida oldin hech qayerda uchratmagan, noyob so'zlarga duch kelamiz. Masalan, "Suvaydo" she'ridagi suvaydo so'zi bunga misol bo'la oladi. Uning asarlarida o'zbek she'riyatining mumtoz an'analari (ayniqsa, tasavvufiy ruh va irfon) jahon falsafiy tafakkurining teran tajribasi bilan uyg'unlashgan. Shoir insonni shunchaki ijtimoiy mavjudot emas, balki koinot va ilohiy haqiqat bilan bog'liq murakkab ruhiy olam sifatida talqin etadi:

– Taqdir, meni nega inson yaratding,
 Ko'ksimda shodlig-u g'amdan yuz nishon.
 – Men senga qalb ila shuur baxsh etdim,
 Bilgin deb hirs nima, nimadir hayvon.
 – Taqdir, nega meni mehmon yaratding,
 Yaraq etgan chaqindek ketgum begumon.

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jamol-kamol-xurshid-davron-koksi-kuyik-shoir.html>

– Men senga o'lchovli umr baxsh etdim,
 Bilgin deb ishq nima, nimadir inson...²

She'rda savol-javob, tashxis, intoq, nido kabi badiiy san'atlar qo'llanib, misralarning ta'sirchanligi va badiiy jozibasini oshirgan. Lirik qahramon shoirlik qismatining sir-asrorlarini anglashga intilib, Taqdirdan ko'ksida shodlik va g'amlarning nega bunchalik kuchli kechishiga sabab so'raydi. Taqdir esa buning sababini lirik qahramonga qalb va shuur berilganligi bilan izohlaydi. Zero, insonni boshqa mavjudotlardan, xususan, hayvondan ajratib turadigan eng muhim jihatlardan biri ham aynan qalb va shuurdir. She'rning keyingi bandida esa umrning chaqmoqdek tez va shiddatli o'tishi ta'kidlanadi. Inson umrining qisqaligi uning mazmunini yanada teranroq his etishga undaydi. Lirik qahramon nazarida esa bu qisqa umr qalbdagi ishqning paydo bo'lishi, uning inson ruhiyatini boyitishi va hayotga mazmun bag'ishlashi bilan qadrlil va mazmunli bo'ladi.

Jamol Kamol yaratgan lirika shaxs erkinligi, tuyg'ular sofligi va ma'naviy buyuklik madhiyasidir. Shoir poetikasidagi dramatism va ruhiy toliqishlar zaminida insoniy qadr-qimmatni asrab qolish, har qanday ruhiy va ijtimoiy tazyiqlarga qaramay, o'zligini yo'qotmaslik g'oyasi ustuvorlik qiladi.

Jamol Kamolning nafs va insoniy iroda aks etgan she'rida insonning eng katta ichki kurashlaridan biri nafsni jilovlash, uni aql va iroda hukmiga bo'ysundirish masalasi yoritiladi. Shoir nafsni shunchaki moddiy istaklar majmui sifatida emas, balki inson o'z vaqtida nazorat qilmasa, uning hayotiga hukmronlik qilishi mumkin bo'lgan kuch sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan she'rni ma'naviy-axloqiy mazmunga ega, o'z-o'zini tarbiyalashga chorlovchi falsafiy asar sifatida baholash mumkin.

² <https://n.ziyouz.com/portaal-haqida/xarita/uzbek-she'riyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/jamol-kamol-1938>

She'ning dastlabki misralaridayoq shoir nihoyatda ta'sirchan tashbeh yaratadi:

*"Yo'lingda yo'l boshchi bo'lib qolmasin,
 O'zing doim yo'lga boshla nafsingni."*³

Bu misralarda "yo'l" insonning hayot yo'li, "yo'l boshchi" esa shu yo'lda unga hukm o'tkazuvchi kuch ramzidir. Shoir insonni o'z nafsining ortidan ergashuvchi emas, aksincha, nafsini boshqaruvchi shaxs bo'lishga da'vat etadi. "O'zing doim yo'lga boshla nafsingni" misrasi she'ning asosiy g'oyaviy o'qini belgilaydi: insonning haqiqiy kamoloti uning istaklari ko'pligida emas, balki ularni boshqara olish qobiliyatidir. Keyingi misralarda esa bu fikr yanada keskinlashadi:

*"Hazir bo'l, boshingga chiqib olmasin,
 Oyog'ing ostiga tashla nafsingni."*

Bu yerda "boshiga chiqib olmoq" iborasi nafsning inson ustidan hukmron bo'lib qolishini anglatadi. Shoir "nafsingni oyog'ing ostiga tashla" deya kuchli metaforik obraz yaratadi. Bunda nafsni butunlay yo'q qilish emas, balki uni inson irodasi va aqli ostiga bo'ysundirish nazarda tutiladi. "Boshing" va "oyog'ing" so'zlarining qarama-qarshi qo'yilishi ham badiiy jihatdan e'tiborlidir: nafs yuqoriga ko'tarilsa — insonni boshqaradi, oyog' ostida qolsa — inson uni boshqaradi. She'ning ikkinchi qismida shoir nafsning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlariga e'tibor qaratadi:

*"Ba'zilar ko'tarib yuradi qo'lda,
 Hamma aytganiga rozi bo'ladi."*

Bu misralarda insonning o'z nafsiga haddan tashqari yon berishi natijasida mustaqil fikrdan, qat'iyatdan va ichki erkinlikdan ayrilishi tasvirlanadi. "Ko'tarib yuradi qo'lda" iborasi nafsni ardoqlash, unga ortiqcha e'tibor berish ma'nosini kuchaytiradi. Bunday odam o'z xohish-istaklarining quliga aylanadi. Xayriddin Sultonning "Yo, Jamshid" hikoyasida ham O'rinboy qimorga berilib, oilasining tinchini o'g'irlaydi, bolalarining rizqini qirqadi, akasi bilan adovatga boradi. Qarzga botib, o'lim bilan ro'baro kelganda ham ko'zi ochilmaydi. Chunki u nafsining quliga aylanib bo'lgan edi.

Eng chuqur falsafiy fikr esa keyingi ikki misrada mujassam:

*"Nafsi idrokiga hukmron elda
 Oqil qolib, johil qozi bo'ladi..."*⁴

Bu yerda "oqil" va "johil", "idrok" va "nafs" tushunchalari qarama-qarshi qo'yilgan va tazod san'atini yuzaga keltirgan. Inson

aql bilan ish tutishi kerak bo'lgan bir paytda nafs idrok ustidan hukmronlik qilsa, qadriyatlar o'z o'rnini almashtiradi: dono odamning fikri qadrsizlanib, bilimsiz yoki nafsiga berilgan kishi hukm chiqaruvchi mavqega kelishi mumkin. "Johil qozi" obrazi shu ma'noda juda kuchli ramziy va ijtimoiy obrazdir.

She'rda maqol va hikmatlarga xos lo'ndalik ham kuchli. Unda murakkab falsafiy fikrlar sodda, obrazli va xalqona ifodalar orqali berilgani uning ta'sirchanligini oshiradi. Umuman, Jamol Kamol ushbu she'rda insonni tashqi dushmandan ko'ra ichki dushmani — nafsiga qarshi kurashishga chaqiradi. Chunki insonni tubanlashtiradigan narsa ko'pincha tashqaridan kelmaydi, u insonning o'z ichida paydo bo'ladi. Nafs aqlga bo'ysunsa, inson o'zligini saqlaydi; aksincha, nafs aqlni boshqarsa, insonning "oqil"ligi ham "johillik"ka aylanishi mumkin.

Ijodkorning "Bir jahon ko'rdim, ajab..." g'azalida ham lirik qahramon dunyoda ro'y berayotgan ochko'zliklar, taloto'plardan aziyat chekadi. Ochko'z kimsalar orasida yer-u ko'k talash. Lirik qahramon nazarida insoniyat tubanlashib, kattadan kichikkacha hammasi nafsiga qul bo'lib qolgan. Vahima va shov-shuvga o'ch bu dunyo kishilari orasida "mansab-u maydon talash". Nega dunyo bu qadar razillik botqog'iga botgan!? Shoir ulkan saltanatlarni ham parchalab yuborgan, aslida, makkor dunyoning o'yinlari, mol-u dunyo havasi emasmi, — deya savol qo'yadi:⁵

*Gar bugundan charchasang, hozirni qo'y, moziyga boq,
 Betinim jang-u jadal, Eron talash, Turon talash.*

Nafsiga qullik, mol-u dunyoga hirs qo'yish shu qadar haddi a'losiga yetganki, hatto "mo'min-musulmonlararo iymon talash". Ezgulik, odamiylik, mehr-u muhabbat toptalgan bunday jamiyatda esa ko'zbo'yamachilik, aldov kabilar illatgina emas, hatto rostni yolg'on, yolg'onni rost ko'rsatib ish bitirish odatiy hol.

Jamol Kamol she'r orqali o'quvchini o'z qalbiga nazar tashlashga, istaklarini nazorat qilishga, aql va iroda bilan yashashga undaydi. Asarning bugungi kun uchun ahamiyati ham shunda, o'zini boshqara olgan insonlargina hayotini boshqara oladi. Jamol Kamol she'riyati insonni o'zligini anglash, nafsini jilovlash va aql-iroda bilan yashashga undaydi. Shu jihatdan shoir ijodidagi ma'naviy-falsafiy g'oyalar nafaqat badiiy-estetik, balki bugungi kun uchun ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

⁵ Munisjon Hakimov. Jamol Kamol ijodi: mavzu, g'oya va badiiyat. — Toshkent: Tafakkur, 2025. 89-bet.

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/jamol-kamol-1938>

⁴ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/jamol-kamol-1938>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munisjon Hakimov. Jamol Kamol ijodi: mavzu, g'oya va badiiyat. — Toshkent: Tafakkur, 2025. — 184 bet.
2. Jamol Kamol. Adabiyot — nurli so'z. — "Yoshlik" jurnali, 2011-yil, 10-son.
3. Jamol Kamol. — "Gulxan" jurnali, 2022-yil, 9-son.
4. Жамол Камол. Қуёш чашмаси. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 104 б.
5. www.buxoromanba.uz
6. www.kh-davron.uz
7. www.ziyouz.com

NAZAR ESHONQULNING “QO’L” HIKOYASIDA TOPOXRONOS POETIKASI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o'zbek nasrining o'ziga xos vakili Nazar Eshonqulning “Qo'l” hikoyasida makon va zamonning badiiy munosabati, ya'ni topoqronos poetikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda topoqronosning faqat voqealar kechadigan geografik va xronologik fon emas, balki qahramon ruhiyatini ochuvchi, xotira va hozirgi zamon o'rtasidagi aloqani yuzaga chiqaruvchi hamda hikoyaning ramziy-falsafiy mazmunini kuchaytiruvchi poetik kategoriya ekani asoslanadi. Hikoyadagi makonning subyektivlashuvi, vaqtning psixologik tus olishi, real va ruhiy makonning qorishuvi hamda “qo'l” obrazining makon-zamon tizimidagi semantik vazifasi yoritiladi. Nazar Eshonqulning tasvir usuli zamonaviy o'zbek nasridagi psixologik va ramziy ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: *Nazar Eshonqul, “Qo'l”, topoqronos, xronotop, makon, zamon, psixologizm, badiiy vaqt, badiiy makon, ramz, xotira.*

Аннотация: в статье анализируется поэтика топохроноса в рассказе Назара Эшонкула «Рука». Рассматривается взаимосвязь художественного пространства и времени, их роль в раскрытии внутреннего мира героя, памяти, психологического состояния и философской проблематики произведения. Особое внимание уделяется субъективизации пространства, психологизации времени и символической функции образа руки в структуре художественного хронотопа.

Ключевые слова: *Назар Эшонкул, рука, топохронос, хронотоп, пространство, время, психологизм, художественное время, художественное пространство, символ, память.*

Annotation: the article examines the poetics of the topoqronotope in Nazar Eshonqul's short story “The Hand”. It analyzes the interaction of artistic space and time, their role in revealing the protagonist's inner world, memory, psychological state and philosophical dimensions of the story. Particular attention is paid to the subjectivization of space, psychological perception of time, and the symbolic function of the hand image within the artistic structure of the work.

Key words: *Nazar Eshonqul, Hand, topoqronos, chronotope, space, time, psychologism, artistic time, artistic space, symbol, memory.*

Kirish. Badiiy asarning ichki yaxlitligini ta'minlovchi muhim poetik omillardan biri makon va zamon munosabatidir. Voqea sodir bo'ladigan joy va uning kechish vaqti dastlab syujetning tashqi shartlari sifatida ko'rinsa-da, mukammal badiiy tizimda ular qahramon xarakteri, ruhiyati, dunyoqarashi va muallif konsepsiyasi bilan chambarchas bog'lanadi. Ayniqsa, XX–XXI asr nasrida makon va zamon ko'pincha voqeani joylashtiruvchi fon emas, balki mazmun yaratuvchi faol poetik vositaga aylanadi.

Adabiyotshunoslikda makon va zamonning badiiy birlikda namoyon bo'lishi xronotop tushunchasi bilan izohlanadi. M.M. Baxtin xronotopni badiiy asarda vaqt va makonning uzviy bog'lanishi sifatida talqin qiladi. O'zbek adabiyotshunosligida ham ushbu

tushuncha badiiy asarning makoniy-vaqtinchalik tashkilini, qahramon mavjudligi va syujet rivojini anglashda muhim nazariy vosita sifatida qaraladi. Mazkur maqolada “topoxronos” atamasi makon va zamonning o'zaro uyg'unlashuvi, ayniqsa ularning qahramon ruhiyati bilan birgalikda namoyon bo'lishini ifodalash uchun qo'llanadi.

Nazar Eshonqul ijodida insonning ichki olami, ruhiy ziddiyatlari, xotira, yolg'izlik va borliq bilan munosabati muhim mavzular sirasiga kiradi. “Qo'l” hikoyasi ham mazkur xususiyatlarni poetik jihatdan kuzatish imkonini beradi. Hikoyadagi makon va zamonning o'zaro aloqasi voqealarning tashqi ketma-ketligini belgilash bilangina cheklanmay, inson ongida kechayotgan jarayonlarni badiiy idrok etishga xizmat qiladi.

Makonning subyektivlashuvi va uning ruhiy funksiyasi. “Qo‘l” hikoyasidagi makonning asosiy xususiyatlaridan biri uning qahramon idroki bilan chambarchas bog‘langanidadir. Makon obyektiv, hammaga bir xil ko‘rinadigan geografik hudud sifatida emas, qahramonning ruhiy holati ta‘sirida o‘zgarib boruvchi badiiy muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv zamonaviy psixologik nasr uchun xos bo‘lib, tashqi olam bilan ichki olam o‘rtasidagi chegarani nisbatan noaniqlashtiradi.

Qahramonning xavotiri, yolg‘izligi yoki ruhiy bosimi kuchaygan sari makonning qabul qilinishi ham o‘zgaradi. Demak, makonning badiiy qiymati uning real o‘lchamlaridangina emas, balki qahramon ongida qanday aks etishidan kelib chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan makonni “ruhiy makon” deb atash mumkin. U qahramonning ichki holatini bevosita aytib bermasdan, uni muhit orqali sezdiradi.

Makonning bunday subyektivlashuvi o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi. Kitobxon tashqi voqelikni qahramon nigohi orqali qabul qiladi va natijada hikoyaning makoniy qurilishi psixologik tasvirning bir qismiga aylanadi.

Badiiy vaqtning psixologik tabiati. Hikoyada vaqtning faqat xronologik ketma-ketlik sifatida talqin qilish yetarli emas. Inson ongida kechadigan vaqt real vaqtdan farqli ravishda tezlashishi, sekinlashishi, uzilishi yoki o‘tmish bilan hozirgi zamonni bir nuqtada birlashtirishi mumkin. Nazar Eshonqulning badiiy tafakkurida bunday psixologik vaqt qahramonning ruhiy holatini ifodalash imkonini beradi.

Xotira badiiy vaqtning muhim mexanizmlaridan biridir. O‘tmishda sodir bo‘lgan hodisa qahramon xotirasida qayta jonlanganida u o‘tmish sifatidagi masofasini yo‘qotib, hozirgi zamon tajribasining bir qismiga aylanadi. Natijada asarda ikki xil vaqt — obyektiv vaqt va subyektiv vaqt parallel mavjud bo‘ladi.

Subyektiv vaqtning kengayishi yoki qisqarishi qahramonning ichki zo‘riqligini ham kuchaytiradi.

Shunday qilib, vaqt nafaqat voqealarning davomiyligini, balki ruhiy kechinmaning intensivligini ham o‘lchovchi vositaga aylanadi.

Topoxronos va psixologik tasvir. Nazar Eshonqul nasrining muhim belgilaridan biri psixologik tasvirdir. Yozuvchi qahramonning ruhiy holatini bevosita izohlashdan ko‘ra, ko‘pincha ramz, makon, vaqt va predmetlar orqali ifodalashga intiladi. “Qo‘l” hikoyasida ham bunday usul muhim o‘rin tutadi.

Psixologik tasvirda topoxronosning ahamiyati shundaki, qahramonning ruhiy holati makon va zamon orqali bilvosita ifodalanadi. Masalan, qahramonning yolg‘izligi faqat “u yolg‘iz edi” degan jumla orqali emas, balki uning makondagi holati, atrof-muhit bilan munosabati va vaqtning qanday his qilishi orqali ochiladi.

Badiiy vaqtning sekinlashuvi qahramonning ruhiy zo‘riqligini kuchaytirishi mumkin. Makonning yopiq yoki chegaralangan tarzda tasvirlanishi esa uning ichki siqilishini ifodalashi mumkin. Shu tariqa tashqi va ichki makon o‘rtasida oetic oeticizm hosil bo‘ladi.

Xulosa Nazar Eshonqulning “Qo‘l” hikoyasi makon va zamonning oddiy tasviri bilan cheklanmaydigan, ularni inson ruhiyati bilan bog‘laydigan murakkab oetic tizimga ega asarlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Hikoyada topoxronos tashqi voqelikni tashkil etuvchi element emas, balki qahramonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiluvchi faol badiiy vositadir.

Umuman olganda, Nazar Eshonqul hikoyasidagi topoxronos yozuvchining inson ruhiyatini chuqur tasvirlash mahoratini ko‘rsatuvchi muhim oetic vositalardan biridir. Makon va zamonning bir butun holda tasvirlanishi asarning falsafiy mazmunini kengaytirib, kitobxonni voqealarning tashqi qatlamidan qahramonning ichki olamiga olib kiradi. Shu jihatdan “Qo‘l” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrida makon-zamon va psixologizm munosabatlarini tadqiq etish uchun muhim badiiy material bo‘la oladi.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. Eshonqul, Nazar. “Qo‘l” hikoyasi.
4. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va Nazar Eshonqul ijodiga bag‘ishlangan adabiyotshunoslik tadqiqotlari.



Tjad soati





O'qituvchi, muallim kasbiy faoliyati bevosita ijod bilan bog'liq jarayon. Shu bois aksariyat ustozlarimizning badiiy adabiyotga daxldor ijod namunalari bo'lishi tabiiy. Jurnalimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqqan holda, ijodkor muallimlar va o'quvchi yoshlarning ilhom namunalarini ijod soati ruknida berib borishni joiz topdik. Zero, muallimlarning tunlari uxlamasdan ilhom va tafakkur uyg'unligidagi zahmatli mehnatlari faqatgina o'zlarining daftarlari varaqlarida qolib ketmasin. Ne ajabki, muallim daftarlari bitilgan samimiy satrlar yoshlar va hamkasblari qalbida ham ilhom cho'g'larini otashlantirsa.



2003-yil 11-noyabrda Xorazm viloyati Xonqa tumanida Qoraqosh qishlog'ida tug'ilgan. 2011-yil shu tumandagi 9-son maktabning 1-sinfiga qabul qilingan. 2022-yil muvaffaqiyatli tugatgan va Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilingan. Hozirda o'qishni tamomlagan. Zomin seminari ishtorokchisi.

Go'zalxon
SAMANDANOVA

ONA TUPROQ

YURT

Ey zamin, ey davron, ey bobo tuproq
Sendan yaralganman, azalim sensan.
Zarra kam ham emas yoki sal ko'proq,
Yashayman so'ngida, tugarim sensan.
Yuzimda qovjirab qotgan jilmayish,
Soxtalik menga tuttirdi nishon.
Tuprog'ing bag'rida ildizim qolib,
Tomirsiz so'larman qovjirab ishon.
O'zga yurt tuprog'i tanimas meni,
Yiqilsam yana bir ko'tarib urdi.
Ortda qoldirib ketgandim seni,
Omadlar mendan yuzini burdi.
Seni bag'ring issiq, quchog'ing qaynoq,
Peshonam o'pasan erkalab, suyib.
Biz uchun tinmaysan, qo'llaring qadoq,
Baxtinga quvonib, dardingga kuyib.
Yurtim, ostonangda o'tsin bu jonim,
O'zga tuproqlardan topmadim qo'nim.
Holim xasta emas, emas ko'z yoshli,
Shodiyona sen ila o'tkazgan kunim!

Ona tuproq, menda titroq,
Men baxtliman, g'amdan yiroq.
Bag'ringdan ham eng taftliroq,
Suyukliroq, suyumliroq
Bag'ir yo'qdir, buyuk tuproq.
Agar ketsam sendan yiroq,
Ezib qo'yar sog'inch, firoq.
Holim harob, umrim nurab
Ketgaydirman tog'day qulab.
Borsam hamki ming bir tuproq,
Zar tersam ham yerdan biroq,
Senday aziz va oliyroq,
Bo'lolmagay ona tuproq!
Bobolarim yurgan so'qmoq,
Kindik qonim singgan tuproq,
Doim ochding menga quchoq,
Menga faxr, sen deb yonmoq.
Yo'limda sen mayoq, chiroq
Ishon mening niyatim oq:
"Yurtimni men buyuk qilmoq"
Suydim seni ONA TUPROQ!!!

KICHKINA

Sevib qolibdi bir suluv yigit,
Qaddi basti chiroylikkina.
Quyosh nuri tegmagan yuzga,
Onasi ham o'pmagan yana.

Mersdan tushib keldi yonimga,
Ko'zoynagi biraaam yarashgan.
Birga ketib boryotsak hamma,
Bizga havas bilan qarashgan.

Alp kelbati, purviqor qaddi,
Soyasida yashirar meni.
Atay poshnali kiygandim, ammo,
Bo'yim yelkasiga yetsaykan qani.

Ovqatlandik, suhbat ham qizg'in,
Zimdan qarab qo'yaman unga.
Ich-ichimga sig'maydi sevinch,
Go'zal kitoblar olibdi menga.

Deydi: "Sevgi tanlamaydi yosh,
Uzoq-yaqin tanlamas yana."
Ey voh, biram boshlarim qotgan,
Shunday yigit mendan kichkina.

O'ylayverib o'yimda isyon,
Yuragimda ajib tantana.
Tegaver deb qistamang, ona
Axir, yigit bir yosh kichkina.

Onam derlar, kuyinib-pishib:
Mendan qilib yurmagin gina.
Eslikkinam, yaxshilab o'yla
Dadang mendan uch yosh kichkina.

Mayli, roziman, bo'laversin to'y,
Qo'llarimga qo'yamiz xina.
Ishqda yoshning ahamiyati yo'q,
Nima bo'pti, bo'yim kichkina!

DADAM BILADI

Narx navoga uquvim yo'qroq,
Chunki bozorni dadam qiladi.
Menga nima olingan bo'lsa,
Narxin faqat dadam biladi.

Qo'shni kelin so'raydi nogoh:
– Kompyutering qancha turadi.
– Kelinoyijon men olganim yo'q,
Men bilmayman, dadam biladi.

– Xo'p, soatni qanchaga olding,
Deya betinim so'rarlar yana.
– Men bundan bexabarman-ku,
Qiymati ham yo'q ekan, mana.
– Tunov kuni kiygan ko'ylaging,
Qaysi bozordan olganingni aayt.
– Dadam sovg'a qilganlar axir,
O'tgan yozda, ayni shunday payt.

– Jiyanimga so'rarlar seni,
Ko'ngin, erta sovchi keladi.
Og'iz juftlab qolaverdim jim,
– Ha tushundim, dadang biladi!

Kelinoyimda tugadi toqat,
Oxir maqsadga o'taqoldilar.
Savol berib menga o'zlari,
Javob berib ketaqoldilar.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Sayyora Halimova, Tadjixon Sabitova,
Maxpuza Karaxodjayeva, Dilfuza Toshniyozova,
Gulboxor Ernazarova, Komiljon Qarshiyev,
Uyg'unjon Turdimurodov, Diyora Yunusova,
Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov,
Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva,
Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov,
Davronova Mahfuza, Dilafruz Jabborova,
Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev,
Feruza Sharopova, Adiba Ma'diyeva,
Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov,
Sharipboy Bobojonov, Madixabonu Pardayeva,
Xilola Ismailova, Kamola Jumayeva,
Marxabo Abdullayeva, Nigoraxon Ro'zibayeva,
Dildora Usarova, Mahkamoy Tursunova,
Farhod Nizomov, Moxira Sadullayeva,
Muhayyo Vafoyiva, Bobomurod Mirsanov,
Gulsanam Xoliqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda
Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Dilobar JURAYEVA

BUYUK O'ZGARISHLAR DAVRI..... 3

TILSHUNOSLIK

Azamat AKBAROV

Feruza AHMEDOVA

TILSHUNOSLIKDA PARAFRAZANING STILISTIK

XUSUSIYATLARI 6

Mashxuraxon BURXANOVA

KO'RISH SEMALI LEKSIK BIRLIKLAR TAVSIFI..... 9

Lola AVLIYOQULOVA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA

ONKOLOGIK TERMINOLOGIYANING

TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI 11

ADABIYOTSHUNOSLIK

Zilola SHUKUROVA

BAYOZLARNING TURKIY

ADABIYOTGA KIRIB KELISHI VA

TARAQQIY ETISHI 14

To'lg'anoy XOLIYOROVA ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINING ADABIYOTSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDAGI ILMIY IMKONIYATLARI	16
Yulduz ABDULHAKIMOVA ALISHER NAVOIY VA MUHAMMAD FUZULIY IJODIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI	19

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Yulduzxon SAYDAZIMOVA ONA TILI DARSLARIDA KATTA HAJMLI MATNLARNI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR	23
Dilfuzaxon GANIYEVA NOFILOLOG TALABALARNING KASBIY EHTIYOJIGA MOS BO'LGAN GRAMMATIK MATERIALNI INTERFAOL USULDA O'QITISH MODELII.....	25

TADQIQOTLAR

Farangiz YUSUPOVA SURXON BO'RIYEVNING "TANHOLIK TANTANASI" ROMANIDA ONA OBRAZINING BADIY TALQINI.....	30
Gulnora QO'SHAQOVA SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA FRAZEOLIK BIRLIK LARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI	33
Lola TO'XTAYEVA O'ZBEK SHE'RIYATIDA TARIXIY VOQELIKNING BADIY TALQINI (ABDULLA O'RIPOV VA ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATI MISOLIDA).....	36
Javohir IBRAGIMOV ADABIYOTDA PANDNOMA JANRI	39
Perizat JAUMITBAEVA QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINING QIYOSIY JANRIY TIPOLOGIYASI	41
Dilnoza SAYIPOVA IJTIMOYIY TARMOQLARDA TIL ME'YORLARI VA KOMMUNIKATIV SHAKLLARNING SOTSIOLOGIY VISTIK YANGILANISHI	44
Sherxon RASHIDOV INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "RAD ETISH" NUTQIY AKTINING QIYOSIY-PRAGMATIK TADQIQI.....	46
Nilufar MUHIDDINOVA "IDEAL SHAXS" KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSIK-SEMANTIK BIRLIKLAR.....	49
Lochinbek JUMANOV KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR	51

Агата ОСИПОВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ФОЛЬКЛОРУ КИТАЙСКИХ СТУДЕНТОВ.....	54
Charos ISLOMOVA COMPARATIVE ANALYSIS OF GRADONYMIC RELATIONS IN UZBEK AND ENGLISH ADJECTIVAL PHRASES	57

PEDAGOGIKA

Dildora SOLIXO'JAYEVA INKLYUZIV TA'LIM VA NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALAR: OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK.....	61
Madina GANIXANOVA MUHANDISLIK TA'LIMI YO'NALISHIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MULTIMODAL VA INTERFAOL MATERIALLARDAN FOYDALANISH.....	64
Gulira'no NOSIROVA BILINGVAL MUHITDA TIL O'ZLASHTIRISHGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV VA UNING PEDAGOGIK ASOSLARI	67
Vasila MAMADAYUPOVA OLIY TA'LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING ANALITIK KO'NIKMA LARINI RIVOJLANTIRISH	71

KICHIK TADQIQOT

Zulfizar BABANAZAROVA ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA QOFIYANING O'ZAK TARKIBIGA KO'RA TURLARINING QO'LLANILISHI.....	75
Sevinch ZIYOTOVA "BIRINCHI MUALLIM" QISSASIDA AYOL OBRAZI TALQINI.....	79
Kumush ABDURAZAQOVA "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ROMANIDA BOSH QAHRAMON OBRAZI TALQINI.....	83
Zarina AXTAMOVA JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA NAFS VA INSONIY IRODA TALQINI	86
Ro'zixon XOLMATOVA NAZAR ESHONQULNING "QO'L" HIKOYASIDA TOPOXRONOS POETIKASI.....	88

IJOD SOATI

Go'zalxon SAMANDAROVA ONA TUPROQ. YURT. DADAM BILADI. KICHKINA	92
---	-----------